

# Shukur Xolmirzayev

## Yur, tog'larga ketamiz

*Bog'rikeng tog'lilarning hammasi ham  
negadir Qoraboyga nisbatan yaxshi  
munosabatda bo'lmaydilar, uni odamlar  
orasidan yo'qotishga urinadilar.*

zot. 84(50zb) 44

№ 42

# SHUKUR XOLMIRZAYEV

## Yur, tog'larga ketamiz

*Qissalar*

FARSIONA DAVLAT UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
QABUL QILISH YIG'ISH VA  
KATALOQLASHP BO'LIMI



ZABARJAD  
MEDIA

2022

576 429

UO'K: 821.512.133-32

KBK: 84-44(50')

X - 72

### Xolmirzayev, Shukur

Yur, tog'larga ketamiz: qissalar [matn] / Shukur Xolmirzayev. – Toshkent: «Zabarjad Media», 2022. – 144 b.

ISBN 978-9943-6870-1-1

- *Bobo, nega egilib yurasiz? Nimani izlaysiz?*
- *Yoshligimni bolam...*

«Yur, tog'larga ketamiz» qissasi ana shunday epigraf hamda Saroytosh qishlog'ining go'zal ta'rifi bilan boshlanadi.

Qissa qahramoni qorong'i bostirmadan topib olgan kuchukbolaga (aslida, u oddiy kuchukbola emas, bo'ri bilan itning orasida tug'ilgan) Qoraboy deb ism qo'yadi. Shu kundan e'tiboran uning hayoti qiziqarli voqealar bilan boyib boradi.

Bag'rikeng tog'liliklarning hammasi ham negadir Qoraboyga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lmaydilar, uni odamlar orasidan yo'qotishga urinadilar.

Ammo asar qahramoni sodiq do'stini harchand himoya qilmasin, ko'pchilikka bas kelolmaydi. Alaloqibat, odamlardan zulm ko'rgan Qoraboy ularga zulm bilan javob qaytaradi. Natijada esa «Hayvonot bog'i»ga badarg'a qilinadi. Ammo o'rtada allaqachon ildiz otgan sadoqat rishtasi, mehr-muhabbat tuyg'usi do'stlarni qayta diydor ko'rishtiradi.

Tog'lar esa yana ularni qarshi olmoqqa shay turadi...

ISBN 978-9943-6870-1-1

© Shukur Xolmirzayev, «Yur, tog'larga ketamiz». «Yosh gvardiya», 1984-yil.

© Shukur Xolmirzayev, «Yur, tog'larga ketamiz». «Zabarjad Media», 2022-yil.

## QUSH TILI

«*Tangrim, bolalar bilan  
hayvonlarni o'z panohingda asra».*

*Amerikalik rejissyor Kramer suratga  
olgan filmning nomi*

Jahongir bir tabaqali eshikdan tashqari chiqdi. Ro'parada katta bog'. Ulkan-ulkan daraxtlar. Osmon ham katta, shishadek tiniq. Tepadan gala-gala qora qushlar uchib o'tyapti. Havodan turfa ko'katlarning hidi keladi. Har yoqda turli hasharot ovozlari vizillaydi.

Bola uy biqinidan esayotgan bosiq shov-shuvni eshit-di-da, o'sha yoqqa o'tdi. Uzun ariq bo'yida ham azim daraxtlar. Tepa shoxlari osmonga tekkudek. Quyi shoxlari yerga egilgan. Yaproqlari katta-katta, shapaloqdek-shapaloqdek.

U daraxt shoxlarida o'ynoqlab yurgan chipor qushlariga hayajon bilan qararkan, bir yerdan «qiyy-qiyq» etgan ojiz tovush keldi. Jahongir alanglab qaradi. Ariqning u betidagi qalin xazonlar ustida bir qush yalpayib yotar, bir qanoti dumi tomon surilib qolgan, sarg'ish tumshug'ini ochib qig'lllar edi. Jahongir u tomonga qadam bosgan edi, qushcha jon holatda «qiyy-qiyq» etdi-yu, tepadan bir balo yog'ildi: barcha chipor qushlar quyilib, Jahongirning ustida charx urib aylana boshladи. Shamollari tegadi bolaning yuziga! Jahongir ko'zлари ola-kula bo'lib, burila solib qochdi, yo'lakka kirdi.

- Ada! - deb baqirdi.

Eshik ochilib, birovning tepakal boshi ko'rindi.

- Ada! Anuv yerda bir qush yotibdi! Ucholmaydi! Qanoti mamundoq bo'lib qolgan. Obering menga!

Dadasi ichkariga qarab qo'yib, eshikni yopdi.

- Yur, hovliqma... Dam olgani kelgan odam shoshmaydi.

Tashqariga chiqishdi. Jahongir otasining qo'lidan tortib, ariq bo'yiga olib borar ekan, qushlar yana chug'urlashib, endi ota-bola ustida quyun bo'lib ucha boshladi: ular go'yo bularni qo'rqiitmoqchi, orqaga qaytarmoqchi bo'lishardi.

Qamariddin xazon ustidagi qushni ko'rib:

- Mayna-ku! E-e, - dedi. So'ng ariqdan hatlab o'tib, qushni ko'tardi. Qushcha jon holatda xazonlarga yopishgan ekan, ikki-uch bargni gajak tirnoqlarida changallab tipirchiladi. Qamariddin uning osilgan qanotini tortib ko'rди. Biqin patlariga puflab qaradi. - O'q yegan... Birov otibdi buni... «Paq» etkazib otibdi! Shu yerga kelib yiqlanga o'xshaydi.

- Menga bering!

- Yo'q. Buni davolash kerak.

- Nimaga otibdi?

- Yomon odam-da. Yaxshi odam qushlarga ozor bermaydi.

- Bu o'lmaydimi?

- Nega o'lar ekan? Lekin bu yerda yotaverganda o'lar edi. Yo mushukka yem bo'lardi.

- Uyga opketamiz-a?

- Opketamiz... tuzalsa. Ammo mayna odamga o'rganadi. Yur... Hamma qushlar ham odamga o'rganadi. Nima uchun buning nomini mayna deydilar, bilasanmi?

- Yo'q.

- Hali aytib beraman.

Divanda jurnal varaqlab o'tirgan Ikroma o'rnidan sapchib turdi.

- Nima u?

- Mayna. Yoding bormi?

- Qaydam... Doka bor.

- Ozgina ber.

- Menga bering maynani!

- Qo'lingni cho'qiydi, o'g'lim. Qara, og'zini ochyapti... Yur, bir yerga borib kelamiz.

Uzun, qizil gilam to'shalgan yo'lak televizor ko'riladigan zalga eltadi. Qamariddin dermantin qoplangan eshikni «tiq-tiq» urdi. Xalat kiygan Oqila opa chiqdi.

- Voy, mayna-ku!

- Yarador. Ariq bo'yida yotgan ekan. O'gilchamiz ko'rib qopti.

Oqila opa Qamariddinning gapini bo'lib, bog'ga chiqiladigan ikki tabaqali eshikka qarab oldi-da:

- Kattaning o'g'li qilgan, - dedi. - Miltig'i bor! Har kuni otadi.

- Qanaqa kattaning?

- E, anavi dachada kim turadi?

Ariq bo'yidan o'tgan devor orqasida bir vazirlikka qarashli dacha bor. U yerda, odatda, odam kam bo'lardi. Temir darvozasi og'zida o'qtin-o'qtin «Volga»lar tizilib ketadi.

- Ha-a, - dedi Qamariddin. - Yosh bola! Gaplashib qo'yamiz u bilan... otasi bilan!

Oqila opa boshini sarak-sarak qildi.

- Hamma shunday deydi. Bittasiyam yurak yutib bormaydi.

- Biz boramiz! Bizning qo'rqaqidan joyimiz yo'q... Yod bormi?

– Hozir, – Oqila opa xonaga kirib, qornidagi yozuvli xati tirnoqda ko'chirilgan shisha idishcha chiqarib berdi. – Ozgina qolgan ekan.

– Rahmat, Oqila opa!

Ota-bola orqaga qaytishdi.

– Ada, bitta ushlab ko'ray.

– Sabr qil.

– Nega mayna deydilar buni?

– Ko'p usta qush bu, o'g'lim. Har qanday jonivorning ovoziga taqlid qila oladi. Xohlasa, mushuk bo'lib mi-yovlaydi. Xohlasa, it bo'lib hurishi mumkin... Bulbulga o'xshab sayrab ham qo'ya oladi. Ana shuning uchun buni mayna, deb ataganlar: boshqa qushlarni, hayvonlarni mazax-u mayna qilgani uchun.

– Odamniyam mayna qiladimi?

– Buning uchun uni o'rgatish kerak, – Qamariddin birdan mamnun kului. – Buni gapirishgayam o'rgatsa bo'ladi. Hozir aytib beraman.

Qamariddin xonada qushni qig'illatib qanoti va biqiniga paxtaga shimdirilgan yod bosib, doka bilan bog'laguncha, «aytib berdi».

– Rahmatli momomizning bir xolasi bo'lar ekan. Be-farzand ekan. Eri bir kelishida cho'loq mayna olib keli-di. O'shanda bizning yurtda mayna bo'lмаган. Xo'p de, Ikroma! Mayna keyingi yillarda paydo bo'lib ko'payib ket-di. Xullas, momomizning xolasi cho'loq maynaga mehr qo'yib, parvarish qiladi. Keyin tilga o'rgatadi!... Ulug'oy degan qo'shnisi bo'larkan. O'sha devordan mo'ralasa, mayna darhol: «Uluq, Uluq!» deb qichqirarkan. Shunaqa. Keyin mayna o'lib qoladi. Uni yarim gaz bo'zga o'rabi ko'mishadi. Go'ri ustida o'sha xolamiz ko'p yig'lagan ekanlar... Shundoqli, bu taqlidchini gapga o'rgatish mumkin!.. So'ngra bu jonivor go'shtni yaxshi ko'radi.

– Go'sht bor-a, opa?

– Kolbasa bor, – dedi Ikroma. – Adasi, endi buningiz shu uyda turadimi?

– Bo'lmasa qayerda turadi? Shkafga solib qo'yamiz.

– Kechirasiz, va'dangizni bajaring. Bizga alohida xona berishsin... Tutuningizga toqatim yo'q. Buning ovozini ham o'zingiz maza qilib eshitib yotasiz.

– Ey, xotinboy!.. Bo'pti. Va'da berishdi-ku! – Qamariddin ro'paradagi derazadan ko'rinish turgan beton devorga ishora qildi. – Anu yoqda bitta amaldor yashaydi. O'g'li otgan emish buni. Hali u arzanda bilan o'zim gaplashib qo'yaman!

– Xudo xayringizni bersin, shu yerga tinch keldik, tinchgina ketaylik. Shunaqa qilsangiz, jo'navoraman. O'zim uydan xavotirdaman. Salimlarning eshigini buzhsgandan beri...

– Ularning eshigi chiroysi edi, shuning uchun buzhsgan. Biznikiga birov qaramaydi.

– Ada, menga bering!

– Xo'p. Mana... Ikki qo'llab ushla. Tirnog'i o'tkir! Ana shunday. Qo'rqlma!

Jahongir ikkinchi qanoti ham qo'shib bog'langan qushni o'zidan olisroq tutib tikildi. Kafti ham sezyapti: qushning biqini qappayib puchayadi. Dokadan issig'i o'tadi.

– Bog'ga chiqaylik!

– E-e! Bu yotishi kerak!.. O'zimiz bog'ga chiqamiz. Bunga xo'rak olib kelamiz. Chigirtka teramiz. Mayna chigirtkani juda yaxshi ko'radi.

Qamariddin shkafni ochdi, quyi tortmasini tortib, ichiga qushni qo'ydi. Mayna yotib oldi, so'ng dik-dik sakrab, tortmaning to'riga qochdi.

– Yuringlar!

Ikroma jurnalni yopib, shippagini kiydi. Jahongir xavotirlanib derazaga qaradi-yu, ko'zlari kattayib ketdi:

devor boshida bir necha mayna tizilib o'tirishar, «qig'-qig'» degan ovoz chiqarib, bu tomonga qarashar edi. Qamariddin kului.

- Buning sheriklari!.. Yod qo'yayotganimizda, ovozini eshitib kelishgan. Yuringlar, qaytib ketishadi... Qushlar ham taqdirga tan beradi, o'g'lim.

Jahongir shkafni yana bir ochib qarab, qayta yopdi. Bog'ga chiqishdi. Ikroma ko'rinnadi. Ota-bola beixtiyor uy biqiniga o'tishdi. Ana xolos! Boya mayna yalpayib yotgan xazon ustida bir baroq mushuk cho'nqayib o'tirar, qo'lini yalar edi.

- Maynangning baxti bor ekan! - dedi Qamariddin.

- Sal kechiksang bormi!..

- Mushuk yomon-a, ada?

- Uni yaxshi ko'radigan odamlar ham bor, o'g'lim. Odamzodning fe'li o'zi g'alati. Bir nima deb bo'lmaydi... Bilasanmi, biz - odamlar ham qaysidir hayvonga, qaysidir qushga yoqamiz. Qay birlari bizni yomon ko'ri shadi... Xo'sh, o'z tillarida bizni muhokama qilishadi...

- Nima?

- Ularning ham o'zlari tushunadigan tillari bor. E, bu olamda hamma jonli narsalarda til bor! Biz uni tushunmaymiz, xolos!

- Nimaga?

- Bilmasam... Ana, bilmas ekanman! Balki, shunisiyam yaxshidir? Har jonzot o'z sir-asrori bilan yashagani qiziq emasmi?

Ular imorat oldiga o'tib, to'g'ri ketgan tekis yo'lkaga chiqdilar. Ikroma teraklar soyasida jurnal o'qiyotgan ekan, bularga qo'shildi. Bog' adog'iga tushib, o't-o'lanlar orasidan chigirtka, qo'ng'iz izladilar. Havo issiq, o't-o'lanning hidi og'irlashib qolgan edi. Asta-sekin ota-bolaning mashg'ulotiga Ikroma ham qiziqdi. Bir

soatlar chamasi izg'ishib, talay chigirtka, bitta qo'ng'iz, ikkita jigarrang kapalak tutishdi.

– Zerikaman deyayotgan eding, senga ham ish topildi, – dedi Qamariddin Ikromaga.

– Terlab ketdim!.. Maynangiz ham bor bo'lsin! Lekin uning chirqillashiga men chidolmayman.

– Xo'p!.. Biz chidaymiz-da! Nasib bo'lsa, ishga bir sho'ng'iylik, Kamoliddinning qo'shig'iyam qulqoqqa kirmaydi keyin.

Qamariddin – texnikumda «Qadimgi dunyo tarixi» fani o'qituvchisi. Gazetalarga tarixiy mavzularda maqolalar ham yozib turadi. Maqolalari, albatta, mavsumiy bo'ladi. Bu galgi maqolasi «Toshkent – Kushon imperiyasining shimoliy chegara shahri» degan sarlavha ostida hal etilgan esa-da, bu haqiqatni shubha ostiga oladigan olimlar ham yo'q emas. Masalan, O'rta Osiyo antik tarixinning bilimdoni professor Masson bu masalaga biroz shubha bilan qaraydi. Holbuki, u kishining rafiqasi – antik san'at bilimdoni Galina Anatolyevna Pugachenkova bu masalaga zarracha shubha qilmaydi... Qamariddin maqolaning bosilishiga ham ishonadi: chunki Toshkent shahrining ikki ming yoshga to'lishi respublikada keng nishonlanadi, demak, bu to'g'rida ko'plab maqolalar e'lon qilinadi.

Uyga yaqinlashganda, Jahongir o'zib ketdi. Xonaga kirib, shkafni ochdi. Mayna shay bo'lib turgan ekan, dikonglab to'rga qochdi.

– Mayna, mayna! Senga chigirtka opkeldim, – dedi Jahongir.

Qamariddin maynani olib, qog'oz chetini ochdi. Ariqdan topilgan yolg'iz chuvalchang o'rmalab chiqayotgan ekan. Mayna bo'ynini ichiga tortib unga tikildi-yu, shu zahoti chiq etkazib chuvalchangni cho'qidi. Ko'z ochib-yumguncha yutib yubordi.

- Ada, yedi!
- Yeydi, yeydi!.. Bu go'sht-ku!
- Menga bering! O'zim beraman!
- Qo'lingga ehtiyot bo'l.

Mayna yomon xo'ra ekan, yo juda ochiqqandi. Bular bir soatda tergan luqmani hash-pash deguncha yo'q qildi, «yana ber!» degandek sap-sariq og'zini ochdi.

- Yosh ekan, - dedi Qamariddin. - Bu yil tuxumdan chiqqanga o'xshaydi... gapga o'rganishi oson.

- Gapiradi, a?

- Bilishimcha, bunga bir xil so'zni takrorlayverish kerak. Masalan, «Jahongir!»... Yo'q, bu bo'lmaydi. Boshqa so'z kerak. O'sha xolamizning maynasi «Uluq», degan-ku! Shunga o'xhash so'z topaylik. Uluq, buluq... Baliq... E, jiyanim bor-ku, Xoliq!.. Xoliq de. Bo'ldi. O'rganadi.

- Xoliq, - dedi Jahongir. Mayna «qiyyq», deb qo'ydi.

- Ada, Xoliq, dedi!

- Aldama.

- Xoliq, Xoliq...

- Men juda qiynalib ketyapman, - dedi Ikroma.

- E, tirik jom Miz-da! - deb kuldi Qamariddin, so'ng maynani silab, jiddiy tortdi. - Ana shu tirik jon ekanimiz bizni tabiatga bog'lab, o'rtada aloqa o'rnatib turadi. Bir vaqtlar o'zimcha tasavvur qilganman. Ko'z oldingga keltir. Tog' bag'ri! O'rmon, unda qush-hayvonlar bor, deylik. Odam ham bor. O'sha yerga tushib qoldim. Nima qilaman? Turgan gap: birinchi galda «bu yerda odam bormi?» deb o'ylayman, uni izlayman. Odam zoti yo'qligiga ishonsam, albatta, qushlar yoki hayvonlardan do'st topishga intilaman. Robinzon Kruzodek! Qushlar ham, hayvonlar ham bo'lmasa-chi? Unda, shak-shubhasiz, bir yashil daraxtni ko'nglimga yaqin olaman. Chunki daraxt - tirik! Tomirida hayot bor!.. Ko'karib turgan shu daraxt ham bo'lmasa-chi? Menimcha, qoq

yalang'och qoyalar orasida mendek yolg'iz, g'arib kimsa bo'lmaydi...

Eshik taqillab, oq xalatli Oqila opa ko'rindi. Ikroma:

- Keling, opa, - deb shoshib qoldi.

- Bir daqiqaga kirdim, - dedi Oqila opa. Eshikni yopib, yopganiga ishonmagandek yana qarab qo'ydi.  
- Qamarjon uka, bir narsani eslatib qo'yay... Direktorimiz Oloviddinxo'ja injiq odam, o'zingiz ham sezgandirsiz... Vannaxonaning oldida, shiftga bir juft qaldirg'och in solgan edi. Vijir-vijirini eshitsak, quvonib ketardik. Bir kuni Oloviddinxo'ja: «Yo'qotinglar buni!» deb qoldi. Men bilmas ekanman, shiftdan axlati to'kilar ekan. Klava supurib tashlar ekan. Oloviddinga: «Beziyon-ku, u-bu», degan edim, o'zi shvabra bilan inni buzib tashladi. Jonivorlar yana in qura boshlagan edi, Oloviddin vannaxona oldidagi derazani yopib, orqasidan mixlab qo'ydi. Qaldirg'ochlar ikki kun deraza orqasida uchib vijirlashi di. Keyin ketishdi... Demoqchimanki, maynaga ehtiyot bo'linglar. Endi, Qamarjon uka, ko'pchilik keladigan joyda bu. Qush ovozini yoqtirmaydiganlar ham uchraydi...

- Bizning Ikromaga o'xshab!

- Hazilmas, - Oqila opa Jahongirning boshini siladi.

- Xo'pmi, yigitcha?

- Rahmat, opa! - dedi Qamariddin.

- Sizlarga yana bitta xona kerag-a?.. Ochib qo'ydim.

Devor ortidagi xonani. Yig'ishtiryapti.

Oqila opa chiqib ketdi. Qamariddin sigareta oldi. Tuttatishga ikkilanib:

- Ajoyib ayol! - dedi. So'ng o'g'lini bag'riga tortdi. - Odamzod ana shunday, mulla Jahongir! Bu hayot kutilmagan ziddiyatlarga to'la!

- Falsafangizni ertaga qoldiring, - dedi Ikroma. - Men nimalarni olay? Jahon mening yonimda yotadi. Mayna... siz bilan.

- Ho-ho-ho!
- Men mayna bilan... - deb yig'lamsiradi Jahongir. Ota uni ovutdi:
  - Ana, shkafda turadi. U yoqda bo'lsa, opanq qo'yvoradi. Bu yerda bexavotir... Ko'rging kelsa, bemalol kiraverasan. Ana, direktor ham qushlarni yomon ko'rар ekan.
  - Yomon odam, a?
  - Yaxshi emas, menimcha.
- Ikroma jomadonni ochdi. Jahongir shkafning oldida cho'nqayib o'tirdi.
  - Ada, qanoti og'riyapti-ya?
  - Ha-a! Albatta!.. - u endi bemalol sigaretani tutatdi.
  - Daraxtlarni kesganda, ularning ham joni og'rir ekan. Daraxt suvsiz qolsa, ingragan ovoz chiqararkan. Fan aniqlagan!.. Faqat biz - odamlar buni sezmaymiz!
  - Buni dadasi, opasi bor, a?
  - Ha! - Qamariddin ta'sirlanib, derazaga qaradi. Endi devor boshida ikki mayna qolgan, biri hurpayib turar, biri panjalari orasidagi allanarsani cho'qib yer edi. - Balki anavilardir? Aka-ukasiyam bor buning!.. Yasha, o'g'lim. Ana shunaqa o'yla! Bu yaxshi odat.
  - Ular yig'layaptimi?
  - Ey, sen geniy bo'lasan! - deya xitob qildi Qamariddin. Keyin past tushdi. - Yo'q, sen tarixchi bo'lasan. Tarix juda qiziq! Qadimgi davrlar qiziq... E, o'shanda ko'p narsalar boshqacha bo'lgan. - Qamariddin xotini jomadondan olib qo'yan kitoblarni ko'zdan kechirar ekan, shoshib qoldi: - Pugachenkova qani?
  - Hammasi shu yerda.
  - Pugachenkova! Buyuk ayol!.. E, mana-ku!.. Ammo o'g'lim, qushga qarash, uni davolash ham ko'p zavqli! Nima deding? Umuman olganda, hayotning har qanday ko'rinishi ham qiziq, g'aroyib!.. Tushunyapsanmi?

- Chigirtka opkelamizmi yana?

- Albatta!.. Bir donishmand aytgan ekan: «Inson hamma narsadan baxtsiz bo'lganda ham, baribir shukur qilishi kerak. Tug'ilganiga – yorug' dunyoni ko'rganiga shukur qilishi kerak. Chunki shuni ham ko'rmasligi mumkin edi». Zo'r gap-a! Tushunyapsanmi?.. Ochma dedim-ku! Jindek yotsin boyaqish!

Qamariddinning ilhomni qo'zib turgan edi, bo'g'ildi. Qaniyi, o'g'li yosh emas, uncha-buncha narsaga aqli yetadigan bo'lsa! Shu tobda unga bu zo'r hikmatni Buddha aytgani, Buddha dini bundan ikki ming yil muqaddam O'rta Osiyo tuprog'ida yoyilgani, naq Toshkentning Oqtepasidan buddaparastlarning ibodatxonasi topilgani, bunday ibodatxona Farg'onanining Quvasidan ham chiqqanini so'zlab, mana shu faktlar ham Kushon imperiyasining shimoliy chegara shahri Toshkent ekanini isbotlashini aytса!

Tushdan keyin sayrga chiqishdi. Qamariddin tanishlarini uchratdi. Ikroma bilan Jahongirni ularga tanishtirdi. Ob-havo, kuz haqidagi gaplar aylanib, qo'shni dachada miltiq paqillatib yuradigan «arzanda»ga borib taqaldi.

- Bo'riboy tezroq kelsin-da! – dedi bir qariya. – Hassasini do'qillatib o'tib turardi Bo'riboy qaysar!

Moskvaga – televideniying «Hayvonot olami» degan ko'rsatuviga xat yozishni ham kimdir maslahat berdi.

- Kerak bo'lsa, yozamiz! – dedi Qamariddin va Ikromaga qarab olgach, injiqlanayotgan o'g'lini turtdi: - Nima deysan?

- Biz ovqat yedik-ku! Maynayam...

Qamariddin asta-sekin ishga sho'ng'iy boshladи. Ikroma ham bu yerga xiyla o'rganib qoldi. Uy tashvishi yodidan chiqdi. Ona-bolaga ermak ham topilgan edi:

zerikdilarmi, bog' adog'iga izg'ib ketishadi. Hasharotlar terib kelishadi.

Maynaning yarasi bitib, qanotini osiltirib yuradigan bo'lib qoldi. Jahongir hamon uni qo'liga oldimi: «Xoliq, Xoliq!» deydi. Mayna tutilgan xo'rakni ko'rdim demaydi-yu, nuqul «qiyq-qiyq», deb ovoz chiqaradi.

Jahongir Oloviddinxo'jani yaxshi tanib olgan. Unga yov ko'z bilan qaraydi. «Yomon odam», deb o'ylaydi va uni ko'rishi hamono yodiga kulrang, baroq mushuk tu-shadi.

Goho mayna bilan «gurung» qiladi.

- Xoliq, sen gapimni tushunyapsan. Yashirma... Dadang bilan opang ham ketib qolishdi-ya! Sog'inasanmi ularni? Bog'ga opchiqaymi? Bilasanmi, direktor yomon odam. Bir kun bog'ga opchiqaman. Sheriklaring bilan o'z tilingda gaplashasan. Xoliq, de. Xoliq...

Bir kuni u yo'lakda, muzlatkich oldida atrofga alang-lab kelayotgan Oloviddinxo'jaga to'qnashdi.

- Mayna yo'q. Yo'q! – dedi shosha-pisha.
- Nima?

Jahongir unga birpas baqrayib qarab turdi-da, xona-ga chopib kirdi.

Qamariddin ishga berilib ketdi. Xonada dik-dik sak-rab, goho pir-pir qanot qoqib yuradigan maynaga endi parvo qilmaydi. Juda joniga tegsa, «kisht», deb qo'l sil-taydi. Yoki devorni mushtlab: «Jahon! Bunga qara!» deb baqiradi.

Mayna qo'shnilaraga ham yoqib qolgan. Qushni ko'rganlar «arzanda bola» haqida gapirishadi, uning miltiq otishini kutayotganlarini so'zlashadi, so'ng Jahongirga Oloviddinxo'jadan ehtiyyot bo'lishni uqtirishadi: bir juft qaldirg'ochning ini buzilgani ko'pchilikni xafa qilgandi.

Bir kuni ona, bola, ota xonada gaplashib o'tirishar, Qamariddinning kayfi chog', gapdon bo'lib qolgan edi.

– Maqola yarmidan oshdi!.. E, ishlash kerak! Rosti, boshda xatoga yo'l qo'yganman. Na chora! Endi boriga bozordeb ko'nikishga majburman... Ba'zan hayron bo'laman-da. Biz – juda loqaydmiz, xotin! Yoki o'tmishimizda ulug' allomalarimiz shu qadar ko'p bo'lgan, tariximizda porloq damlar shu qadar behisobki, biz ularga beparvo qarashga o'rganib qolganmiz... Chalg'ib ketdim... Lekin xotin, men o'zimga tasalli berayotganim yo'q.

– Faraz qilamiz.

– Kim biladi, deysan...

– Bilasizmi, siz tabiatshunos yoki sirkchi bo'lganigizda, shu maynani allaqachon to'tiqushga aylantirib yuboradingiz.

– Ana! Men bog'dan kelsam, bu tog'dan keladi.

– Gap uqtirishdan tolmaysiz, demoqchiman.

– A-a! Ammo sen ham noshukur banda. Kecha o'zing: «Tuxum bosgan bu adang», deb yurgan eding.

– Gapimni egri tushundingiz. Qushni aptyapman. Jahongirning o'rnila bo'lganiningizda, unga allaqachon «falsaфа, tarix», degan so'zlarni ham o'rgatib qo'yardingiz... O'g'lingiz esa nihoyati... Jahon, maynani chaqir!

Jahongir kaftida qisib turgan kapalakni tutib ko'rsatdi. Stol lampasi tagida turgan mayna bir cho'qishda uni yutib yuborib, yana og'zini ochdi.

– Xoliq, Xoliq, – dedi Jahongir.

Maynaning ochiq og'zidan tovush chiqdi:

– Xoliq, Xoliq...

Qamariddin yuragi gursullab urib, qushga tikildi.

– Ey, men nima degandim! – dedi baqirib. Yana qushga tikildi. Qush ko'zini asta yumdi. – Qiziq! – dedi u.

– Insonning otini aytdi bu! Lekin beparvo!.. Nima deganini bilmaydi! Bu yoqda biz quvonyapmiz...

- Kecha aytgan edi, - dedi Ikroma. - Sizni chalg'it-maylik, dedik. Bugun Jahongir chidamadi.

- Jahon, yana bitta «Xoliq», de.

- Xoliq, Xoliq!

Qush ko'zini ochmasdan takrorladi:

- Xoliq, Xoliq...

- Tag'in bitta ayt, o'g'lim!.. Meni toza xursand qil-ding-ku! Tavba! Qushlar ham ajoyib jonzot-da! Lekin o'g'lim, sen bu so'zni mayna uchun odatga aylantirasan endi. Tushunyapsanmi? «Xoliq», deb chaqir. Oldingga kelmaguncha xo'rak berma. Keyin bir chaqirim joydan ham «Xoliq!» deb baqirsang, uchib boradi. Xo'rak berar ekan-da, deydi... Umuman, bu boshqa narsalarniyam o'ylashi mumkin.

Bir kech Qamariddin maqolaning ba'zi olimlarga malol keladigan joylarini yumshatish haqida o'ylab o'tirkan, xona tutunga to'lib ketganini ko'rdi. Tura solib, eshikni ochdi. Shu zahoti alangladi. Mayna... bo'lsa chiqardi. U joyiga qaytib o'tirdi. Nihoyat, deraza tepe-sidagi darchadan yelvizak esa boshladidi. Qamariddin o'rnidan turdi-da, yo'lakdan pir etib uchib o'tgan qushni ko'zi ilg'ab qoldi. Shkafni shart ochib, tortmaga qaradi: mayna yo'q... Shunda yo'lak adog'idan kelayotgan shovqin diqqatini tortdi.

- Nima gap bu? - deya zo'riqib gapirardi Olovid-dinxo'ja. - Klava, o'lganmisan? Eshikni nega ochib qo'yding? Vey-ve-yey! Gilam rasvo bo'ldi... Shvabra qani? Hayda uni!.. Bultur nima degan edim senlarga?!

Qamariddin yo'lakka chiqdi. Shunda muzlatkich ustiga kelib qolgan mayna burila solib, xonaga kirdi. Qamariddin eshikni yopib, qo'l qovushtirdi.

- Bir qoshiq qonimizdan kechasiz, - dedi u Olovid-dinga.

- Siznikimidi?

- Ha... Qo'shni bola otgan ekan. Davolab oldik. O'g'il-chaga o'rganib qoldi.

Oloviddinxo'ja boshini tez-tez silkidi-da:

- Mumkinmi? - dedi. Qamariddin eshikni ochdi. Oloviddin kirib, stol lampasi qoshida qanotini tum-shug'i bilan titkilayotgan qushga qovog'i ostidan tikildi. So'ng: - Hidi o'rashib qopti. Sizga bilinmas ekan-da, - deya enkayib karavot va stol ostiga qaradi. - O'tirib qo'yibdi jonivor. Oppoqqina qilib... - so'ng qomatini rostlab tomog'ini qirdi. - O'qigan, mulla odamsiz, dom-la. Bilmadim, o'z o'rningizni bu ahvolga solib qo'ymas edingiz, deyman. O'ylash kerak ekan-da, - u yana tez-tez bosh chayqab chiqib ketdi.

Qamariddin eshikni tepib yopdi. Xo'rsinib, xonada nari-beriga yurdi. Maynani shap ushlab, tortmaga soldi. Bog'ga chiqib, xotini bilan o'g'lini topdi.

- Ha, adasi?

- Chatoq bo'ldi.

- Nima gap?

- Sezmay qopman, mayna yo'lakka chiqibdi... Oloviddin olovimni chiqardi. - Keyin jahli tutib ketdi. - Bir kun xonangda tursa, bir nima bo'p qolmasding! Mening xayolim joyida emas! Oxirgi abzasni ishlayotgan edim.

- Bir nima qildimi u?

- E-e... Sen ham ko'p javdirama! Maynang shkafda! Bor, ol. U menga kerak emas, senga kerak!

Jahongir chopib ketdi. Yo'lakdan o'tayotib, Oloviddinxo'jaga to'qnashdi. Birdan to'xtadi-da:

- Siz yomon odamsiz! Yomonsiz! - dedi.

Oloviddinxo'ja uning... cho'g'dek gilamga tushgan izlariga qarab qoldi. So'ng eshikdan chiqib, marmar zinadagi nam to'shamaga tikildi. Jahongirning oyog'i, albatta, unga tegmagan edi. Oloviddin ro'paradan ke-

layotgan Qamariddin va Ikromani ko'rdi-da, burilib, devor yoqalab ketdi.

– Ketvoraylik! – dedi Ikroma. – Shuning qovog'iga qarashimiz qolganmidi!

– Mening ishim chalaroq.

– E, sizdan olim chiqmaydi!

– Senga qulq solsam, tarixchiyam chiqmas edi mendan.

Qamariddinning maqolasi bitdi. Endi uni Toshkentga yuboradigan bo'lsa, qaysi gazeta tezroq bosib chiqarishini o'ylar edi. Ikroma tag'in uy qayg'usiga tushgan, kunora shaharga qo'ng'iroq qilib, uyim tinchmi, deb qo'shnilardan so'raydi.

Jahongir esa «Xoliq»ni shaharga olib ketganda, qachon balkonga chiqarish, qachon qo'yvorish va chaqirib olishni o'laydi.

Bularning safari qarib qolganidan xabardor qo'shnilar xonaga serqatnov: maynani – ermakni ko'rib, jilmayishadi; uni shaharda qanday boqish xususida Jahongirga maslahatlar berishadi.

Kechki payt. Bog' adog'idagi anhor. Qamariddin: «Ketar jafosiga», deb yechindi va suvga tushdi.

– Oh-oh! Ikroma, sen ham tush!

– Odamlar bor-e... Juhon, sen cho'mil!

Jahongir o't-o'lalnlar orasidan chigirtka ovlayotgandi, birdan baqirib yubordi:

– Muni qarang! G'ij-g'ij chigirtka!

Ikroma o'g'lining yoniga bordi. Chindan ham, sarsimsog'i kovlab olingan jo'yakka anhordan suv toshgan, jo'yak pushtalari, xas-cho'p aralash oppoq ko'piklar ustida chigirtkalar g'ujg'on, u yoq bu yoqqa pitillab uchishar, suvga botib «suzishar» edi.

Qamariddin cho'milib chiqquncha ona-bola bir do'ppi chigirtka terishdi.

– Dadasi, shu chigirtkalargayam odamning rahmi keladi-ya!

– O! Ana tabiatning kuchi! – deb xitob qildi Qamariddin. – Faylasufsan, xotin!

– Jahon! Bo'ldi qil, ketamiz. Ovqat mahal bo'p qoldi. Bu qurg'urning shirasi bo'lar ekan-a! Nega qoni chiqmaydi muning? Ushlasang, oyog'ini tashlab uchib ketaveradi.

– Tabiat shunaqa. Shunaqa, xotin!.. Bilasanmi, nima uchun tabiatni yaxshi ko'raman? Bunda bepoyon bir mangulik bor!.. Mana, juda xafasan, deylik. Yoki tarixda yuz bergen bir xatolikdan qalbing yara. Yoki juda xursandsan. Sababsiz xursandsan, deylik. Ana shunda tabiat qo'yniga chiq – birdan xotirjam bo'lib qolasan, birdan! Dunyoning asli haqiqati mana shunda, deysan, xotin.

Shimining tizzalarigacha loy bo'lgan Jahongir hansi-rardi.

– Ada, shaharda chigirtka yo'g'-a?

– Juda oz. Boshqa narsa berasan-da. Masalan, go'sht.

– Kolbasa.

– Ammo-lekin, Jahongirboy, sizniyam bu yerga kel-ganagingiz zo'r ish bo'ldi!

Biroq xonada ularni xunuk fojia kutayotgan ekan.

– Xoliq! Xoliq!

Mayna javob bermadi.

Shunda Qamariddin bilan Ikroma ham xonaga kirishди.

– Ada, Xoliq yo'q!

– Eshik ochiq ekanmi?

– Salgina ochiq ekan! Topib bering! Siz chiqargansiz!

– Jinni! – Qamariddin shkafni ochdi. Divan, stol, karavot tagiga qaradi. Isitgich batareyalari orasiga boqdi. Burilib, eshikni ochdi-yu, itarib yopdi. Eshik

zichlanib qoldi. – Mana, eshik yopildi!.. Qattiq itargan bo'lsam, ochilib qoldimikan, deb o'yladim, – u xotiniga tikildi. – Oloviddinning ishi!.. – yana tashqariga chiqdi. Ikkita qo'shni tashvishlanib turar edi. – Mayna yo'q.

– Biz ham yaqinda keldik... yo'qmi?

– Yo'q, – Qamariddin vannaxona tomon ketdi. De-razaga qaradi: berk.

Shunda yo'lak adog'ida Oloviddinxo'ja ko'rindi. Hamma unga tikilib qoldi. Jahongir yig'lab yubordi:

– Shu kishi o'ldirib qo'ygan!.. Otgan!

Oloviddin ko'zlarini pirpirab:

– Nima gap? – dedi.

– Tinchlik, – dedi Qamariddin. – Mayna yo'q, xolos.

Yerga kirganmi, ko'kka uchganmi – yo'q. So'ng bir-dan kinoyali jilmaydi. – O'zlarini bir balo qildilarmi, yo? Aytavering... Biz o'lib qolmaymiz. Faqat bolaga qiyin bo'ladi-da.

Oloviddin qo'llarini yozdi.

– O'qigan odamsiz, domla. O'shanda bu to'g'rida gaplashgan edik. Sal achchiq qilib chiqdim. Shunchalik ham demaymi? Siz mehmonsiz, ketadigan odam...

– Topib be-er! Topib bering maynamni! – Jahongir qancha ko'p yig'lasa, mayna shuncha tez topiladigan-dek yer tepina boshladi.

Qamariddin:

– O'chir! – deb tashqariga chiqdi. Uy biqiniga o'tdi. Jahongir ham chiqib, ariq bo'yidagi xazonlarga tikildi. Yana chinqirdi. – Yig'idan nima foyda?! – deya baqirib yubordi Qamariddin. – Chaqirsang-chi! – so'ng qo'shnilariga qarab, «faylasufona» mung'aydi: – Bir nar-saga mehring tushmasin. Tushgandan keyin yo'qolib qolsa, yomon kuyasan-da.

– Xoliq, Xoliq!

Birdan devor ustidan ovoz eshitildi:

- Xolq, Xolq...

- Ana! Xoli-iq!

Shu payt ariq bo'yidagi chinor ayrisidan otilib chiqqan baroq mushuk qanotini endi yozgan maynani shart tishlab, pastga tushib ketdi. Ariq yoqalab qochdi.

- Mushuk!

- Hoy!

- Choping, adasi!

- Dada-a!.. Xoli-iq!

Mushuk chinorlar ortida ko'zdan pana bo'ldi. Lekin maynaning nolasi baralla eshitilardi:

- Xolq, Xolq...

Mushuk maynaning belidan tishlagancha piyozpoya tomonga qochdi.

Qamariddin simga chalinib yiqildi. Jahongir dadasi-dan oshib, ariq bo'yiga borib qoldi. Yana yig'lab, kesaklar ustiga o'tirib oldi. Qamariddin ariqdan hatlab o'tdi.

U bog' oxirida keza-keza horib qaytdi. Jahongir ariq bo'yida o'tirgancha hiqillar edi.

- Yo'q, o'g'lim. Nachora, birniki o'tdan, birniki suvdan deganday...

- Yo'-o'q!

Ikroma o'g'lining bilagidan tortdi.

- Bo'ldi. Bas endi!

- Xoliq, dedi, opa! Bizni chaqirdi.

- Men ham eshitdim... Bas endi! Yana bitta mayna topamiz...

- Yo'q. Menga Xoliq kerak.

...Qamariddin ovqatga zo'rg'a chiqdi. Xayoli chalg'i-ganini sezib: «Unutish kerak endi, - deb uqtirdi o'ziga o'zi. - Vassalom. E, bu olamga nimalar kelib ketmaydi.

- Bu-ku bir mayna ekan... Odam o'ladi! Butun-butun xalqlar qirilib ketishi mumkin...»

Ikroma ham ovqatdan nomiga tatigan bo'ldi.

Oqila opa stol qirrasiga qo'lini tirab:

- Men aytgan edim-ku, aytgandim-a! – dedi.
- Iloyo, uning bolasiyam shunday...
- Unda bola yo'q.

Nihoyat, Ikroma ham Oloviddinni ichida qarg'ay-qarg'ay, erini urisha-urisha hovuridan tushdi.

Ketadigan kunlari Jahongir yana ariq bo'yiga bordi.

«Xoliqning adasi bilan opasiyam yig'lagan. Bolalari-ni mushuk opqochganini bilgan». U ariq yoqalab jildi. Piyozpoyada to'xtab qoldi. Yana Xoliqni topib olgan joylariga keldi.

Tepasida chinor shoxlari, qushlar chug'urlashar, nozik hidlar kelar, biroq Jahongir bularni his etmas, yurakkinasi bo'm-bo'sh edi.

Shunda tepadan uchib o'tgan maynalarga diqqati og'di. Nazarida, Xoliq o'sha kuni shu devor ustiga qo'nib turganda, sheriklariga o'z tilida ancha-muncha gapirgan-dek tuyuldi: albatta, «men Xoliq», degan. Bular bir-birining so'zini tushunadi-ku! Meniyam aytgan... «Chigirtka terib berdi», degan. «Oloviddin yomon», degan. «Hay-dab chiqarib, derazani berkitib qo'ydi», degan...

- Xoliq, Xoliq!

- «Qiyq-qiyq!»

Maynalarning ovozi endi Jahongirga «Xoliq» bo'lib eshitildi. Keyin: «Albatta-da, – dedi yana. – Xoliq de-yishyapti... Yaxshi o'rganmagan-da bular. Ulargayam ko'p-ko'p «Xoliq» desa, o'rganib olishadi. Lekin ular bilishadi: Xoliq – yaxshi degani. Sizlar – Xoliq. Men – Xoliq».

- Xoliq, Xoliq!

- «Qiyq-qiyq!»

Qo'shnilar ularni avtobusga kuzatib qo'yishdi. Ular uylariga yetmasdan Qamariddin Toshkentga tushib-chiqishga ahd qildi.

- Bozorga kirib o'taylik. Uy qoq-quruq, - dedi Ikroma.

Jahongir derazadan olislarga boqar, olislarda... xoliqlar uchib yurar, o'zaro gaplashishar, Jahongir ularning so'zlarini tushunar edi.

## TUPROQ KO'CHALAR

*Yettinchi sinfda o'qir edim.*

*Har kuni darsdan keyin voleybol o'ynar edik. Goho rus maktabidan qizlar ham kelar, ularni hurmat qilib, bitta-ikkitamiz joyimizni bo'shatib berardik. Men ko'pincha Faridaga joyimni berardim...*

*Ana shunda Rahimcha bilan uning o'rtoqlari ham ke-lib qolar, devorga minib, goho bir chetda cho'nqayishib, o'zlaricha kulishar, qizlarga gap otishar edi.*

*Bular uch kishi edi: Rahimcha, kinoxonani supu-rib, o'sha yerda yotib yuradigan «Tarzan» laqabli, nov-cha bola, keyin ko'zlari ola-kula, bolalar uyidan qo-chgan «Gung» bola. Birovlar bularni «o'g'ri» der, birovlar «boksga zo'r» der, ba'zi bolalar ular bilan oshna bo'lishni xohlasa, ba'zilar ulardan o'zlarini olib qochar edi.*

*Ular bir-biridan ajralmas, inoq edi, biz ulardan o'lgudek qo'rqardik.*

*Qishlog'imizning o'tasidan soy o'tadi. Soyda ikki tegirmon suv oqib yotadi. Yoz boshlandi deguncha biz mакtab bolalari suvning oldini tosh, chim bilan to'sib, ko'l qilamiz. Lekin Rahimcha o'rtoqlari bilan kelib, ko'limizga egalik qilib olishadi. Keyin o'zimiz qurgan ko'nga tushish uchun ularga xushomad qilishimiz kerak. Do'ppida, etakda olmami, olchami, ishqilib, yeyiladigan biron narsa olib boramiz.*

*Men mana shunday bolalar bilan oshna bo'lishni orzu qilganlardan edim.*

Bir kuni darsdan qaytib kelayotsam, Maxsum o'rindig'i o'rniga qizil ro'mol bog'langan bitta velosipedni yetaklab, darvozalaridan kirib ketyapti.

O'shanda qishlog'imizda bitta velosiped bor edi. Mol doktorining o'g'liniki. Velosiped juda kichkina, kamera-siga yel berilmaydiganidan edi. U bola velosipedga o'tirganda, tizzalari rulning yonidan cho'qqayib chiqib turardi. U velosipedni ancha yergacha haydab borib, keyin oyog'ini yozib yuborar, velosiped g'izillab ketardi... Biz uning orqasidan ham havas, ham hasad bilan qarab qolardik.

- Maxsum, Maxsum, - deb orqasidan chopib bordim.
- Nima deysan? - dedi u burnini tortib. - Otam Yurchidan olib keldi.

Maxsum bizga qo'shni. Otasi agronom. U rus maktabida o'qir, ba'zan devor tagida «Rodnaya rech» degan kitobini varaqlab o'tirardi. Shunda men undan ajralmas edim. Negaki, uning kitobida chiroyli rasmlar ko'p, qog'ozi ham shildiroq edi.

- Onangning puli ko'p-ku, ayt, olib beradi senga ham, - dedi Maxsum.
- Aytaman, olib beradi, - dedim.
- Yurchiga borish kerak, - dedi u.

Esimga Nagan tushdi. Shunaqa o'rtog'im bor edi. Otasi militsioner, shuning uchunmi unga to'pponchanning otini qo'ygan. Yaxshi ko'rardim uni. Keyinroq ota-sini Yurchiga ishga olishdi. Ko'chib ketishdi.

- Yurchi uzoqmi?
- Uzoq. Mashinada boradilar.
- Onam bormasa, o'zim boraman.
- Koneshno, - dedi Maxsum. - Mashinada borasan, mashinada kelasan.

Hovlilariga kirib, velosipedini xo'b tomosha qildim.  
Maxsumning yirtiq paypog'ini ho'llab, velosipedni ar-  
tib, tozaladim.

Maxsumga bu ishim yoqdi.

- Ke, senga o'rgataman, - dedi.

Velosipedni ushlab turdi. Men qizil ro'mol ustiga  
mindim...

- Har kuni darsdan keyin kel, birga o'rganamiz.

= II =

Uyga kelib, onamga:

- Velosiped olib berasiz, - dedim. - Yurchidan olib  
berasiz. Maxsumga otasi olib beribdi.

Otam yo'q. Urushda o'lgan. Shuning uchunmi, onam  
ra'yimni qaytarmas edi.

- Xo'p, olib beraman, - dedi. - Yo'lim Yurchiga tush-  
sa, olib kelaman.

Bir hafta o'tib ketdi. Onamning yo'li Yurchiga tush-  
madi. Bu orada Maxsumlarnikiga har kuni boraverib,  
velosiped haydashni ham o'rganib oldim.

= III =

Bir kech darsdan kelsam, Maxsum yo'q.

- Ko'chaga chiqib ketdi, - dedi onasi.

- Qayoqqa?

- Men ne bilay.

Ko'chaga chiqib, Maxsumni kasalxona yonidan topdim.  
Yo'lakdag'i o'rik ostida o'tirgan ekan. Yonida «Gung»  
bilan «Tarzan».

Asta yurib, oldiga bordim.

- Velosipeding qani?

- Hozir keladi, - dedi u.

Birozdan keyin bir tutam sochi peshonasiga tushgan  
Rahimcha velosipedni uchirib keldi.

- Rahimcha-ku!
- Rahimcha bilan jo'ra bo'ldim, - dedi Maxsum. - Velosiped ol, sen bilan ham jo'ra bo'ladi.
- Rosti bilanmi?
- Ha. Keyin seni hech kim urolmaydi...
- Og'zimning so'lagi oqib, uyg'a keldim.
- Ona, velosiped olib berasizmi, yo'qmi?
- Aytdim-ku, olib beraman deb, bolam, Yurchiga yo'lim tushmayapti, - dedi onam.
- Bo'lmasa, menga pul bering. Mening yo'lim Yurchiga tushadi!

Onam kului, lekin:

- Yo'q, seni yolg'iz hech yerga yubormayman, - dedi. Yana va'da berdi.

#### = IV =

Ertasi kuni ham Maxsumni kasalxonan oldidan topdim. Yana Rahimchalar bilan birga ekan.

- Buning onasi artel raisi. Bunga ham velosiped olib beradi. Keyin Rahimcha men bilan jo'ra bo'ladimi, deyapti, - dedi Maxsum.

Pakana, qo'llari uzun Rahimcha menga kulimsiradi.

- Shundaymi? - dedi.
- Shunday, - dedim.
- Keyin bizni sotmaysanmi?

Men Rahimchaning gapiga tushunmadim.

- Biz nima qilsak, sen ham shuni qilasanmi? - dedi u.
- Bo'lmasam-chi.

Qo'lini juldur shiminining kissasiga solgan «Tarzan»:

- Oldin sinash kerak buni, - dedi.

Rahimcha bosh irg'ab, ariq labida lallayib o'tirgan «Gung»ni turtib, turg'izdi.

- «Gung» bilan urishasanmi? - dedi menga.

Keyin u «Gung»ga qarab, qo'llarini boks qilayotganday qimirlatdi. «Gung» urishishga odam topolmay yurgan kishiday iljayib, yayrab ketdi.

– Nima uchun urishaman? – dedim.

– Urishishni bilishing kerak-da, – dedi Rahimcha.

Qo'rqa-pisa «Gung»ga qaradim. Tap-tayyor bo'lib turibdi!

– Qo'rqma, buning joni yo'q, – dedi Maxsum shivirlab.

Shu gapdan keyin biroz dadil bo'ldim. Lekin... «Gung»lar yomon urishadi», der edilar...

Shu payt «Gung» oldimga kelib, ur, deganday ko'zini qisdi.

– Boshla endi, – dedi Rahimcha.

– O'zi... boshlasin, – dedim.

Rahimcha «Gung»ga ishora qildi. «Gung» shap etib yoqamga yopishdi-da, basharamga bir kalla urdi. Dumatlab tushdim. O'rnimdan turayotgan edim, tomog'im ostiga bir musht urdi. Yana yiqildim... Yig'lab yuborib, o'rnimdan turdim-da, uni mahkam quchoqlab oldim. Keyin quymuchimga ko'tarib buragan edim, oyog'i osmondan bo'lib tushdi.

– Kurash bekor! – dedi Rahimcha.

– Men boksnii bilmayman, – dedim.

«Gung» yana turdi, yana ko'tarib urdim...

Keyin ular ajratib qo'yishdi. Bu hazilakam urish edi... Lekin «Gung»ning juda achchig'i chiqqanini bildim. «Bir kun mendan qasd oladi», deb o'yladim.

Men imtihondan o'tgan ekanman.

– Bo'lasan, – dedi Rahimcha, – lekin velosipedni tezroq ol.

Ertasi kechqurun men shunday ahvolda uyga keldimki, agar onam velosiped olib berishni yana uch kun orqaga sursa, yuragim yorilib ketadigandek edi!

= V =

Gap bunday bo'ldi.

Navbat bilan «kataysa» qilayotgan edik, Farida ikkita rus dugonasi bilan ko'chadan o'taverdi.

Shunda velosipedni minib yurgan Rahimcha ularning oldiga bordi.

– Kataysa qilasizlarmi? – dedi ularga.

Qizlar bir-biriga qarab kulishdi-da, «sen o'tir, sen o'tir», deyishaverdi. Avval bittasi o'tirdi. Keyin ikkinchi-si. Rahimcha ularni ikkita simyog'och orasida aylantirib keldi. Keyin:

– Farida, o'tir, – dedi u.

Farida ham rozi bo'ldi.

Rahimcha uni to'rtta simyog'och orasidagi masofada aylantirdi.

Xafa bo'lib ketdim. «Farida shu o'g'ri bolaning oldiga o'tirdi-ya!» Keyin: «Velosiped olsam, Faridani bitta o'zim kataysa qildiraman», deb uyga keldim...

= VI =

– Mayli, – dedi onam, nihoyat. – Ertalab bir quti gilos ter. Yurchida gilos yo'q. Naganlarnikiga olib borasan.

Tong otganda, men gilosning shoxida edim. Choshgohda pechenye quti to'ldi. Keyin onam ko'krak kissanga pul solib, ustidan tikdi-da ergashtirib, ko'chaga olib chiqdi.

Tumanning tuz olishga borayotgan mashinasi kabinasiga o'tqizib:

– To'g'ri Naganlarnikiga bor. Amakingning o'zi olib beradi. Qaytishda o'zлari mashinaga o'tqizib yuborsinlar, – deb tayinladi, haydovchiga ham shu gaplarni aytdi.

Peshinda Yurchiga yetib bordik.

Qora daradan o'tayotganda, picha qo'rqedim. Negaki, mashina ancha yergacha odam bo'yи bo'lib o'sgan

yulg'unlarni oralab yuradi. Shu yulg'unlarni ko'rib, ikki yil burun ko'rgan «Tarzan» kinosi esimga tushdi. Kino-da shunday joy bor: sayohatchilar mana shu yulg'unzorga o'xshagan o'rmondan borayotganda, ularning oldidan pak-pakana, qop-qora, kallasi katta odamchalar chiqib, yoylarini ularning ko'ksiga qaratganicha asir oladilar. Bu yerdan o'tguncha shu yulg'unlarning ham ichidan o'shanaqa odamchalar chiqib kelib, bizni asir olib ketadiganday bo'laverdi.

Velosipedni, haqiqatan ham, Naganning otasi olib berdi. Ramalari qizil, «Xarkov» velosipedi! O'rindig'i ham joyida, yumshoq...

Nagan bilan Yurchi ko'chalarida qorong'i tushguncha minib yurdik. Shu kecha ikkovimiz birga yotdik.

– Velosiped yaxshi-yu, lekin kitobga yetmaydi, – dedi Nagan. – Qanday kitoblar o'qiding?

Maxsumga qo'shilganimdan buyon kitob o'qimagan edim, uyaldim.

– Ko'p o'qidim, oti esimda qolmagan, – dedim.

Keyin Nagan otasining o'g'rilarni ushlaganini aytib berdi. Men Rahimcha, «Gung», «Tarzan»larni eslab, ko'nglim xijil bo'lib yotdim.

Ertalab Naganning otasini kechasi militsiyaxonaga chaqirib ketishganini eshitdim.

Nagan bilan birga bizning «Gulbahor»ga ketadigan yo'lga chiqdik. Quyosh endi zavod trubalari orqasidan ko'tarilib kelayotgandi.

Quyosh ko'tarilib ham ketdi. Mashina kelmadi. Qishlog'imizga Yurchidan avtobus qatnamaydi. Faqat yuk tashuvchi mashinalar qatnaydi...

Bir mahal kunjara ortgan bir mashina kelib qoldi. Gulbahorga boradigan yo'lovchilar devorlarning soyasida o'tirishgan edi. Hammasi savat, qoplarini ko'tarib, mashinaga yopirilib minib olishdi. Men ham

yo'lovchilarning yordami bilan velosipedimni chiqarib oldim. Ammo soqoli o'sib ketgan haydovchi chiqib:

– Qani, pulini to'lab qo'yinglar, – dedi-yu, velosiped ni ko'rib, so'radi: – Bu kimniki?

– Meniki, – dedim.

– Ko'tar buningni. Men velosiped ortmayman, – dedi.

– Pulini beraman. Artel raisining o'g'liman, – dedim.

– Boshimni qotirma. Ko'tar. Bo'lmasa, otib yuboram an, – dedi haydovchi.

Nagan ham yalindi, ko'nmadni. Pastga tushdim. Yo'lovchilar velosipedimni ko'tarib uzatishdi.

Mashina ketdi.

Nagan ikkimiz xafa bo'lib, devor tagiga bordik.

– Baribir mashina olmaydi, – dedi Nagan. – Buningni joyiga ikkita odam olsa, shu foyda unga.

Men haydovchini so'kdim.

## = VII =

Bir mahal o'zim tengi bir bola menikiga o'xshagan velosiped yetaklab keldi.

– Jo'ralar, Gulbahorga mashina bo'ladimi? – deb so'radi.

Biz uni gapga soldik, u ham Gulbahorga borayotgan ekan, biz cho'miladigan soyning nariyog'ida turadigan tojiklardan ekan.

– Mashina bo'lmaydi. Bo'lsa ham, sizlarni velosiped laring bilan olmaydi, – dedi Nagan.

– Olmaydi, meni tushirib yubordi, – dedim.

Shunda tojik bola:

– Unday bo'lsa, o'zimiz keta beramiz velosipedni minib, – dedi.

Nagan menga qaradi, men Naganga.

– To'g'ri, – dedi Nagan. – Boshqa yo'li yo'q.

Ko'z oldimga Qora daradagi yulg'unlar keldi. Kallasi katta odamchalar endi, albatta, asir oladigandek bo'ldi...

- Yo'l uzoq, - dedim.

- Asta-sekin keta beramiz-da, - dedi notanish bola.

- To'g'ri, - dedi Nagan. - Asta-sekin boraverasizlar.

Yo'l qo'rqinchli emas.

Bolaga qaradim: bo'yi mendan baland, bilaklari ham yo'g'on. Faqat boshida sochi yo'q. Do'ppi kiygan...

- Mayli, ketamiz, - dedim.

Nagan bilan xayrlashayotganimda, bundan keyin uni hech ko'rmaydigandek ko'zimga yosh oldim.

- Kanikulda boraman, - dedi Nagan.

- Borgin, albatta, - dedim.

Ko'pchib yotgan tuproq yo'lga tushdik.

## = VIII =

Yurchi bilan Gulbahorning orasi yetmish kilometr. Quyosh botishiga ozgina qolganda qishloqqa yetib keldik.

Qora daradan o'tayotganimizda qora odamchalar uchramadi. Keyin xarsangtoshlar betiga «Toshmat, Eshmat» deb tirnab yozilgan ekan, bu menga dalda berdi. Tojik hamrohim juda botir ekan...

Lekin juda charchadim. Sonim, boldirimning go'shti bir necha marta toshdek qotib qoldi. Oyog'imizni os-monga qilib yotdik, dam oldik.

Ayniqsa, suvsaganimiz yomon bo'ldi. Qora darada suv ko'p. Hammasi sho'r suv. Ichib bo'lmaydi. Daradan chiqqanimizda bir qultum suv ichmasam, o'zimni yerga tappa tashlaydigan ahvolda edim.

Uzoqda bug'doy o'rayotganlar ko'rindi. Chaylasi te-palikda. Bittasi bug'doy shopiryapti. Oppoq chang tutundek ko'tariliyapti.

- Ana shularning suvi bor, - dedim.

- Ha, bularda ob bo'ladi, - dedi sherigim ishonch bilan.

Ular juda olisda. Oramizda bug'doyi o'rilgan katta maydon bor. Maydonda sariq tikan o'sib yotibdi. O'roqchilar bunga tegmay ketgan.

- Borasizmi? - dedi yo'ldoshim. - Bo'lmasa, men borib kelaman.

- Borib kel, keyin o'lguncha jo'ra bo'lamiz, - dedim.

U velosipedini yo'l chetiga chiqarib, yotqizib qo'ydi. Yoniga velosipedimni yotqizdim. Keyin u kesaklari ochilib yotgan paykalga kirib, sakrab-sakrab keta boshladi.

Hamrohim o'roqchilarning chaylasiga yetib bordi. Ular bilan gaplashib, xirmondan o'tib ketdi. Keyin imillab kela boshladi.

Yaqin kelganda ko'rdim. Boshi yalang'och, do'ppisi qo'lida. Ikki chetidan kosaga o'xshatib ushlab olgan.

Chidolmay unga qarab chopdim. U ham:

- Kel, kel! Sob bo'p qoladi! - deb baqirdi.

Borsam, kir do'ppisining ichida bir piyolacha suv qolibdi. Olib simira qoldim. Do'ppining ta'mi chiqqan ekan, bug'doypoyaning ham mazasi bor. Lekin maza qildim...

U ivigan do'ppisini boshiga kiydi.

- Endi ikkalamiz jo'ra bo'lamiz, - dedim.

Keyin o'qiydigan maktabimizni surishtirdik. Uning oti Eshmamat ekan.

## = IX =

Uyga bormasimdan orqamdan Maxsum yetib keldi. Endi uning eski velosipedi menikining oldida shaloq aravaday gap edi...

Ertasi darsdan keyin ikkovimiz ikkita velosiped bilan ko'chaga chiqdik.

Rahimcha ham o'rtoqlari bilan kelib qoldi.

- Oyog'ini bir ko'ray, - deb bir-bir minishdi.  
«Gung» ham mindi.

Ta'til boshlanib qoldi.

Bolalar yana ko'l qilishdi. Lekin Rahimchalar uni egallab oldi. Bolalar yana ularga xushomad qilib, do'ppisida, etagida meva tashib keladigan bo'ldi... Men endi Rahimchalar bilan ko'lning nariyog'idagi yong'oq soyasida yotaman. Xohlagan paytimda cho'milaman. Endi maktab bolalari ham mendan qo'rqishadi...

Faridani «kataysa» qildiraman, deb yurar edim...

Bir kuni kechki payt u dugonalari bilan kichkina paqir, termos ko'tarib, soyga tushib kelishdi. Soyda chashmalar ko'p. Suvi muzday. Jazirama issiqda ham barmog'ingni tiqsang, muzlatadi... Ana shu suvdan olib ketishadi.

Ular suv olayotganda, velosipedni haydab oldilariga bordim.

- Kataysa qilasanmi? - dedim Faridaga.

Farida kulib yubordi.

- Nimaga kulasan, kataysa qilasanmi?

Dugonalari uning orqasiga turtib, «o'tir», «o'tir», deyishdi. Lekin hamma dugonasini aylantirib kelganimdan keyin Farida o'tirdi. Achchig'im chiqqan edi, soyning yoqasidagi tekis chimzorda velosipedni haydab, juda uzoqqa olib ketdim.

- Bo'ldi, qaytar endi, - dedi u.

Yo'l tor keldi. Pastga tushib, velosipedni iziga burdim.

- Farida, Rahimchaning oldiga minma.

- Nimaga?

- U yomon bola...

- Sen o'zing birga yuribsan-ku u bilan? - dedi u.

- Men... men ular bilan o'rtoq emasman, - dedim.

Oz-moz xafa bo'ldim. Lekin uni kataysa qildirganim-dan xursand edim.

Keyin har kuni Farida suvg'a keladigan, men uni velosipedimda aylantiradigan bo'ldim.

= X =

Bir oqshom qorong'i tushganda uyga kelsam, chor-poyada o'tirgan onam oldiga chaqirib, qayerda yur-ganimni so'radi.

- Maxsumlarning uyida edim, - dedim.

- Yolg'on gapirma, - dedi onam. - Rahimchalar bilan birga yurgan emishsan. Odam quridimi shu kissavurlar bilan yurasan?

- Jo'ra bo'lganim yo'q, - dedim. Faridaning ham gapi yodimga tushdi. Onamning rahmi kelsin, deb hiqilladim. - O'zingiz yolg'on gapirmang.

- Bolam, ona hech mahal bolasiga yomonlikni tilamaydi, - dedi onam.

= XI =

Ertasi kechqurun soy labida o'tirgan edim. «Afandi» degan boshida sochi yo'q, bo'shang bola bir etak olxo'ri olib keldi. Rahimchalar olxo'rini olib, unga «cho'milaver», deyishdi.

«Afandi» endi cho'milayotgan edi, «Gung» tirjayib kelib, suvgaga tushdi-da, «Afandi»ning yelkasiga sap-chidi. Bo'ynidan mahkam quchoqlab, oyoqlari bilan uning belidan qisib oldi. «Afandi» qutulmoqchi bo'ldi. «Gung» qo'yvormadi, keyin, «chuh!» deganday qilib, «Afandi»ning boshiga shapatiladi. «Afandi» ko'kragiga-cha keladigan suv ichida, asta yurib ketdi. Men: «Gung» hazil qilyapti, hozir qo'yvoradi», deb o'yladim. Lekin «Gung» «Afandi»ning ustidan tushadiganga o'xshamas, qo'li charchaganda sirpanib tushib ketar, yana intilib, minib olardi. «Afandi» qizarib ketgan, nuqul: «Bo'ldi endi, tush endi», deb yalinardi. Unga rahmim keldi.

U qirg'oq yaqinidan o'tayotgan edi, qo'limni uzat-dim. «Afandi» ushlab oldi. Tortdim o'zimga. Shunda

«Gung» ham oyog‘ini yerga qo‘ydi-da, «Afandi»ning belidan ushlab, orqaga torta boshladi... Meni kalla urgani esimga tushib: «Buning joni yo‘q-ku», deb o‘yladim. «Afandi»ni bor kuchim bilan tortdim. «Afandi»ning o‘zi ham intildi. Keyin uning belidagi «Gung»ning pangularini ochib yubordim. «Gung» orqasiga yiqilib tushdi. «Afandi» qirg‘oqqa chiqdi.

Keyin «Gung» gandiraklab chiqib keldi-da, yerdan dumaloq tosh olib, menga o‘qtaldi. Qo‘rqqanimdan o‘tirib qoldim. «Gung» egilganicha yonimdan o‘tib ketdi. Hozir buriladi. Endi bir yerimni yoradi... «Nima bo‘lsa bo‘ldi», deb orqasiga tepib yubordim. Umbaloq oshib, suvga tushib ketdi.

– Ket sen endi. Qoch! – dedim «Afandi»ga.

O‘zim ham yong‘oq ostiga qochdim. Rahimchalar yuztuban yotib, qarta o‘ynashayotgan edi.

– «Gung» meni uryapti, – dedim.

«Gung» yig‘lamoqdan beri bo‘lib, yetib keldi. Men Rahimchaning orqasiga o‘tdim. Rahimcha «Gung» bilan mening oramda turib oldi.

«Gung» bir qo‘lini musht qilib, ikkinchi kaftiga «tap-tap» etkazib urdi.

– Uribsan-ku o‘zing, – dedi Rahimcha menga.

– O‘zi urdi, – dedim. – Hov bir marta ko‘tarib urgan edim. Menda qasdi bor edi. O‘zi urdi. Qochib keldim.

«Gung» shart o‘girilib, yirtiq ishtonini yechdi. Orqasida oyog‘imning izi qolgan ekan.

– Tepdingmi buni?

– O‘zi tepdi meni, – dedim. – Bu bilan nima ishim bor?

«Gung» tili yo‘qligi uchun tushuntirolmadi. Men tilim borligi uchun «Gung»ni aybdor qildim.

Shu kuni Faridaning suvga kelishini kutib o‘tirmay, uyga qaytdim.

Nagan keldi. Menga «O'qituvchi» degan kitob olib kelgan ekan.

- Kitobmisan kitob-da, - dedi.

Men kitob o'qishni sog'inib qolganimni sezdim. Ikka-lamiz bog'imiz etagidagi olchazorga borib, o'qiy boshladik. Men o'qiyan, u quloq soladi. U o'qiydi, men quloq solaman...

Keyin ko'chaga chiqdik. Qanday kino bo'lishini yozib qo'yadigan taxtada «Robin Gud» deb yozilgan, qora kyingan kishining rasmi bor edi.

- Kinoga kiramiz, - dedim.

- Kiramiz, - dedi Nagan.

Onamdan pul olgani idorasiga borayotgan edik, yo'lklalariga ariqdan suv sepayotgan Faridani ko'rib qoldim. U yalangoyoq, etaklarining oldi ho'l bo'lgan, sarg'ish sochlari to'zg'igan edi. Menga qarab jilmaydi. Men ham jilmaydim.

- Nagan, yaxshi-ya? - dedim.

Nagan Faridani tomosha qildi.

- Yaxshi qiz, - dedi. - Kinoga kirasisizlarmi?

- Ha, birga o'tiramiz, - dedim.

- Bugun ham birga o'tir, ko'ray-chi.

- Bugun sen bilan o'tiraman-da.

- Mayli, men xafa bo'lmayman.

- Nagan, uchalamiz o'tirsak-chi?

- Mayli.

Shu kech Rahimchalarning oldiga - soyga bormadim. Nagan bilan kasalxona oldida velosiped mindik.

Kinoga kirdik. U paytlar kino zalidagi o'rindiqlarga raqam yozilmas, tomoshabinlar xohlagan yerida o'tiraverishar edi. Nagan bilan oldinma-ketin qatorlar orasida borayotgan edik, birinchi qatorda burni uzun dugonasi

bilan pista chaqib o'tirgan Faridani ko'rib qoldim. Uni ko'rmaganday chetga qarab, yoniga tappa o'tira qoldim.

- O'tir, Nagan!

Nagan bu yonimda o'tirdi.

- Bugun soyga bormading, - dedi Farida.

Men lovullab ketib:

- Ertaga boraman, - dedim.

Keyin Naganga qarab qo'ydim. Nagan, zo'r ekan-ku, deganday qoshini uchirdi.

Kino boshlandi. «Robin Gud» degan qaroqchi yo'lovchilarning oldidan sakrab chiqqan edi... yonimda engashib, har tarafga qaratotgan Rahimchani ko'rdim.

U ham meni ko'rdi-yu:

- Senmi? - dedi egilib.

Og'zidan aroq hidi keldi.

- Men, - dedim xavfsirab.

Rahimcha bo'ynini cho'zib, Faridaga ham qaradi.

- Ish katta-ku!

- Shunday, o'tiribmiz, - dedim.

- Qani, beriroq o'tir! - Rahimcha bilagimdan g'ijimlab ushlab, Nagan tomon surdi, keyin Farida bilan oramizga tiqilib o'tirib oldi.

- Boshqa joy yo'qmi? - dedi o'rindiqning labiga ilinib qolgan Nagan.

- Tish-sh! - dedi labini cho'chchaytirib Rahimcha.

Keyin Rahimcha bir qo'lini Faridaning orqasiga - o'rindiq suyanchig'i ustiga qo'yib, unga ruschalab gapira ketdi. Farida oldin kulimsirab javob berdi. Keyin ko'zini kinodan uzmay, qisqa-qisqa gap qaytaraverdi.

- Xo'sh, kavaler, ishlar qalay? - dedi Rahimcha, endi bu qo'lini mening yelkamga qo'yib.

- O'zim. Shunday, - dedim. - Bugun o'rtog'im keldi. Mana, Nagan. Borolmadim soyga.

Rahimcha yelkam osha Naganga qaradi.

- E, politseyning o'g'li-ku!
- Politsey emas, militsioner, - dedi Nagan.
- Shunday de!

Rahimcha yana menga tikildi.

- Ha, endi... - dedim.

U bo'ynimni qisib, boshimni tizzasiga tegizib ko'tardi.

- Biz bilan chidagan kishi o'rtoq bo'ladi.

Indamadim. U yana boshimni tizzasiga tegizdi.

Shunda Farida menga tikilib qoldi. Rahimcha jonlanib, boshimni yana tizzasiga tegizdi, qo'yvormay, kallamni unga ko'rsatdi. Men bo'g'ilib, ko'zlarim baqrayib, Faridaga qaradim.

- Qiynama uni, - dedi Farida, keyin achchig'lanib menga: - Joning bormi? - dedi.

- Bu, bu... - deganimcha chirani ko'tardim boshimni. Rahimcha yana tortdi. Endi o'rnimdan turib ketdim.

- Yur, Nagan, boshqa yerga o'tiramiz, - dedim.

Orqaga o'tib, biroz o'tirdik. Xo'rligim kelib ketdi! Farida nima deb o'yladi ekan?..

- Ketamiz, Nagan.

- Kinoni ko'raylik.

- Yo'q.

Ko'chaga chiqdik. Jimjit ko'cha chetidan soy tomonga ketdik. Men uyalib, yerga qarab borar edim.

- Nimaga u senga kattalik qiladi?

- U hammaga kattalik qiladi.

- Yo'q, seni qo'rqtib olibdi.

- Qo'ysang-chi, uning nimasidan qo'rqaman?

- Qo'rmasang, nimaga jim o'tirding?

- Nagan... u bilan baravar bo'lib o'tiramanmi?

- Qo'rkoqsan, Faridani ham tashlab kelding.

- Qo'rqlayman... Faridaga hech narsa qilolmaydi.

Uyga borganimizda, onam:

- O'g'lim, ana bu yurishing yaxshi, - dedi menga. - Naganga o'xshagan bolalar bilan yursang, yarashadi.

Rahimchalar bilan jo'ra bo'lganim ochilib qoldi. Men turib ketdim. Kechasi Nagan bilan yotganda:

- Sen menga bilimdonlik qilma, - dedim.

- Sen qo'rqoqsan, - dedi Nagan.

Ertasi Nagan nonushtaga ham o'tirmay ko'chaga chiqib ketdi. Onam hayron bo'lib, uning orqasidan meni yubordi. Uni topolmadim. Ketib qolgan ekan...

Uch kun soyga bormadim. To'rtinchi kuni Maxsum velosipedi bilan keldi. Zerikkan, cho'milishni sog'ingan edim. Ketdik.

Ko'lga tushib borsak, Rahimcha, «Gung» bitta bolani o'rtaga olib turibdi. Ko'l bo'lsa, buzilib ketgan, suv oqib yotibdi. Yaqinroqqa borib qarasam, o'rtadagi bola Eshmamat!

Gap nimadaligini aytishdi.

Eshmamat o'tgan kuni soyga kelib, cho'milmoqchi bo'libdi. «Tarzan»lar: «Bir narsa opkelasan, keyin cho'milasan», deyishibdi. «Ko'l seniki emas», debdi Eshmamat. Keyin «Tarzan» uning yuziga bir tushiribdi. U «ko'rasanlar», deb soyning nariyog'iga o'tib ketibdi.

Bugun uchovlon soyga tushib kelishsa, Eshmamat ko'lning oldiga bosilgan tosh, chimlarni har tomoniga irg'itayotgan emish. Bular borguncha, ko'l buzilib ketibdi, Eshmamat qochibdi... Lekin oyog'i uzun «Tarzan» uni tutibdi.

Uni hozir sud qilib, jazoni pishitib turishgan ekan.

- Keldingmi? - dedi Rahimcha menga, so'ng buyurdi. - Velosipedni qo'y!

Velosipedni toshga suyab qo'ydim.

- «Tarzan», ushla! - buyurdi u.

«Tarzan» Eshmamatning yoqasidan ushlab, urdi.

Rahimcha bolaning yoniga o'tib turdi-da:

- O'tinglar orqamga, rad bo'linglar! - dedi. - O't, Maxsum, o't sen ham!

Men chetga qarab, eng orqaga o'tib turdim.

- Mahkam ushla! - baqirdi Rahimcha, keyin ikkala qo'lining barmoqlarini bir-biriga kiritib, bitta musht qildi-da, bolaning chakkasiga soldi. Eshmamat «Tarzan»ning qo'lidan uchib ketib, yiqildi. «Tarzan» xaxolab kulib, uni yana tikka turg'izdi. Rahimcha orqaga o'tdi. Navbat «Gung»ga keldi. U kaftlarini bir-biriga ishqadi, keyin xo'rozga o'xshab boshini egdi, tislanib otildi. Eshmamat «oh!» dedi. Men unga qaramas edim, bir yeri yorilganini sezdim. «Gung» o'ynoqlab, Rahimchaning orqasiga o'tdi. Maxsum burnini tortib, kaftiga tupurdi, bir shapaloq soldi. U ham orqaga o'tdi. Navbat menga keldi. Men Eshmamatga qaramagan edim.

- Ha? - dedi Rahimcha ortimdan.

Eshmamatning tomog'i og'riganini, pixillab gapirayotganini eshitdim.

- Sen mening jo'ram-ku... Meni urmaysan, a? - der edi u.

Orqamga Rahimcha tizzasi bilan bir tepdi. Eshmamatga yalt etib qaradim. Qo'rqib ketdim. Uning basharasi dabdala bo'lgan, pastki labi shishib chiqqan, qon sizib, ko'ylaklariga tushar, Eshmamat hansirab, labidagi qonlarini yalar, menga hadeb:

- Menga jo'rasan-ku, a? - der edi.

Ko'zimga ko'zi tushganidan keyin u jilmaydi.

Yerga qaradim.

- Agar urmasang, uni qo'yvoramiz. O'rniga o'zing turasan! - dedi Rahimcha, so'ng: - E, qo'rqoq! - deb yoniga tupurdi.

Men qo'limni siltadim. Eshmamatning qulog'i ustiga tegdi.

– Eh! – deb yubordi u.

Buzilgan ko'l bo'yiga ketdim. Suvga qaradim, cho'nqa-yib o'tirdim. Ko'nglim buzilib, ko'zimga yosh keldi.

– Qani, endi biz ham ko'raylik bir! – dedi «Tarzan».

Shunda tasir-tusur bo'lib qoldi. Qarasam, Eshmamatni endi «Gung» ushlab turibdi. Eshmamat chiraniq qutulishga harakat qilyapti. Eshmamat birdan katta toshni ko'tardi-da, «Gung»ning peshonasiga urdi. «Gung» ko'zi chiqqudek bo'lib, o'tirib qoldi, peshonasi-dan tizillab qon otila boshladi.

Eshmamat narigi sohilga qochdi.

«Tarzan» uning orqasidan yugurgan edi, Eshmamat kesak olib otdi. Kesak qum ekan, yo'lda sochilib ket-di-yu, «Tarzan» ko'zini ishqab, to'xtab qoldi.

Eshmamat sohildan oshib, daraxtzorga berkindi.

Men ich-ichimdan xursand bo'lib, qo'zg'aldim. Keyin «bular meni ham uradi», deb velosipedga minib, jo'nab qoldim.

### = XIII =

– Haliyam yuribsani mi ular bilan? – dedi onam.

Xo'rligim kelib turgan edi, yig'lab yubordim.

– Nimaga shunday deyaverasiz?.. Qachon yuribman ular bilan?

– Yurma, bolam, «Yaxshi bilan yursang, yetasan mu-rodga, yomon bilan yursang, qolasan uyatga».

– Xo'p.

Ertasi «O'qituvchi» kitobini o'qib o'tirib, Naganni esladim. Ketib qolganidan endi xafa bo'ldim. Manzilini onamdan so'rab olib, xat yozdim. «Nagan, jo'ra, meni kechirgin. Men ular bilan yurmayman endi. Kelgin Gulbahorga», deb yozdim.

Xatni pochtaga tashlagani chiqib, Eshmamatni esladim. Undan ham kechirim so'ragim keldi. Velosipe-

dimni surib, soyga ketdim. Soydan o'tib, qishloqqa kirdim. Bu qishloqda tojiklar yashaydi... Gangib ketayotib tuproqda velosiped izlarini ko'rdim. Pastga tushib turgandim, tor ko'chaning boshida velosiped ruli ko'rindi.

«Meni ursa-ya!», deb o'ylab qoldim.

Sekin orqamga qaytdim.

Kechqurun Faridalarning uyi oldida velosipeddan tushmay aylanaverdim. Deraza ochilib, Farida boshini chiqardi. Velosipedni yo'lakka haydab tushdim.

- Kataysa qilasanmi, Farida?

- Yo'q, - dedi u. - Rahimchalarning oldiga bor, ular bilan kataysa qil.

- Men endi ular bilan yurmayman, - dedim.

Farida kului-da, derazani yopdi.

Rahimchalarga achchiq qilib, velosipedni to'g'ri kinxonaga haydadim. Uchovlon zinada o'tirishgan ekan. «Tarzan»ning ko'zлari qizargan, «Gung» boshini kir doka bilan bog'lab olgan.

Rahimcha o'tirgan yerida meni qo'li bilan imladi. To'xtamay haydab ketdim. Qaytib kelayotgan edim, u zinadan tushib, yo'lning o'rtasiga chiqdi. Shu yerdan orqaga burayotgan edim, u chopib kelib, velosipedim rulidan ushladi.

- Ha, aynidingmi?

- Qo'yvor, ketaman, - dedim.

- Nimaga qochib yuribsan?

- Qochib yurganim yo'q.

- Endi biz bilan yurmaysanmi?

Men ko'chaga qaradim.

- Mayli, - dedi Rahimcha. - Boshdayam xoinlik qilishningi bilardim. Qani, velosipedingni ber, bir minay.

«Beraymi? - deb o'yladim. - Berayin. Qutulaman shu bilan». Lekin:

- Onam tez kelgin degan, - deb bahona qildim.

– E, onangni! – dedi-da, velosipedimni tortib oldi. Besh-o'n qadam sudrab borib, mindi. Yugursam, ushlab olar edim. Lekin: «Mayli, minsin. Endi jo'ra bo'lmayman-ku», deb o'yladim.

Yo'ldan chiqib kutdim. Bir mahal shuvullatib yonimdan o'tib ketdi. Sekin orqasidan tushdim. U yana oldimdan o'tib, soy tomonga o'tib ketdi. Yig'lagim keldi bordan: «Nima bu o'zi? Birovning narsasida nima haqi bor? Velosiped meniki-ku!» Orqasidan chopib ketdim. Shunda sekin haydab, har tomonga qarab kelayotganini ko'rdim. Daraxt orqasiga yashirinib turdim. Yonimdan o'tishi bilan shartta chiqib, rulga yopishdim.

Oldingi g'ildirak aylanib ketib, yiqildi. Rahimcha o'rnidan irg'ib turdi-da, iyagimga bir musht urdi. Velosipedimni tortib olib, itarib yubordi. Velosiped g'ildirab borib, daraxtga urilib, ariqqa quladi.

Jonim chiqib ketdi! «Ko'tarib uraman-da, qorniga te-paman», deb o'ylab, yoqasiga yopishdim. U qo'l tegizmadi. Ko'zimga tikilib:

- Ol qo'lingni, jag'ingni ezib qo'yaman! – dedi.
- Nimaga urasan? Nimaga bunday qilasan?
- Ol qo'lingni! – pastdan bilagimga urgan edi, qo'llim chiqib ketdi. Keyin u engashib, ust-boshidagi changlarni qoqa boshladi.

Velosipedning g'ildiragi «vosmyorka» bo'lib qolgandi.

Uyga sudrab keldim. Onam ko'rmasin, deb og'ilga kiritib qo'ydim.

#### = XIV =

O'qish boshlandi. Sinfdosha o'rtoqlarimning ba'zilari meni yomon ko'rib qolganini sezdim.

O'qishning ikkinchi kuni mакtabга borayotgan edim. Yo'l kinoxona oldidan o'tadi. Kecha chopib o'tib

ketgan edim. Bugun juda alam qildi. Xotirjam o'tib ketaverdim. Hech kim yo'q edi, kinoxona eshigi oldidan o'tayotganimda «Tarzan»ni ko'rdim. Bo'sh paqir ko'tarib, chiqib kelayotgan ekan. Yalang oyoq. Uzun pashkalarining orasi loy.

- Ha? - dedi.
  - Maktabga boryapman, - dedim.
  - To'xta, senda gapim bor.
  - Dars boshlandi, - deb ketaverdim.
  - To'xtasang-chi, nimaga qochasan?
- «Hadeb qochaveramanmi?» deb, to'xtadim.  
U kelib, paqirini yerga qo'ydi. Qo'lini uzatdi.
- Yaxshimisan?

Men ham qo'limni uzatgan edim, shappa ushlab oldi-da, kulimsirab:

- Qani, ruchkani ber, - dedi.

Bir kuni kino ko'rib o'tirganimda, bitta avtoruchka berib, «berkitib qo'y», degan edi. Keyin uni yo'qotib qo'ygandim.

- Ruchka yo'q, yo'qotdim, - dedim.
  - Pulini ber bo'lmasa, - dedi.
- Kissamda bir so'm pulim bor edi.
- Pulim yo'q, - dedim.
  - Yo'qmi?
  - Yo'q.

U so'loqmonday qo'lini kissamga tiqdi. O'zimni chetga tortdim. Qo'li quruq chiqdi.

- Pul bermasang, qo'yvormayman, - dedi. - Yo pap-kangni tashlab ketasan.

Yana qochishni ko'zladim.

- Xo'p, - deb undan qo'limni bo'shatdim-u, ura qochdim.

Maktabga yaqinlashganimda, u menga yetay deb qoldi. Katta ko'prik bor oldinda. Shundan o'tsam bo'ldi.

Ko'prikkä yetay deganimda, maktab oldida qizil ko'yłak kiygan qizlar va bolalarni ko'rdim. Ular bizga qarab turishardi. Ko'prikkä o'tolmadim. Yelkamga bir narsa kelib tushdi. To'qashib, ko'prikkä ostiga kirib ketdim... Keyin bolalar-qizlar yopirilib tushib kelishdi.

Meni maktab direktori oldiga boshlab kirishdi.

Gap nimadaligini aytib berdim.

- Ayb o'zingda, - dedi direktor. - Lekin bu ishni biz shu ahvolda qoldirmaymiz.

Uyga borib, onamga ham aytib berdim.

- E-e, bolam, - dedi onam. - Xafa bo'lma. Men ertaga ular bilan o'zim alohida gaplashaman!

### = XV =

Ertasi maktabdan kelib, Rahimchani ham, «Tarzan»ni ham, «Gung»ni ham o'n besh kunga qamashganini eshitdim. Qamoqdan chiqishgandan keyin ular meni boplashadi, deb yurdim... Lekin bir kuni Rahimcha bilan ko'chada yonma-yon kelib qoldim.

- Mana, qamoqdan chiqdim, o'lmadik, - dedi u salmoqlab. - Lekin bir boplading. Hay, mayli...

Keyin Nagandan xat oldim. U meni kechiribdi: «Kelgusi yil boraman», debdi. Keyin velosiped qishlog'imizda ko'payib qoldi. Maktablararo musobaqada Eshmamat bilan birga bo'lib, u bilan ham yarashdim... Farida ham endi Rahimcha haqida gapirmsas edi... Onam ham unutib yuboribdi. Sinfdoshlarim bilan avvalgidek bo'lib ketdim...

## YUR, TOG'LARGA KETAMIZ

– *Bobo, nega egilib yurasiz? Nimani izlaysiz?*  
– *Yoshligimni, bolam.*

= I =

Saroytosh qishlog'i Yetimtog'ning etagida, soy bo'yida joylashgan. Qishloq jami bo'lib to'qqiz xo'jalikdan iborat. Lekin o'shalar ham qishloqda mehmondek yashar, kuz tushib, tog'dan sovuq shamollar esa boshlashi bilan cho'lga ko'chib ketishar edi.

Cho'lga ko'chish biz, bolalar uchun qanday quvonchli bo'lsa, cho'ldan tog'ga, Saroytoshga ko'chib kelish ham shunday quvonchli edi. Tog'! Uning osmon baravar ko'tarilib turishini ko'rishning o'ziyoq kishini ham zamindan bir daraja ko'targandek bo'ladi. Saroytoshning ikki tomonida qad ko'tarib turgan dara sohillari, undagi archazorlar, soy bo'yida o'sguvchi yulg'unzor-u bizning uyimiz yaqinidagi eski chashma, chashma atrofida ko'karib yotadigan nilufarlar, yana – qishloqning tor, egri-bugri ko'chalari, muyulishlarda do'mpaygan go'ng to'dalari, atrofdan eshitilib turadigan kakliklar sayrog'i, oqshom tushganida uylar ayvonida yonuvchi chiroqlar, chiroqlar tevaragida qo'r tutib, suhbatga berilgan odamlar – bularning hammasi biz uchun aziz, qadrdon edi!

Qishloqqa ko'chib keldik deguncha atrofga izg'ib ketardik. Eski tegrimon bormi, boyqush in qo'ygan qari shotut bormi – borib ko'rardik, tomlarga chiqardik, bostirmalarda «iskalanib» yurardik.

Saroytoshga bir kelganimizda, men ayvon labiga o'trib, soy bo'yidagi yolg'iz olcha shoxiga qo'nib turgan hakkani tomosha qilardim.

Bostirmada nimadir qitirlagandek bo'ldi. Sakrab pastga tushdim. Bostirma eshigiga yetmasimdan, ich-

kariga nimadir chopib kirib ketgandek bo'ldi. Bundoq paytda menda jon qoladimi, deysiz. Ichkariga asta mo'raladim. Bostirma nimqorong'i bo'lganidan boyagi narsa ko'rinnadi.

Kirib, biroz serrayib turdim. Bir payt burchakdag'i oxur tomondan tag'in shitirlash ovozi eshitildi. Bir qadam bosdim-u, to'xtadim. «Ilon bo'lsa-ya!» deb o'yladim.

Lekin: «Hali ko'rdim-ku, kuchukbolaga o'xshadi», deb o'yladim-da, tashqariga qaytib chiqdim. Uyga kirib, eski gazetalardan olib tushdim. Quvur qilib o'rav, yoptirib, tag'in bostirmaga kirdim. Mash'alani tepamda tutib qarasam, oxur ichida ikkita cho'g' miltillaydi. Kuchukbola esa burchakka tiqilib, oppoq tishlarini ko'rsatib turibdi. Ustiga bordim. Ushlamoqchi bo'lib qo'l cho'zuvdim, kuchukbola burchakka battar tiqilib, bo'g'iq ovoz chiqardi. Qo'limni tishlab olishi aniq!

Yana tashqariga chiqdim. Otam uyning orqasida mol qo'rasining yiqilgan joylarini tuzatmoqda edi. O'tib bordim.

– Ota! Bostirmada kuchuk bolasi bor, – dedim. – Kichkinagina!

– Kuchuk bolasi? – so'radi otam qaddini ko'tarib.

Otam baland bo'yli, qirg'izqovoq, og'irkarvon odam. Qo'y boqadilar. Yordamchi cho'ponlari bor.

– Ha, kuchukbola, – dedim. – Bostirmaga kirib olibdi. Qora. Ushlayman desam, tishini ko'rsatadi.

– Qani, ko'raylik-chi!

Men qo'limdag'i o'chib qolgan gazeta parchasini tashlab, uydan boshqa gazeta olib tushdim. Yondirib, ichkariga kirdik.

– Ana, ota. Anavi oxurda!

Otam mash'alani tutib, oxur boshiga bordilar. Itcha tag'in irilladi. Otam gazetani menga berib, kuchuk

bolaning tumshug'iga bir qo'llarini cho'zdilar. U ham-la qilmoqchi bo'lgandi, ikkinchi qo'llari bilan uning bo'ynidan qisib ushlab oldilar. Tashqariga chiqdik.

Kuchukbola kichkina, usti qoramtil bo'lsa ham, osti oqish, oppoq tirnoqli oyoqlarini tipirchilatar, otamning qo'lidan tushib qochmoqchi bo'lar edi. Otam uni yerga qo'yib, u yoq bu yog'iga qaradilar. Dikkayib turgan ko'kish quloqlariga tikilib, menga ko'z tashlab qo'ydilar.

Shunda men ham kuchukbolaga qiziqib qoldim.

- Ota, nimaga qulog'i unaqa, dikkaygan? - deb so'radim.

Otam jiddiy tortib:

- Hozir, - dedilar. - Eshikni berkit-chi.

Bostirma eshigini berkitishim bilan otam sirli kuchukbolani qo'yvordilar. Kuchukbola yerga bag'rini berib birpas yotdi-da, so'ng burila solib bostirmaga qarab chopdi. Eshikka o'zini urib oldi. Tirqishga tumshug'ini tirab, eshikni tirnagan bo'ldi. Keyin bostirma biqiniga qarab chopdi.

- Qo'yma! U yoqdan o't! - dedilar otam va o'zlari ham yugurdilar.

Men ayvonga chopib chiqib, nari boshga bordim. Pastga tushmasimdan, otam kuchukbolani tag'in tutib oldilar. Boyagi joyimizga keldik. Otam itni yerga qo'yib, bo'ynidan qo'l olmay, unga tikildilar.

- Qiziq. Bo'rining bolasi desang, bo'ri bolasiga o'xshamaydi, it bolasi desang, it bolasiga o'xshamaydi. Uydan yegulik bir nima olib chiq.

Men chopacha-chop qilib, dahlizga kirdim. Devordagi mixga ilig'liq qasnoqdan «qorin»ni oldim. Qorinning yog'li og'zini ochib, bir bo'lak qovurdoq chiqardim. Pastga qaytib tushdim.

- Mana, ota.

Otam go'shtni kuchukbolaning og'ziga tutdilar. Kuchukbola tislanib, bir nafas qo'rqib turdi-da, go'shtni hidladi. Otam go'shtni yana uning tumshug'iga tutdilar. U burnini qimirlatib, tislandi. Go'shtga og'iz urmay, yana yerga yotib oldi.

- O'zi ochga o'xshaydi, - dedilar otam.
- Ha, och, - dedim men ham.
- Chilvir-pilvir topib kel.

Men og'ildagi ustunga boylog'ligicha qolib ketgan chilvirdan kesib keldim. Otam itchaning bo'ynidan bog'lab, ko'tarib oldilar. Olcha tagiga borib, chilvirni daraxt tanasiga bog'ladilar.

Otam o'rnidan turishlari hamon, it o'zini har tarafga ura boshladi. Bir-ikki umbaloq oshib bo'g'ildi. Yana tipirchilab, o'zini o'nglab oldi. So'ng daraxt tanasiga qapishib, bizga javdirab tikilganicha tek qoldi. U titrar, qaltirar, bo'yin junlari hurpayib ketgan, bizga dushman nazari bilan qarar edi.

- Yur, ketdik. Qo'yaver endi, - dedilar otam.

Men «xo'p», deb orqada qolgandim, otam menga olayib qaradilar. Men indamay u kishiga ergashdim. Ammo ayvon yonida qolib, supa chetiga o'tirdim.

- Xalaqt berma! - dedilar otam uy ortiga o'tar ekan.
- Nimaning bolasi ekanini hali aniqlaymiz.
- Xo'p. Ota, bu endi meniki bo'ladi-ya?
- Ha.
- Otini Qoraboy qo'yaman.

Otam bosh irg'ab, uy orqasiga o'tib ketdilar.

Qishloqda Qoraboy degan bir it bo'lardi. Qodir podachining iti. Juda ham katta, baquvvat it edi. Qulqoq, dumi kesilgan, momaqaldiroq gulduraganday yo'g'on tovush bilan hurardi. U qarib qolgan bo'lsa ham, qishloqdag'i yosh bolalarga tegmasa ham, biz undan qo'rqib yaqiniga bormasdik.

Qoraboy o'tgan yili ham bor edi. Keyin yo'qolib qoldi. Cho'lga borganda ham uni ko'rmadik.

«Qoraboy, Qoraboy!» pichirladim kuchukbolaga qarab va yana asta yurib, olchaga yaqinlashdim. Qarasam, kuchukbola qovurdoqni yeyapti! Izimga qaytdim-da, uydan yana bir bo'lak go'sht olib chiqdim. Uni ham itga tashladim. Endi u menga unchalik ham yotsirab qaramadi, tishini ham ko'rsatmadi. Lablarini tili bilan yalab, daraxt tanasiga tikildi-da, boyloqligi esiga tushgandek tag'in tipirchilay boshladi. Men jadal orqaga qaytdim.

O'zini o'nglab olgan Qoraboyim yana go'shtni yemoqqa tushdi.

«Bechora och qolgan, rosa ochiqqan!» deb o'yladim. Otam tuyulishda ko'rinxaganlarida, tag'in uydan go'sht olib chiqqan bo'lardim.

- Bor, enangni chaqirib kel. Kech bo'lyapti. Hali zamon mollar qaytadi, - dedilar otam.

Onam ikki xonadon naridagi bir cho'ponning o'tovini tikishda uning xotiniga ko'maklashgani ketgan edilar. Aytmoqchi, aytib qo'yishim kerakki, qishloqda yashovchi kishilarning hammasi cho'pon, podachi. Qora uylarni esa eski udumga ko'ra faqat ayollar tikishadi.

- Ena, otam chaqiryaptilar! - dedim u yoqqa o'tib borib.

Onam ham baland bo'yli, qotma ayol. Boshlarida hamma vaqt po'ta bo'ladi. Otam u kishiga bir-ikki marta: «Shu sallangi tashla, uyat bo'lib ketdi», dedilar. Lekin onam sallani tashlamadilar. «Tashlasam, boshim og'riydi», deb qo'ydilar. Sallalari juda g'alati qilib o'ralgan. Tepadan qo'l suqsangiz, bilakkacha ichkariga kiradi.

U yerda nimalar yo'q deysiz! G'altak ip ham, igna ham bor. Pul ham solib qo'yadilar.

Bir kuni ayollarning mana shunaqa sallasi qaysi zamonlardan qolgan hamda nima uchun qo'ng'irot<sup>1</sup> ayollarigina shunaqa sala o'rashlari haqida uyimizda bo'lgan suhbatni eshitganman. Menga ma'lum bo'lgani shu: bizning elatimiz hamma vaqt chorva boqib, tog'-u dashtlarda yurgan va tayinli bir qabristoni ham bo'lmasgan. Masalan, biron kishi cho'l dami, tog'dami o'lib qolsa, kafanlik, deb yugurmaganlar. Boshidan sallasini olib, murdani shunga o'rab ko'mib qo'ya qolganlar.

Kim biladi deysiz, onam bunga udum deb qaragani uchunmi yoki ko'nglida boshqa gapi bormi, qishloqning ko'pchilik ayollarini po'talarini allaqachon tashlaganiga qaramay, u kishi doim boshlaridan tushirmay yurdilar.

– Xayr, egachi, – deb xayrlashdi onam qo'shni xotin bilan. – Mollarni sovadig'an vaqtimiz ham bo'p qoldi.

Onam ham itni ko'rib, qiziqib qoldilar.

– Ha, jonivor. Buni qaydan topding? – dedilar u to-monga yurib. – E-bo-ye, bu bo'rining bolasi, shekilli. Itning qulog'i bunday bo'lmaydi... Otang qani?

– Qo'rada.

Onam engashib, Qoraboyni silamoqchi bo'lувди, u tislaniб, tishlarini ko'rsatdi. Onam kulib qo'yib, mening bilagimdan ushladilar.

– Buni tinch qo'y. O'rganib olsin. Qayerdan topding? Men uni qanday qilib topganimni aytib berdim.

Onam yo'lda to'xtab, tag'in Qoraboya qaradilar-da:

– Tavba, – deb qo'ydilar.

– Uy bitdimi? – dedilar otam onamga.

– Bitayozdi. Namatning o'zi qoplandi. Yo'lda chan-g'arog'i singan ekan, shuni ulaymiz, deb urinib qoldik.

Qishloqdagi imoratlarning bittasi ham oqlanmagan. Imoratlarning bo'yи past, eng balandining ham shipti-

<sup>1</sup> Qo'ng'irot – o'zbek urug'laridan biri

ga otamning qo'li yetadi. Tashi ham, ichi ham shundoq loysuvoq qilib qo'yilgan. Bizda elektr degan narsa yo'q. Lampa chiroq, fonus yoqishadi.

– Nurali, – deb mening nomimni tutib, otamga mu-rojaat qildilar onam, – anavi narsa itmi, bo'rimi?

– Shu, – otam belini uqalab kerishdilar, – it desang ham bo'ladi, bo'ri desang ham. Menimcha, shuning yo enasi bo'ri yo otasi, – otam shunday deb onamga tikildilar, keyin tuyulishga qaradilar-da, menga: – Borib qara-chi, bo'g'ilib qolmadimi? – dedilar.

Men chopib ketdim. Ammo otam onamga qandaydir sirli bir gap aytmoqchi ekanini his qildim.

Orqaga qaytib, tuyulishga yetganimda, onam chiqib keldilar. Menga kulimsirab qaradilar-da, so'ng birdan xo'mrayib:

– Bostirmaga opkirib qo'y! – dedilar.

Yana olchaga qarab chopdim. Qoraboyni otam ush-lagandek qilib, bostirmaga kiritib qo'yvordim. Qoraboy ham xuddi shuni kutib turgandek, ipini sudrab oxur to-monga qochdi.

Tashqariga chiqqanimda, kunbotardagi adirlar betidan – archazorlarni oralab qo'ylarimiz tushib kelmoq-da edi.

Qo'y sog'dirishning o'ziga yarasha gashti bo'ladi. Ona sovliqning bo'ynidan quchib turasan. U tipirchilamasligi kerak. Onang bo'lsa qo'yning ortida, ikkita oyog'ini kerib, yumshoq, bo'liq yelinidan tizzalari orasiga qo'yib qo'yan kadiga pov-pov qilib sutini sog'ib oladi. Bu yerdagi butun ishing sovliqni ushlab turish bo'ladimi? Yo'q! Qo'zichoqni mingandek qilib butlaring bilan qisib turasan ham. Emizdirishga gal kelganda, qo'yvorasan.

Men qo'y sog'dirishni, ayniqsa, qo'zichoqlarni bo-qishni yaxshi ko'rardim.

Lekin hozir qo'ylar sutedan qolgan payt. Ilk bahorda tug'ilgan qo'zichoqlar ham doppa-durust qo'zi bo'lib qolgan. Ular onalari bilan yuradi. Emish yodiga tushganda, sovliqning tagiga kirib, uning shalvirab qolgan yelinini tumshug'i bilan bir-ikki turtadi-da, og'ziga sut tushmagach, orqada qolib o'tlab ketaveradi.

Men bu kunlarda sigir sog'ishga ko'maklashar edim.

Oqshom tushdi. Ishlarimiz bitdi. Otamning yordamchi cho'poni ham mollarni qo'raka qamab, uyiga ketdi. Biz ayvonda qo'r tutib o'tirardik. O'rtada yettinchi lampa. U xira nur sochib yonadi. Atrofdan hasharotlarning turfa ohangda sayrashlari eshitiladi. Soyda suv yaltiraydi, uning bir maromda shildirashi eshitiladi.

Hademay oy ko'tariladi. O'shanda biz to'shaklarga kirib yotgan bo'lamiz.

- Ota, u nima endi? Bo'rimi, itmi? - so'radim.

· Otam onamga qiya qarab qo'ydilar.

- Nima desang, shu, - dedilar. - Otini Qoraboy qo'ydingmi, Qoraboy deb chaqiraver. Lekin ertaga qulog'i bilan dumini kesaman.

- Yo'q-yo'q! - deb yubordim.

Odatda, kuchukbolaning qulog'i, dumini kesishadi. Chunki buning ularga foydasi bor. Birinchidan, qulogdumi kesilgan itlar serjahl bo'ladi, deyishadi. Ikkinchidan, ular bo'rilar bilan urishib qolsa, ma'lumki, bo'rilar ko'pincha itlarning bo'g'zidan oladi, duch kelsa, qulog'idan ham tishlaydi. Shuning uchun itlarda qulog bilan dumning bo'lganidan bo'lmagani yaxshi, deyishadi.

Lekin... hozir Qoraboyning dikkaygan quloglariga rahmim keldi.

Otam menga o'qraydilar.

- Shu it o'zingniki bo'lishini xohlaysanmi?

- Haliyam o'zimniki.

- Unday bo'lsa...
  - Qo'ya bering, - deb qoldilar onam shunda. - Bitta qulqoq-dumi uzun it yursa, yuribdi-da! Buning ustiga hozir yoz. Bahor bo'lgandayam boshqa gap edi. Issiqda... yarasi bitmay yotadi.
  - Xotin... - dedilar otam ensalari qotgandek.
- Onam menga uqtirdilar:
- Qoraboyni bostirmadan topganiningni birovga aytib yurma, xo'pmi? Kerak emas. Har kim har xayolga boradi.
  - Xo'p, - dedim men.
- Lekin otam bilan onamning bu o'gitlari tagida qandaydir sir borligini ham sezdim...

= II =

Ertasi kuni Qoraboyni tag'in tashqariga olib chiqib, olchaga bog'ladim. Go'sht berdim, suv berdim. It men ga xiyla o'rganib qoldi. Endi uning boshini, yelkasini silasam, qo'rqa-pisa yerga yotib olar, biroq yotsirab qaramasdi. Qoraboy menga o'rgana boshladi.

Qishloqda maktab yo'q. Bir vaqtlar qishloq soveti idorasi bo'lgan bir imorat qishloq etagida qo'nqayib turardi. Uning ikkita xonasi ombor. Bitta xonasiga bo'yra, bo'yraning ustidan palos yozib qo'yilgan. Biz - Saroytoshning o'quvchilari - hammamiz bo'lib, yetti kishi shu yerda o'qiymiz. Qirraburun, novchadan kelgan, siyrak qoshli o'qituvchimiz Egamberdi aka bo'z otlarini yo'rg'alatib kelib qoladilar. O'zlari Yetimtog' tomondagi Mingchuqur qishlog'ida yashaydilar. «Sinfxona»mizda beshinchchi sinf o'quvchisi ham bor.

Egamberdi aka hammamizga bir «sinf»da dars beradilar. Biz bir-birimizga xalaqit bermay, inoq o'tiramiz.

Qishloqi bolalar, tog' oraliqlarida o'sgan bolalar keyin yaxshi o'qib ketadi, degan gapni eshitgansiz. Buning sababi bo'lsa kerak...

Biz kutubxona degan joyni ham ko'rmasdik. Qo'llimizda bir necha darslik kitoblari, daftarlарimiz. Rostini aytishim kerak, bu kitoblarni ko'zimizga surtib o'qirdik. Biz, axir, atrofimizdagi muhit deymizmi - qishloq, qing'ir-qiyshiq ko'cha, o'rmon va tog'lar-u otalarimiz boqadigan qo'y-echkilardan bo'lak narsani bilmasdik. Shundoq ekan, qani bu sirli kitoblarda nima gap bor ekan, deb qiziqardik-da.

Haqiqatan ham, kitoblarda o'zga bir olam ochilardi. Undagi odamlar ham o'zgacha, turarjoylari ham. Eh-he, katta-katta shaharlar, mashinalar, tramvay-trolleybuslar, bularning hammasi bizga kelajakda yetishuvimiz mumkin bo'lgan antiqa bir olam edi.

Maktabga keldim. Hech kim yo'q. Bir payt Qodir podachining kichkina neverasi kelib qoldi. Oyog'ida otasiningmi, akasiningmi etigi. Boshida telpak. Bu bola oramizda ancha serzarda edi.

- Ha? - dedim men.
- Nima? - dedi u.
- Tomosha qildingmi qishloqni?
- Ish ko'p, - dedi u salmoq bilan. - Bobom ayiq otib keldi.
- Ayiq? Tirik ayiqni-ya?
- Ha. O'ligini otadimi bo'lmasam.
- Ko'rsatasanmi?
- Haqiga nima berasan?
- Shoshma, men ham senga bir narsani ko'rsataman. Kelishdik. Hademay boshqa uylardan ham birin-ke-tin, uzun-qisqa bo'lib, o'quvchilar kela boshlashdi. Ni-hoyat, soy chiqib ketayotgan daraning adog'ida bo'z otliq ko'rindi. Biz o'qituvchimizni chuvullashib qarshi oldik.
- Birinchi dars bo'lmadidi hisob. Egamberdi aka qaysi darsdan qayerga kelganimizni surishtirdilar, savol-javob qildilar. Keyin:

- Tog' yaxshi-ya, - dedilar.

Tog' tog'-da! Hozir etakdag'i cho'llarda quvragan baho'r bu yerda yashnab turibdi. Lekin sizga Saroytosh bahori haqida gapirmadim, bunaqasini boshqa yerda ko'rishingiz mahol.

Yurgan yo'lingiz, so'qmog'ingiz ham yam-yashil! Xuddi yashil ko'rpa ustida yurgandek lo'killab qadam tashlaysiz. So'qmoq bo'ylarida qizg'aldoqlar ochilgan. Gilamdek-gilamdek maydonni egallab chuchmoma-lar o'sib yotadi. Bulturdan qolgan yantoqlar tagida qalamqosh gullari!

Bahri dilingiz ochilib, ko'kragingiz kengayib ketgan-dek bo'ladi. Anavi tepalik yashil-u, narigisi undan ham yashilroq bo'lib tuyuladi. Ammo unga chiqib borib, qo'shni tepalik yana ham yashilroq ekanini ko'rasiz. Shunday qilib, birpasda qishloqni o'rab turgan dara so-hillarini aylanib chiqasiz.

Uylarning tomi lolaqizg'aldoqlarga to'lib ketadi, ular bilan birga bo'g'otlarda yovvoyi arpa ham o'sadi. Go'ng to'dalarida qo'ziquloqlar.

O'sha kuni shundoq bo'ldiki, Otaqulning ayig'ini ko'rish o'rniga, unga Qoraboyni ko'rsatganimni bilmay qoldim.

- Ana, ana! - dedim, bostirmaga boshlab kirib.

- Qani?

- Ko'z bormi?

Nihoyat, Qoraboyni silab-siypab, aldab-suldab tash-qariga olib chiqdim. Otaqul itni yoqtirib qoldi.

- Menga ber, - dedi.

- Yo'q, - dedim. - Buni hech kimga bermayman.

- Bera qol.

- Yo'q, dedim-ku!

- Bo'lmasam ayiqni ko'rsatmayman!

- Ko'rsatmasang, ko'rsatma!

Otaql Qoraboya g' alati-g' alati qarash qilib, uylariga ketib qoldi. Men itni siladim. Go'sht, non chiqarib berdim. Oldiga labi uchgan taqsimchada suv qo'ydim. Jonivor qornini to'yg'azib olgach, olcha tanasiga ishqaganib g'ingshidi-da, cho'zilib yotdi.

Men uning boshida ancha vaqt o'tirdim.

Kechqurun ayvonga to'planganimizda, otam Qoraboydan so'z ochib:

– Agar shu it bo'lib ketsa, toza yaxshi bo'ladi, – deb qoldilar.

– Ha. Unda anavi ko'ppaklaringizning keragi bo'lmay qoladi, – dedilar onam ham.

Men qiziqib so'radim:

– Nega? Nima uchun?

– It bilan bo'rining orasida tug'ilgan dedim-ku senga, – tushuntirdilar otam. – Shuning uchun agar bo'riga tortsa, bo'ri bo'ladi, bizga do'stlik qilmaydi. Agar itga tortsa, chin do'st bo'ladiki, bunaqasini topish qiyin!

Ana shunda men boshqa narsaga ham qiziqib qoldim: qanaqasiga bu Qoraboy – it bilan bo'rining orasida paydo bo'ldi ekan? It bilan bo'ri azaldan bir-biriga dushman-ku!

Otam savolimga o'ylanib javob berdilar:

– Birorta it... qishloqqa adashib kelib qolgan. Harqalay, erkak it bo'lsa kerak. Keyin biron ta bo'ri bilan qo'shilgan. Bo'ri buni tug'ganidan keyin o'zi bir balo bo'lgan, – otam onamga qaradi. – Xotin, bo'ri besh-oltita tug'adi. Chamamda, ovchi qishloqqa kelib, ona bo'ri ni otib olgandan keyin bolalarini ham olib ketgan. Bu ajralib qolgan.

– Qanday qilib? – hayron bo'ldim men.

– Qochib qolgan bo'lishi ham mumkin, – dedilar otam. – Bostirmaga berkinib, jon saqlagan bo'lishiyam mumkin. Yoki bu tashqarida yurganda ovchi buning

sheriklarini olib ketgan. Xullas, uyog'i menga qorong'i. Ammo bitta narsa ma'lum. Bu kuchukbola hamrohlari orasida ancha tetigi bo'lgan. Ehtimol, bu birinchi tug'ilgandir. Kim biladi? O'g'lim, uyog'i bilan ishing bo'lmasin! Itingga ehtiyyot bo'l! O'zingga o'rgat.

- Xo'p. O'rtoqlarimga ko'rsatsam maylimi?

- Mayli-yu, - otam sukutga toldilar. - Ammo anavi Qodir podachidan ehtiyyot bo'l!

- Men Qoraboyni naq o'sha odamning nevarasiga ko'rsatdim-ku!

- Ha! - dedilar otam nuqib. - U yaxshi odammas.

- Ota, ayiq otib kepti.

- Ana, aytmadimmi!

Bu kun ham o'tdi. Ertasiga Qoraboyimni boshqa sinfdoshlarga ham ko'rsatdim. Ular itchani o'rab olib, rosa tomosha qilishdi. Albatta, buning it ekaniga gumon qilishmadi-yu, ammo quloqlarining dikkayib turishi ularni ham hayron qoldirdi.

- Bu o'zi shunaqa, - dedim. - Qulog'i dikkayib tug'ilgan!

- Zakaz qilingan de? - kului yettinchi sinfda o'qiydigan Shoberdi.

- Ha, - dedim. - Zakaz bo'lgan!

Bolalar ham kulishdi. Keyin har qaysisi o'zining iti haqida gapira ketdi. Qo'shni qishloqlarda ko'rgan illari haqida so'zlashdi. Gap aylanib, Qodir podachining bultur yo'q bo'lgan Qoraboy itiga kelib to'xtadi. Bolalar birdan chuvullashdi:

- Shuning uchun buyam zo'r bo'lsin, deb otini Qoraboy qo'ydingmi?

- Ha! - dedim kerilib. - Buyam Qoraboy bo'ladi. Ko'rasizlar. Bu undan ham zo'r bo'ladi!

Bolalar bunaqa itni kam ko'rganlaridanmi, Qoraboyni havas qilib tarqalishdi.

Kechki payt uyimizga Qodir podachi nevarasini ergashtirib kelib qoldi. Biz endi dasturxon tevaragiga o'tirgan edik. Otam o'rinalidan turib, ularni iliq kutib oldilar.

– Xush ko'rdik. Kelinglar, – deb to'rga o'tqizdilar. Otaqul ham to'rga o'tib, bobosining biqiniga tiqilib o'tirdi.

Biroz gap-so'z, hol-ahvol so'rashishdan keyin Qodir podachi:

– Polvon, uyingizda bir it paydo bo'ptimi? – dedi.  
– Mana, nabiramiz qo'ymasdan meni olib keldi. Bila-siz, men ham itbozman. Bungayam yuqqan, chamasi. Shuni ko'ramiz, deb keldik.

Otam menga qarab qo'ydilar. Otamning yuzi tund edi. Yuragim gupullab urib ketdi.

– Ha, – dedilar otam biroz sukut saqlab. – Cho'lda bir tanish uchrab qolgandi. Ovcharkadan qochirgan bir iti bor ekan. Shuning bolasidan beruvdi.

Men hayron bo'lib qoldim: otam yolg'on gapirdilar!

Qodir podachi ham baland bo'yli, keng yelkali kishi. Lekin yoshi qaytib qolgan, oltmishlardan oshgan. Siyrak soqollari oq. Ko'zi yoshlanib tursa ham, kishiga tikilganda badaning jimirlab ketadi.

Bu odam vaqtida katta mergan bo'lgan. Bir otishda o'n bitta kiyikni otgan. Keyin negadir kasal bo'lib, olti oy yotgan. Tuzalib chiqqach, merganlikni tashlagan.

Mana, yana boshlabdi chog'i, nevarasi aytди, kecha ayiq otib kelgan mish!

Qodir podachi shilpiq ko'zlarini suzib iljaydi.

– Cho'ldan birga qaytib keldik, polvon. Yo'lda ko'r-mabmiz-da, a?

– Ha, – dedilar otam tumshayib. – Xurjunda edi.

– Endi bir ko'rsak bo'ladi mi?

– Bo'ladi, nega bo'lmasin?

Otam menga ishoga qildilar. Men uydan gazeta bilan non olib chiqdim. Bostirma og'zida turib gazetani yondirdim.

– Bah, bah! – dedim. – Qoraboy, ma, non!

Oxurga kirib olgan it g'ingshidi. Joyidan jilmadi. Gazetani olib boshiga bordim. U ko'zlarini yaltiratdi. Oldiga nonni tashlovdim, hidladi. Shunda itning bo'ynidan mahkam ushlab ko'tardim. Ayvonga olib chiqib keldim.

– A-ha, – dedi Qodir podachi itni qo'liga olib tomosha qilarkan. – Tuzuk-tuzuk. Naq apcharkanining o'zi. Aytganingiz rost, polvon, – u menga qaradi. – Ot qo'ydingmi bunga?

– Qoraboy, – deb to'ng'illadim. – Qoraboy.

U mayingina kulib qo'ydi.

– Shundayde. Tuzuk-tuzuk, – nihoyat, u Qoraboyning oyoqlarini, ko'kraklarini paypaslab ko'rди, ko'ziga tikildi. So'ng allanechuk xo'rsinib, menga uzatdi.

Men itni ko'tardim, ketmoqchi bo'lувдим, podachi to'xtatdi:

– Sabr qil, – u otamga o'girildi. – Polvon, men sizni hamma vaqt rostgo'y odam, deb o'ylab yuraman.

Otam podachiga yomon qaradilar.

– Nima demoqchisiz?

– Bu bizning Qoraboyning bolasi, – dedi Qodir podachi. – Mana, ko'rini turibdi. Orqasi qora bo'lsayam dog'li. Buning ustiga, o'zingiz ham yaxshi bilasiz, bul tur Qoraboyni qishloqqa tashlab ketgan edim. Qari bo'lsayam baquvvat, zo'r it edi. Atrofda ovchilar ko'paygan. Bo'rilarni qirib yuribdi. Ovchi degani, avvalo, erkak bo'rini otadi, to'g'rimi?

Otam miq etmadilar. Podachi so'zida davom etdi:

– Ona bo'ri qoladi. Shunday bo'lgandan keyin u bechora qishloqqa tushib kelganda...

- Shundaymi? - dedilar otam. - Bu it meniki deng hali?  
O'choq boshida kuymalanayotgan onam burildilar.  
- Hech ham bu kishiniki emas-da. Siz itdan kech-gansiz, Qodir aka! Gapni ko'paytirmang.

- Itdan kechgan bo'ssam, - iljaydi podachi, - uning naslidan kechmagandirman? Omadlaring kelib, bo'ri sizlarning bostirmada tug'gan. Shuning uchun buning egasi o'zimiz, deb turasizlarmi?

- Ha, - dedilar onam. - Buning egasi biz bo'lamiz. Anavi bola! Nuraliniki bu!

- Qiziq, - podachi kulimsiradi. Tag'in Qoraboyga zehn soldi. Keyin nevarasining boshini silab xo'rsindi, menga: - Mayli, opketaver, - dedi.

Men Qoraboyni quchoqlab, pastga tushib ketdim. Ichkariga qo'yvorib qaytib kelganimda, mehmon bilan ota-onam orasidagi boyagi kayfiyat ko'tarilganga o'xshar, ular ancha inoq gaplashishar edi.

- He, - dedi podachi. - Tabiat g'alati!

- Ayiq otibsiz deb eshitdim, - dedilar otam.

Podachi nevarasiga qarab kuldi.

- Bolalarning ichida gap yotmaydi-da. Rost, birovini otdim, polvon.

- O'rmonchilar bilsa, gap qilmaydimi?

- Sizlar xabar bermasalaring qaydan biladi?

Otam choynakdan piyolalarga choy quydilar. Podachi choyning yarmisini ichdi-da, yarmisini to'kib tashladi.

- Gap shunday, - dedi. - It sizniki ham emas, meniki ham. Mundayroq qilib aytsam, ikkovimizniki.

Otam xo'rsindilar.

- Xo'sh?

- Shundoq ekan, bizni rozi qilasiz.

- Yo'q-yo'q! - birdan baqirib yubordi Otaqul. - Menga Qoraboyni olib berasiz. Qoraboy meniki!

- Seniki bo'lib bo'pti, - dedim men.

- O'g'lim, undan umidingni uz, - dedilar otam ham Otaqulga.

Otaqul piqillab, yuzini bobosining biqiniga yashirdi. Bobo uning yelkasiga urib:

- Xafa bo'lma, - dedi. - Murosa qilmasak bo'lmas ekan, nabiram. Xo'sh, polvon, bizni rozi qilasizmi? Yo miltiqni olib kelib, sizga ham yo'q, menga ham yo'q, deb otib tashlaymi?

- Shunday qilsangiz, - bo'g'ilib dedilar otam, - mendan ham xafa bo'lmaysiz keyin.

- Men ham shuni aytyapman-da, - kului podachi. - Bir-birimizni xafa qilmaylik.

- Tilang. Nima beray?

- Himmatingiz biladi.

Onam jahl bilan bir nimalar deb, uyga kirib ketdilar. Bitta kuchukbola ustida bunchalik gap-so'z bo'lgani sizni hayron qoldirsa kerak. Lekin siz ham Yetimtog' etagidagi darada joylashgan Saroytosh qishlog'ida yashaganingizda yoxud suruv-suruv qo'y boqib, tog' etaklari-yu, bepoyon cho'llarda yurganingizda, bitta itning qadri qanchalik bo'lishini mendan ham yaxshiroq bilgan bo'lardingiz.

Yaxshi it - cho'ponning do'sti, qo'riqchisi, dastyori. It bo'lmasa, mol deganini qo'rada saqlash ham mahol.

Otamning so'zidan ma'lum bo'ldiki, Qoraboyimiz juda zo'r it bo'ladi! Unda anavi ko'ppaklarning ham keragi bo'lmay qoladi! Otam sekin o'rinalidan turib, toshzinadan pastga tushdilar. Uy ortiga o'tib ketdilar. Birpasdan keyin bir uloqning bo'ynidan ushlab, sudragancha ayvon pastiga keltirdilar.

- Bo'ladimi shu? - dedilar.

Qodir podachi tizzalari shiqirlab o'rnidan turdi. Pastga tushdi. Uloqning quymuchini g'ijimlab ko'rdi-da:

- Agar shu kuchukbachcha o'zimda bo'lib, siz so'ra-ganizingizda, ikki qo'y berardim, - dedi.

Otam yoniga burilib, yerga tupurdilar va:

- Yo'ldan qolmang endi, - dedilar.

Qodir podachi nevarasini yoniga olib, qorong'ilikka kirib ketdi. Otaqul piqillab, yig'lab borardi. Otam qovoqlarini solgancha ayvonga chiqdilar. Joylariga o'tir-dilar. Onam ham vaysab-vaysab chiqib keldilar.

Nihoyat, otam:

- Shunday bo'lismeni bilardim, - dedilar. - O'g'lim, endi itni yaxshi tarbiya qil. Xo'pmi? Bir uloqqa arziy-digan bo'lsin. Agar it bo'lmay qolsa, bir emas, o'nlab uloqning boshini yeb, gumdon bo'ladi.

Men harqalay xursand edim. Onam bilan otamning kechagi gaplaridagi sir ham endi menga ayon bo'lgan edi.

### = III =

Qoraboyni birovlardan sir tutishimga hojat yo'q edi. Ertasi kuni tag'in sinfdoshlarim kelishdi. Men ularga kuchukbolaning sirini - otasi it-u onasi bo'ri bo'lganini ham aytib berdim. Ular juda hayron qolishdi.

- Haqiqatan ham, zakaz qildik, deganingcha bor ekan, - dedi Shoberdi.

Qoraboy birpasda hammamizning sevimli ovunchog'imizga aylanib qoldi. Kech tushmay, sinfdoshlarimdan ikkitasi unga uylaridan go'sht o'g'irlab keldi. Haqiga kuchukbolani bir-ikki silashga ruxsat berdim.

Indiniga o'qituvchimiz Egamberdi akaga ham it haqidagi gap ochdim. U kishi:

- Gap uning onasi bo'ri bo'lganida emas, - dedilar. - Bo'rilar ni qo'lga o'rgatib olganlar ham bor jahonda. Bo'ri odamga o'rganmaydi, baribir o'rmonga qochadi, degan gaplar yolg'on bo'lib chiqdi. Lekin Qoraboyni o'zingga

chinakam do'st qilishing uchun unga o'zing ham do'stlik qil! Unga mehr qo'y. It tugul undan besh battar hayvon ham mehr nimaligini his etadi.

Bu o'gitni sira unutmaslikka so'z berdim.

Kunlar o'ta boshladi. Sahar turib, Qoraboydan xabar olaman. Ovqat berib, suv berib, silab-siypab o'tiraman. So'ng bostirmadan olib chiqib, soylarning bo'yida aylan-tiraman. Keyin yana joyiga kiritib qo'yib, mактабга ketaman. Saboqni olib kelib, uy ishlariga qarashaman.

Bir kuni uni bostirmadan chiqarayotgan edim, ipi qo'limdan chiqib ketdi-yu, tashqariga ura qochdi. Qo'rqib ketdim: ketib qolsa-ya!

Yo'q, u qochib ketmadi. Chopa-chopa olcha tagiga bordi-da, xuddi daraxtga bog'langandek cho'zilib, yotib oldi. Yaqiniga borsam, irg'ib turib, soyga qarab chopdi. Yana qo'rqib ketdim. Lekin shunda uning men bilan o'ynashayotganini fahmladim. Shu oqshom otam maslahat berdi:

- Itni bo'sh qo'y endi, o'g'lim. Zanjirga o'rgansa, odamni yomon ko'rib qoladi. Qo'y, odamlarga o'rgansin!

Men Qoraboyni bog'lamaydigan bo'ldim.

Odam quvonib ketar ekan deng! Yarmi bo'ri shu hayvonning! Buni juda yaxshi bilaman. Dikkaygan qu-loqlari ham uning qishloq itlaridan farq qilishini aytib turibdi. Lekin qarang, u bo'sh yuribdi! Bemalol ayvonga chiqib keladi. Mактабга jo'nasam, orqamdan ergashadi. Lekin men uni maktabga olib bormayman. Negaki... anavi Otaquldan gumonim bor.

Odamlar qiziq bo'lar ekan-da! Chala bo'rining dovrug'i kattalarning ham qulog'iga yetdi. Keksalardan bir-ikkitasi kelib, ko'rib ham ketdi. Ammo ba'zilari bizza o'xshab fikr qilishmabdi, chog'i.

Oqshom ayvonda o'tirishganda, otam:

- Oqsoq boboning ko'zi yomon! - deb qoldilar onamga. - Qoraboyni ko'ribdi. Allanimalar deb karamat qilibdi.

- Nima debdi? - so'radilar onam.
- Ey, axiri, birortaga shikast yetkazib ketadi, debdi.
- Og'zidan chiqib, yoqasiga yopishsin shu gapi! - dedilar onam qarg'anib.

Onamning qarg'ishi menga yoqib ketdi. So'ng o'zimcha mulohaza qilib, Qoraboyning dushmani uch kishi deb o'yladim: bittasi Otaqul. Ikkinchisi - uning bobosi Qodir podachi. Uchinchisi - Oqsoq bobo.

Bahor avjiga chiqdi, so'ng asta-sekin yoz boshlana ketdi. Adir betlaridagi o't-o'lanlar sarg'aydi. Kakliklarining ovozlari onda-sonda eshitiladigan bo'lib qoldi. Chunki kakliklar ham boshqa qushlarga o'xshab tuxum bosa boshladи. Tuxum bosib yotganda ular kam sayraydi. Sayrasa ham xo'roz kakliklar saharda yoxud kechasi oy yorug'ida sayraydi.

Shunday kunlarning birida bir narsani payqab qoldim. Qishloqning itlari Qoraboyga yotsirab qarashar ekan. Ayniqsa, qo'shnimizning Ko'kttoy degan kallasi katta, dumি chala kesilgan iti Qoraboyni ko'rgan yerida ta'qib qilarkан.

Maktabdan kelsam, Qoraboy yo'q.

- Ena, it qani? - deb so'radim.
- Shu atrofda. Qo'ra tarafga o'tgan bo'lsa kerak, - dedilar onam.

Uy orqasiga o'tsam, ne ko'z bilan ko'rayki, Qoraboy bechora qo'raning devori tagida, burchakka tiqilib turibdi. Ko'kttoy uning ro'parasida: chala kesilgan dumini gajak qilib, bo'yin junlari hurpayib, uni tomosha qilayotganga o'xshaydi. Qoraboy meni ko'rdi-yu, - hayron qoldim, - Ko'ktoyning bo'yniga chovut soldi-ku! Ga-

ngib qolganimdan ovozim chiqmadi. Ko'ktoy sarosima-ga tushib, nariga sapchidi... Burila solib Qoraboyning ustiga otildi, tappa bosib talay ketdi.

Men qo'limga ilingan tosh, kesakni otib baqirdim va Ko'ktoyni haydadim. Qoraboy g'ingshib, quloqlarini yalab yonimga keldi. Ko'tarib olib qarasam, yaramas it Qoraboyning qulog'idan tishlagan ekan.

Shu-shu, unga ko'z-quloq bo'ladigan bo'ldim. Bir-ik-ki marta maktabga ketayotib, bostirmaga qamovdim, otam tag'in urishib berdilar:

– Unaqa qilma! Qo'y! It degani talashadi-da.

Ha, it degani talashadi, deb o'yladim. Lekin Qoraboy-ga ziyon yetmasligi kerak-da.

Qoraboy juda tez o'sar edi. Yozning oxiriga borib, tappa-tuzuk it bo'lib qoldi. Oyoqlari uzun. Tumshug'i ham cho'ziq. Yengil yuradi. Chopganda oyog'i yerga tegmaydiganday tuyuladi. Lekin qishloq itlaridan o'zi-ga yomon qaraganining dodini bera boshladi. Natijada Qoraboy to'g'risida har xil gaplar ko'paydi.

Oqsoq chol, «boshlandi», debdi. Yana kimdir: «Mening itimni talasa, igna berib o'ldiraman», deb qasam ichibdi.

Men Qoraboya harchand ko'z-quloq bo'lmay, bir kuni kechasi uyimiz orqasida to's-to'polon bo'lib qoldi. Otam bilan ayvon ustuniga osilgan fonusni olib, uy orqa-siga o'tdik. Unda Qoraboy Ko'ktoyni tagiga bosib olib talar, jag'i uning bo'yniga yopishib qolgandek edi. Otam fonusni menga berib, Qoraboyning orqa oyog'idan tortdi. U anchadan keyin Ko'ktoyning bo'ynini qo'yordi. Ko'ktoy vangillay-vangillay, oqsoqlanib ketdi.

Ertasiga uning egasi uyimizga kelib, rosa janjal ko'tardi. Qoraboyni bostirmaga qamab qo'yishimizga to'g'ri keldi. Endi itdan o'zimiz ham xavfsiray boshlagan

edik. To'g'ri-da, qishloqning manaman degan iti ham bu yoshgina itdan shikast yedi.

Otam bir kuni:

- Nima bo'lyapti o'zi? - dedilar. - Ayb Qoraboydami-kan?

- Qoraboyning aybi yo'q, - dedim men. - Boshqa itlar o'zi shunaqa. Buni ko'rди deguncha tishini ko'rsatadi.

Bu gapim haqiqatan ham rost edi.

- Yo'g'asam, qo'yvor. Bo'lgan ish bo'ldi, - dedilar otam.

Men quvonib ketdim. Bostirma eshigini ochishim bilan Qoraboy otilib chiqib, menga oldingi oyoqlarini ko'tarib sakradi. Yoshgina kuchukboladek yerda dumalab-dumalab o'ynadi.

Biz yana nimadir bo'lishini kutar edik! Lekin... hech narsa bo'lmasdi. Ha, hech gap chiqmadi ham. Chunki Qoraboy, mening fahmimcha, qishloq itlarini qo'rqtib bo'lgan, ular Qoraboyni ko'rganda tishini ko'rsatmas edi.

Kuz yaqinlashib qoldi. Bizning hisobimizga qaragan-da Qoraboy bir yoshga to'lgan edi<sup>2</sup>. To'g'ri, u hali juda yosh edi. Kuchi ham kam edi-yu, lekin juda epchil edi.

Saroytoshdan cho'lga ana ko'chamiz, mana ko'chamiz, deb turgan kunlarimiz, Yetimtog'dan sovuq shamollar esa boshlagan edi. Kechasi g'ala-g'ovur bo'lib qoldi. Tashqariga chiqsak, yiroqda, xirmon yanchiladigan joyda odamlar to'planib turishibdi. Shu payt qishloqning narigi chekkasida miltiq otildi.

- Bo'ri! Bo'ri oralabdi qishloqqa! - dedi otam.

Men beixtiyor qo'rqb, titray boshladim.

- Qoraboy! Qoraboy! - deb chaqirdim.

Itdan darak yo'q edi. Nima balo, bo'rilarga qo'shilib ketib qoldimi? Nahotki? Menga o'rgangan edi-ku! Sinf-

<sup>2</sup> Itlar olti oyda bir yoshga to'ladi.

doshlarim ham uni yaxshi ko'rib qolgan edi. Onam, otam ham. Nima jin urdi uni? Ketib qolmasligi kerak!

Otamga ergashib, men ham pastga tushdim. Odamlar yoniga borishimiz bilan, o'rtada hassasini do'qillatib, baqirib-chaqirib gapirayotgan Oqsoq chol bizni ko'rsatib, vaysay ketdi:

– Umrim bino bo'lib, bo'rining munday qilig'ini birinchi ko'rishim! – baqirdi u. – O'choq boshiga ham keladimi, a? O'zlarинг aytinglar! Hech-da! Odamning isidan qochadi yo'lbars ham! Bu bo'rilar bo'lsa, naq uyimizgacha bostirib keldi.

– Ochiqqan. Qish tushyapti, – dedilar otam. – Shikast yetkazmadimi ishqilib?

– Hali bitta-yarimta qo'yni bo'g'izlab ketishi ham kerakmidi, polvon? Hayf sizga-ye!

– Sekin, – dedilar otam to'ng'illab. – Men nima qilibman, axir?

– Hali bilmaysizmi? – qariya otamga yaqin keldi. – Axir bo'rilarining mundoq bostirib kelishini nimadan ko'rasiz? Masiqqan emish-a... Odamlar, eshityapsizlarmi? Mana, men sizga sababini aytib beraman bo'lmasam. Siz uyingizda tus bo'rini saqlab yuribsiz! Bo'ringiz qishloq itlarini qo'rqitib qo'ydi. Qishloqning hamma teshik-tuynugini biladi.

– Nima, bo'rilarni o'sha boshlab kelgan deysizmi? – jahllari chiqib ketdi otamning.

– Bo'lmasam-chi! – chinqirdi chol. – Bo'lmasam-chi! Ana, o'zingiz ham bilar ekansiz. Chiqaring bu yoqqa Qoraboyingizni!

Men yig'lab yubordim.

– Yo'q, – deb gapga aralashdi chetda turgan Qodir podachi. – O'ldirishning keragi yo'q. Boshqa yo'lini topish kerak. Jonivor Qoraboy juda chiroyli it bo'lgan. Aytmoqchi, o'zi qani, shu yerdami?

- Yo'q, - dedilar otam.

Oqsoq chol qah-qah otib kului.

- Albatta, yo'q bo'ladi-da! U allaqachon bo'rilarga qo'shilib ketdi! Ana, o'zimizning vafodor itlar! Turishini qarang!

Otam gangib, nari-berida lab-lunjini yalab, asta-asta hurib qo'yayotgan itlarga qaradi. Chog'imda, ularning gapini inkor etish uchun otamda asos yo'q edi.

- Bo'pti, - dedilar u kishi, nihoyat. - Agar bo'rilar ga qo'shilib ketgan bo'lsa, bo'ldi... Shu yerda so'z berib aytaman, uni otib o'ldiraman. Lekin bo'rilarni boshlab keldi, degan gapingiz chakki, oqsoqol! Shoshmang-da!

- do'q qildilar otam cholga. - Quloq soling siz ham. Qoraboy bo'rilar galasida o'sganda o'shalarni boshlab keldi desangiz, birov ishonardi! Hozir undan buni kutish insofdan emas. Mana, bilgich odamlar aytsin!

Yana g'ala-g'ovur boshlandi. Asta-sekin mulohazalar aytilla boshlandi. Nihoyat, Oqsoq cholning gapi inkor etildi.

Ammo bir hol ularni ham o'ylatib qo'yganini sezdim: Qoraboy qaytib keladimi-yo'qmi?

Men vahimaga tushib qolgan edim, battar bo'ldim: qiziq, nahotki qaytib kelmasa? «Shoshma! Nega buncha hovliqasan? - dedim o'zimga o'zim. - Balki Qoraboy shu atrofda yurgandir?»

Uni qidirib ko'rish kerak.

Otam ham shu fikrga kelib qo'ygan ekanlar. Qishloqni keza ketdik. Orqa tarafdag'i olis daralarga ham borib keldik. Etak tarafga o'tib, soy chiqib ketayotgan joygacha bordik, Qoraboydan darak yo'q edi.

Xomush bo'lib, charchab uyg'a qaytdik.

Ertasi tong otishi bilan otam tag'in Qoraboyni qidirib ketdilar. Men ham nari-beridan uni izlagan bo'ldim-

da, mактабга jo'надим. Bugун мактабга боришим зарил – oxирги дарс bo'lishi kerak edi.

Keyin... cho'lga ko'chib borganimizdan keyin o'qishni u yoqda davom ettiramiz. Cho'lda ferma mudirining уи yонида мактабимиз bor. Oppoq qilib oqlangan. Sinf-xonalari ham ko'p.

Chorvadorning kuni shunaqa bo'lar ekan-da, do'stlar.

Maktabda ham duv-duv gap edi: «Qoraboy bo'rilarga qo'shilib ketib qolibdi!»

Egamberdi aka shoshilmasdan dars o'tdilar. Keyin bizning cho'ldagi o'qishimizga muvaffaqiyat tiladilar. Kelasi yilgacha, aniqrog'i, kelasi bahorgacha, deb xo'shlashgan ham bo'ldilar-da, oqibat:

– Men bir gap aytaman sizlarga, – dedilar. – Nuralining itini bo'rilarga qo'shilib ketganiga ishonmayman! Bo'rilarga qo'shildi, degandan ko'ra, ularga yem bo'ldi, degan gap haqiqatga yaqinroqdir.

Men ko'zimga yosh oldim.

– Yo'q, u kuchli! Bo'ri yeysolmaydi uni!

– Shundoq bo'lsa, – davom etdilar o'qituvchimiz, – hammamiz bir bo'lib, uni izlashimiz kerak... To'g'rimi?

– To'g'ri! – dedim men.

– Qani, turinglar endi.

Tashqariga chiqdik. Egamberdi aka atrofga ko'z yugurrib, kecha bo'rilar tushib kelgan tomonni chamaladilar. So'ng xirmonjoyga borib, itlar bo'rilarни quvganida qay tarafga ketganini surishtirdilar. Nihoyat, yo'lga tushdik.

Gapning qisqasi, qishloqqa tushaverishda bir o'yiq joy bor. Toshlari ham, tuprog'i ham qizg'ish. Xuddi vayronazorga o'xshaydi. O'sha yerdan o'tayotib, tuproqda etik izlarini ko'rib qoldik.

Egamberdi aka izni qoralab, uch-to'rt qadam bosdilar-u, to'xtab qoldilar. Menga qarab jilmaydilar. Men u kishining yoniga chopib bordim.

Otam cho'nqayib o'tirar, oldida Qoraboy itimiz cho'zilib yotar, undan narida ko'kish bir nimaning gavdasi ham ko'rinar edi. Borsak, ko'kish narsa o'rtacha kattalikdagi bo'ri ekan. Kekirdagi uzilgan, o'lib, qotib qolgan. Qoraboyning ham bo'yni jarohatlangan, lekin ko'zlari ochiq, og'ir-og'ir nafas olib yotardi. Yig'lab borib, bo'ynidan quchmoqchi bo'ldim. Otam qo'ymadilar.

- Shoshma! - dedilar. Keyin itni dast ko'tarib olib, yo'lga tushdilar. - Anavini sudranglar, bolalarim!

Men hamon yig'lar edim. Quvonibmi, itimga qayg'uribmi, bilmayman. Bo'rini so'ka-so'ka bir oyog'idan ushladim. Sudrab ketdik. Tikanli joyga yetganda, Egamberdi aka:

- Sudramanglar, terisi buziladi. Ko'taramiz, - dedilar.

Shunday qilib, otam oldinda, biz orqada qishloqqa tushib bordik.

Odamlar bizni olisdan ko'rishgan ekan. Xirmonjoyga yetib kelganimizda, atrofimizni xotin-xalajgacha o'rab olishdi. Ular itni maqtashar, bo'ri bilan Qoraboy orasidagi jang juda qattiq bo'lganini gapirishar edi.

- Mana, Qodir aka, - dedilar otam, - mana bo'riga qo'shilgan bo'rining ishi!

Podachi siyrak soqolini silab, kulimsiradi. So'ng asta kelib, Qoraboya tikildi va bosh chayqab qo'ydi. U ham itga achindimi yo boshqa narsagami, bilib bo'lmashdi.

Qoraboyni uya opkelib, ayvonga yotqizdig. Yarasiga bargizub qo'yib, otquloq bosdik. Keyin otam ombordan mushtdek karch dumba olib chiqib, itga yedira boshladilar.

- Go'sht bering, ota, go'sht, - dedim.

- Dumba yaxshi, - dedilar otam. - Bo'ri bilan talashgan bu. Dumba yemasa, jag'i qarishib qoladi. Rasmi shu.

Maydonga qaytib bordim. Haliyam odamlar tarqalishmagan. Endi qishloq itlari ham o'ralashib yurar,

terisi shilinayotgan raqiblariga xo'mrayib qarashar edi.  
Bo'rining terisini Qodir podachi shilmoqda edi.

U terini shildi-da, bir kaltakka ilib, menga uzatdi.

- Ol, ko'tar! Qishloqni aylan!

Tog'da ham, cho'lda ham shunaqa odat bor. Kimning iti bo'rini olsa, shu bo'rining terisini shilib, mana shunaqa yog'ochga ilishadi-da, qishloqda uyma-uy yurishadi. Shunda odamlar himmatiga qarab bir nima hadya qilishadi, qo'y-echki beradiganlari ham bo'ladi.

- E, men ko'tarolmayman, - dedim.

Qiziq, Qodir podachining o'zi ko'tarib oldi.

- Duo bering, ota, - dedi Oqsoq cholga. - Bir aylanay-chi! Axir, shu bo'rini olgan it, uyog'ini so'rasangiz, mening itim. Ha... O'tgan yili qishloqda qoldirib ketgan itim Qoraboyning bolasi!

- Ho-ho? - dedi hovliqib Oqsoq chol.

Biz, yosh bolalar u kishiga ergashdik. Men yo'l-yo'lakay: «Bizning it olgan bo'ri!» deb baqiraman. Qodir podachi iljayib qo'yadi. Shu odamning iljayishini yomon ko'raman-da. Hamma vaqt iljayganda ko'nglida boshqa niyati bo'ladi.

Uch uloq, bitta qo'y tushdi. Podachi qo'y bilan bir echkini biznikiga tashlab, ikkita uloqni uyiga olib ketdi.

Ikki kundan keyin biz cho'lga ko'chdik.

Qoraboyning bo'rilar bilan qanday uchrashgani, o'shanda o'zini qanday tutganini bilmayman. Ammo bitta narsaga amin bo'ldim: bu chala bo'ri odamning do'stiga aylangan edi.

#### = IV =

Cho'l!.. Cho'lning ham o'z gashti bor, zavqi bor!  
Cho'lda kishini dastlab hayron qoldiradigan va kishi qalbini allaqanday sokin, mo'tadil tuyg'ularga to'ldiradigan narsa - uning kengligi! Atrofga qarasang, ko'zing hech

narsani ilg'amaydi. Yursang, qadaming qisqa, yo'ling o'ngmagandek tuyuladi.

Biz nishab betdan pastda yastanib yotgan sayhonlikda o'tov tikamiz. Albatta, bu yerda ham o'tovlarni faqat ayollar tikishadi. Shuni aytishim kerakki, bizning o'tov qozoqlarning o'tovidan farq qiladi. Qozoqlarning tepe-siga sidirg'a kigiz yopilgan o'tovi bizning kapalarni eslatadi.

Bir zum tasavvur qiling: hu, u yerda bitta o'tov, yonida kapasi bor. Undan narida yana bir o'tov, uning ham yonida kapasi bor. Keng sayhonlikda o'tovlar va kapalar shunday sochilgan. Har bir o'tov oldida o'choq, yer tandir. Nariroqda atrofi chipta devor bilan o'ralgan qo'ra.

Biz sayhonlikka tushganda, unda hech narsa yo'q, faqat bulturo'tov tikilgan joylarda aylana iz va unda-bunda yerdan sug'urib olimmay qolib ketgan qoziqlar turar edi. Tushga yaqin sayhonlik odamlar yashaydigan bir maydonga aylandi.

Qoraboyni yo'lda otam bir necha marta eshakning oldiga o'ngarib, besh-to'rt chaqirimlab dam berar edi.

Uni o'tovimiz orqasiga o'tkazdim. U cho'zilib yotdi. Oldingi oyoqlarini uzatib, tumshug'ini qo'ydi. Xotir-jamlik bilan menga tikildi.

Negadir yig'lagim kelib ketdi: bu o'zi hayvon. Ustiga-ustak, yarmisi bo'ri. Nega bunchalik yaxshi ko'rib qoldim uni? Menga buncha sadoqat bilan tikiladi. Qiziq, uni hozir g'oyibdan kelgan bir kuch olib ketib, yovvoyi, kimsasiz tog'lar orasiga oborib tashlasa, o'zini qandoq his qilar ekan? Hayron bo'lib qolsa kerak. U yoqdan bu yoqqa yelib-yugursa kerak. Juda xafa bo'lsa kerak.

Ha, yovvoyi hayot... endi unga begona! U odamlar orasiga o'rgandi, ularga mehr qo'ydi va chamasi, o'zing o'tmishini ham, kelajagini ham bilmagan holda, mavjud hayotni bor bo'yicha qabul qildi.

- Qoraboy, Qoraboy! - dedim.

U sergaklanib boshini ko'tardi. Qarasam, qo'ra-ning narigi tarafidan uchta it bir-birini quvlashib, o'tib ketyapti. Bittasi o'sha Ko'ktoy!

Qoraboy hamma vaqt Ko'ktoyni ko'rganda, unga yomon-yomon qarab qo'yari, Ko'ktoyning ham bir kunmas bir kun Qoraboydan qasd olish niyati borligini sezardim.

«Ishqilib, shu kunlarda talashmasin-da, - deb o'yladim. - Hozir Qoraboyning talashgudek holi yo'q!»

Kech bo'ldi. O'tovlarda yana lampa chiroqlar yondi. O'choqlarda o't alangasi ko'rindi. Odamlar ichkariga kirib chiqadi, tevarak qo'y-qo'zilarning ma'rashiga to'lib ketgan. Atrofni kuzatib o'yladim: «Xuddi bir necha yildan beri shu yerdan qo'zg'almay yashayotganga o'xshaymiz!»

Kimdir nimaningdir maslahati uchun otamni charib ketdi.

Onamdan so'radim:

- Qoraboyni nima qilay? Tashqarida yotsa, qo'rqa-man.

- Parvo qilma, bolam, - dedilar onam. - Itingga ishona ber! Manaman degan itlar ham yurak yutib, unga doviy olmaydi endi.

- Ko'ktoy. Ko'ktoy-chi?

- Ko'ktoy ham it bo'ptimi?!

Otam kelganlarida, u kishidan ham Qoraboyni qayerga yashirib qo'ysam bo'ladi, deb so'radim.

- Bostirma Saroytoshda qolib ketdi, - deb kuldilar otam. - Qo'y endi. O'zimiz xabar olib turamiz.

Kechasi bir mahal uyg'onib ketdim. Tura solib, tashqariga chiqdim. Qoraboy ko'rinmad. Yuragim qinidan chiqay deb turganida, ko'rdim. Etakroqda, oppoq oy nurida cho'nqayib o'tirar, atrofga sokin, ulug'vor nazar

tashlar edi. Yoniga bormoqchi bo'ldim-u, biroz kuzatgim keldi. Qarasam, u yiroqdagi Yetimtog'ga tikilib turibdi!

«Bu uyimizdan uzoqqa ketmaydi, – deb o'yladim. – Tog'ga o'rgangan. Cho'lda o'zini begona sezyapti. Shuning uchun uyimizdan nariga ketmaydi!» Bu fikr menga ancha tasalli berdi. Uyga qaytib kirdim.

Tush ko'rdim... Qoraboy men bilan yonma-yon yurgamish-u, negadir gapirarmish: «Anavi yerda nima bor?» deb so'rarmish. Men ham erinmasdan cho'ldagi har bir narsani ko'rsatib, tushuntirib yurganmishman.

«He, uzoqda ikki tup jiyda bor. Uzoq yili shu jiydaning ostida ikkita bo'rini ko'rganmiz...» Shunday deyayotgan ekanman, qulog'imga qandaydir uvlash eshitildi.

Uyg'onib ketdim. Yonimda otam yo'q. Tashqarida nimadir «tap-tap» etdi. Irg'ib turdim. Eshikka tutilgan yopinchiq sirg'anib, tushib ketdi. Chiqsam, otam kapaning yonida turib, atrofga qarayaptilar. Orqamdan onam ham chiqib qoldilar.

– It yo'q, – dedilar otam tashvish bilan. – Uvlayapti bir narsa. O'shamikan?

Shunda uchalamiz ham bir qir naridagi Devkamar tomonidan xuddi bo'rining uvlashiga o'xhash tovushni eshittdik. Otam Yugura ketdilar. Men ham orqalaridan chopdim. Onam allanarsa deya tayinlab qoldilar.

Cho'lda mana shunaqa joylar ham uchraydi: quvragan xas-xuslarni bosib boryapsiz deylik. Shunda birdan yassi, silliq tovatoshlar ustiga chiqib qolasiz. Ular yer bilan baravar, ancha joyni ishg'ol etib yotadi. Ana shunday tovatoshlarning kattasi bor edi. Narigi tarafi chuqur tushgan jarlik bo'lib, jar tubida bitta buloq qaynab yotar, jarning soyasida ikki yuz qo'y soyalab yotishi mumkin edi.

Devkamar ana o'sha joy.

Biz jarlik labiga yetib to'xtadik. Otam pastga qaradi-yu, nishab betda sirg'ala-sirg'ala tusha boshladidi. Pastlikda buloq suvi yaltirar, jarlikning soyasi ancha joyni egallab yotar, soyada qandaydir itlarning qorasi ko'rinar edi.

Otamning ketidan men ham otilib tusha boshladim. Biz yaqin bormasimizdan itlar tarqala boshladidi. O'rtada Qoraboy... Mening yig'lagim kelib ketdi: bu nima hol? O'zining ahvoli qandoq edi! Qaniydi, shu itlarni bitta qo'y may qirib tashlasam!

Shu payt deng tepadan bir kampirning ovozi keldi:

- Nima bo'pti, Eshali?! O'libdimi?

Otam tepaga qaradilar.

- E! - dedilar jahl bilan va engashib, itning u yoq bu yog'ini paypaslab ko'rdilar. Yerda ko'lmak bo'lib yotgan qonga ko'zim tushib, ko'nglim g'alati bo'lib ketdi. Chin-qirib yig'lay boshladim.

- Qo'y, qo'y, - dedilar otam. U kishi ham titrar, lekin o'zlarini zo'rg'a bosib gapirar edilar. - Umri uzun bo'lsa qoladi, yo'g'asam, o'ladi, - u kishi sukut qildilar. - Shunday bo'lishini sezardim-a, o'g'lim. Bu itlarni nima qilsang bo'ladi?

- Nega Qoraboy bu yerga keldi? - dedim.

- Nima qilsayam it-da, - dedilar otam.

So'ng Qoraboyni ko'tarib oldilar. Bir-bir bosib, tepalikka chiqa boshladik. Chiqib borsak, boyagi ovoz bergen ayol quruq yerga o'tirib olib, tizzasiga mushtlayshti:

- Yer yutsin uni! U jallo!

- Kimni qarg'ayapsiz?

- Kimni bo'lar edi, cholimni-da, - dedi kampir.

Bu kampir Qodir podachining xotini edi. Bir vaqtlar podachi buni qo'yvorib, boshqa xotin olgan, keyin uni ham qo'yvorib, tag'in shu ayolga uylangan, bu ayoldan

farzandi yo'q edi. Lekin biz Oygul kampirni yoqtirardik. Chunki u kishi bizga mehribonlik qilar, qaynatilgan sutning betini olib, cho'pqaymoq qilib berar va bola borki, uni erkalatar edi.

- Nima qildi u sizga? - dedilar otam.  
- O! Eshali! Bunday nokas olamda bitta! Baxtim qur sin mening, - kampir o'rnidan turdi.

Otam oldinda, kampirga savol berar, u orqada qol may javob qaytarib, pildirar edi.

- O'shanda o'n bir kiyikni otib, yotib qoldi. Kiyik dan bitta otsin deyishgan. Unga duvo ketgan. Bu jallod bitta oshnasining o'g'il to'yini kiyik go'shti bilan o'tkazishga va'da bergen ekan. Xo'p, kiyikni otdi. Go'shtini haromxo'r oshnasi halollab ham ketdi. O'zi yotib qoldi. Keyin ham...

- Devkamarga nimaga keldingiz? - so'radi otam.  
- O'shaning izidan keldim-da!  
- Qodirbooningmi?  
- Ha-da! Shu it qo'llaringga tushibdiki, tinchi yo'qol gan. Xo'p deyavering. «Qo'ying endi, ular boqib katta qilyapti», deyman. Gapimga quloq solsa-chi! Juda xavfsirab yurar edim... O, bu yer yutkur ovni tashladim, degani bilan kunora bir narsani otmasa, ko'ngli joyiga tushmas edi... O'shanda o'zi kasal bo'lib yotibdi deng, bultur shu yerda. Qish qattiq kelmadimi, esingizda bor, qor qalin tushdi. Jonivor kakliklar tog'dan pastga qarab enishdi. Yaxshi odamlar ularga don sochdi. Bu bo'lsa... Men kapada edim. O'tovga kirsam, u yo'q. Tashqariga chiqdim. Yo'q! Qarasam, qorda sudralib ketibdi. Orqasidan chopdim. Bir chaqirim yurib qo'ygan ekan. «Nima bo'ldi sizga?» deyman. «Kaklikning ovozini eshitdim», deydi. Qo'lida miltiq. Polvon bolam, u yejish uchun otmaydi, yo'q! Otishdan, jonlini jonsiz qilishdan huzur topadi. Oti o'chsin uning!

– Xo'p. Devkamarga nimaga keldingiz? – otam shunday deb to'xtadilar. – Ena, siz bo'larini gapiring.

– Axir, itingizni talatgan o'sha-da!

Men qotib qoldim.

Kampir so'zida davom etdi:

– Uyda o'tirgan edik. Tashqarida itlar g'irillashib qolishdi. Podachi o'lqur chiqdi-yu, quvonib qaytdi. Miltiqni oldi. Orqasidan chiqsam, Qoraboyingiz itlar o'rtasida turibdi. Lekin itlarning unga tashlanadigan si-yog'i yo'q. Bilasiz-ku, barini zada qilgan.

Kampirning gaplaridan shu narsalarni bilib oldim: Podachi miltiqni kampirga bergen-da: «Olkish!» deb itlarni Qoraboya haydagan. Qoraboy o'zini hech bir itga ol-dirmay, ba'zisining bo'yning og'iz solib, qocha boshlagan.

Qodir podachi itning o'tovimiz tomonga ketayot-ganini ko'rib, oldini to'sgan va kaltak bilan urgan. Qoraboy yiqila-surina Devkamarga qarab qochgan. Jar labiga borganda, podachi yana bir urgan, Qoraboy past-ga uchib ketgan.

Shunda kampir yig'lab, orqaga qaytgan. Biznikiga kelib, xabar bermoqchi ekan. Lekin yarim yo'lida «o'ldi-rib qo'yadi», deb yana iziga qaytgan.

– Hozir cholingiz qayerda? – so'radilar otam.

– Uyga ketibdi-da, – dedi momo.

– Ena... buni tinchitay, keyin o'zim o'tib boraman.

Kampir erini qarg'ay-qarg'ay orqada qoldi.

Biz uyga keldik. Itning ahvolini ko'rib, onam ham ko'zlariga yosh oldilar. Otam Qoraboyni o'tov oldiga yetqizib qo'ydilar-da: «Hozir kelaman!» deb qo'shnimizning uyiga kirib ketdilar. Birpasdan so'ng otning dukuri eshitildi.

Otam maktabimizga yaqin joylashgan medpunktga boribdilar. Sap-sariq rusga o'xshash mol do'xtirni bosh-lab keldilar. Doktor itni ko'rib:

– O'lmaydi, – dedi.

Hammamiz yengil nafas oldik.

– Kapani bo'shat! – dedilar otam onamga. – Bunga joy qil.

Itning orqa oyog'i singan ekan, doktor taxtakachlab bog'ladi.

– Yana xabar olaman, – dedi. – Zo'r it ekan. Bir suruv molga arziydigan it.

Otam doktorni yana otga mingashtirib olib ketdilar. Al-lamahalda qaytdilar. Ertalab nonushta qildilar. Nonush-ta ustiga qo'shnilar kelib qolishdi. Kecha nima shovqin, nima gap bo'lganini surishtirishdi. Otam o'ychanlik bilan hamma gapni aytib berdilar. Odamlar Qodir podachini so'kib, otamga zimdan qaray-qaray ketishdi.

Nihoyat, otam chakmonni yechib qo'yib, o'tov biqini-dagi arqonga o'tkazib qo'yilgan zarang tayoqlarini oldi-lar. Onam meni turtib shivirladilar:

– Otang podachini bir nima qilib qo'ymasin, bor. Yana baloga qolib yurmaylik.

Otam meni ko'rib, «qol» deganday imo qildilar.

Men qovog'imni soldim. Otam kapaning ortiga o'tishlari bilan, orqalaridan tushdim. Kapadan burilib o'tsam, ro'paramizda Qodir podachi!..

Otam to'xtab turib qoldilar. Podachi:

– Salom Malaykum, – dedi.

– Men odamning salomiga alik olaman, – dedilar otam.

Podachi bir nafas sukut saqlab, otamga allaqanday iltijo bilan boqdi:

– Polvon, rostini aytaman, – dedi. – Itga mehrim tushib qolgan edi. Qoraboy bo'rini olganidan keyin shunga egalik qilmasam, xotinman, deb qasam ichib edim. Qasam nimaligini o'zingiz bilasiz. Lekin o'ylab ko'rsam, itga egalik qilolmas ekanman. Sizga ham, men-

ga ham bo'lmasin, dedim keyin. Kecha itingiz bizning o'tovga yaqin borib qolgan ekan... Uyog'i nima bo'lgani ni kampirim aytib beribdi sizga. Endi, polvon, ayb menda. Nima tilasangiz, beraman. Meni afv eting... Hali uyimga bir-ikki tanishlar borishdi. Itning omon qolgani ni aytishdi. It o'lganida, bu yerga kelmas edim. Chunki ikkovimizdan... birimiz bir nima bo'lar edik. To'g'rimi?

- Kampiringiz bizga aytmaganda-chi? - o'shqirdilar otam.

- Unda... kim biladi?
- Tonardingiz!
- Bir qo'y beray.
- Qo'yingizni pishirib yeng!
- Qo'lingizda tayoq bor. Meniyam bir-ikki kaltak uring. Hisob-kitobimiz to'g'ri bo'ladi.
- E, sadqayi odam keting! - dedilar otam va burilib orqaga qaytdilar.

Qodir podachi turib qoldi. Men ham u kishini nimadir deb so'kdim. Orqaga qaytayotgan edim, u kului.

- Itingni birinchi talagan Ko'ktoy bo'ladi. Ko'ktoyni bilasanmi?

«Ha-a, Ko'ktoy!» deb o'yladim va negadir uni o'ldirishga qasd qildim.

Qodir podachi ham qaytib ketdi. Uyga kelsam, otam, orada hech narsa bo'lmagandek, buzilgan separator us-tida onam bilan gaplashib o'tiribdilar. Kapaga kirdim. Qoraboy boshini ko'tarib qaradi. Peshonasini siladim. U mening qo'llarimni yaladi. Ko'zlarida shunday sado-qat ifodasi bor ediki, ko'nglim buzildi.

Shu kuni Shoberdilarning o'toviga borib, yana bir yangilik eshitdim. Kecha Oygul kampir uyiga borganda, Qodir podachi uni rosa uribdi. Kampir qochib, Shoberdilarning uyiga kelibdi. Keyin o'tgan yili yo'qolgan o'sha mashhur Qoraboy itning ham tarixini aytib beribdi.

It ancha qarib qolgan edi, rost. Saroytoshdan cho'lga ko'chish oldidan podachi: «Buni nima qilay?» deb xotiniga maslahat solibdi. Kampir: «Nima qilardik, cho'lga opketamiz», debdi. Podachi indamay, itni chiqarib, daxtga bog'labdi. Oygul kampir nima voqeа bo'lismi bilib, uyga kiribdi-da, erining miltig'ini olib yashiribdi. O'sha kuni kampir tag'in bir marta kaltak yegan ekan.

- Bechora it, - dedi Shoberdi. - Bir o'zini tegirmonning oldidagi tolga bog'lab ketishgan ekan.

- Opketsa bo'lmasmidi? - so'radim men.

- Qarib qolgan, endi ish bermaydi, degan-da.

- Qariganda keraksiz bo'lib qolar ekan-da!

Keyin men o'sha mashhur Qoraboyning tegirmon yonida nima ish qilganini o'zimcha tasavvur qilib ko'rdim. Egasini intiq kutgan bo'lishi kerak. Keyin hayron bo'lib hurgandir, uvlagandir. So'ngra, albatta, ipini chaynab uzgan. So'ng qishloqda sang'igan.

Nega bizning orqamizdan cho'lga tushib ketmagan? Yo'ldan qo'rqqanmi? Egasiga keraksiz bo'lib qolganini sezib, xafa bo'lganmi? Ehtimol, podachi izni yo'qotib ketgandir. Aytmoqchi, ular o'sha kuni qishloqdan eng so'ngida ko'chgandi chog'i.

#### = V =

Aytganimdek, bu yerdagi maktabni maktab desa bo'ladi. Devorlari oppoq qilib oqlangan, partalari ham bor. Biz ikki chaqirimcha yurib boramiz. Eshak minib boradigan bolalar ham bor.

O'qituvchimizni Tojiboy aka deyishadi. Bu kishi ham nimasi bilandir Egamberdi akaga o'xshab ketadilar. Ammo Tojiboy aka ancha xunuk. (Bu gapimni o'zları eshitmasin!) Burunlari yo'q hisobi. Ko'zlari odamni zo'rg'a ko'radigan qisiq. Lekin ko'ngillari daryoday keng.

Keyin bu kishidek shoshilmay yuradigan va shoshilmay gapiradigan odamni hanuzgacha uchratganim yo'q.

– Salom, bolalar! – deb sinfga kirib keldilar u kishi. – Nima yangiliklar bor? Yegan-ichganlaring o'zlariningki, ko'rgan-bilganlaringdan so'zlanglar.

Birinchi dars hamma vaqt shunday boshlanadi. Har kim tog'da ko'rgan-kechirganlarini so'zlay boshlaydi. Egamberdi akadan salom topshirdik. Gap aylanib, mening Qoraboyimga taqaldi-yu, Tojiboy aka ham qiziqib qoldilar.

Men o'rnimdan turib, u to'g'rida bilgan narsalarimi ni, kecha bo'lgan voqeani ham aytib berdim.

– A-a, – dedi Tojiboy aka. – Men sizlarni shaharga olib tushmoqchi edim. Hayvonot bog'iga. Bunga hojat qolmabdi endi. Hayvonot bog'ida ko'p hayvonlar bor-da. O'zimiz cho'lida, tog'da yashab ko'ra olmagan jonzotlar ham bor. Ular qafasda turadi, bemalol tomosha qilsanglar bo'ladi. U yerda hayvonlar haqida gapirib beradigan kishilar ham bor.

– Boraylik, boraylik, Toji aka, – dedim.

Boshqalar ham gapimni quvvatlab turishdi. Oxiri, o'qituvchimiz rozi bo'ldilar.

– Mayli.

So'ng Egamberdi aka kelib to'xtagan joydan dars boshlandi. Darsdan keyin Tojiboy aka ham Qoraboyni ko'rmoqchi bo'ldilar. Men butun sinf bolalarini ergashtirib, uyimizga olib keldim. Endi atrofimda haqiqiy sinfdoshlarim, beshinchisinf bolalari bor edi!

Boshqa ovullardan kelgan bolalar Qoraboyga ayniqsa, qiziqib qolishdi. Bir-ikkitasi uni silab ham ko'rdi. Qoraboy jim, ko'zlarini yumib yotar, onda-sonda men-ga qarab qo'yari edi. Men quvonar edim! Mening itim bu, yo'q, bo'rim! Yo'q, Qoraboyim!

Boshidan qancha savdolar o'tdi-ya, bu jonivorning? Yetimlik! Yotsirashlar! Begonasiragan itlarning talashlari. Bo'rilar bilan ilk jang!

O'sha jangni ko'rish qiziq bo'lardi-da! Axir, u bir tarafi o'z urug'i bilan yuzma-yuz kelgan edi! Ehtimol, bitta-yarimta bo'ri uning hididan allanarsani payqagan dir. Ehtimol, uning akillamasligidan gumonsirab ham qolgandir. Balki o'sha o'lgan bo'ri buni o'zimizning zotimizdan, deb suykalganmi? Kim bilsin?

Qoraboyning tarixi qo'shni ovullarga ham yoyildi. Ulardan ham kelib so'rigan kishilar bo'ldi. Ba'zisi Qoraboy haqida sal xavfsirab so'zlagan edi, bizning saroystoshliklar: «Bu endi it bo'ldi. Bu bizga do'st bo'ldi», deyishdi.

Kunlar o'ta boshladidi. Ilk yomg'ir yog'ib, osmondan bulut arimay qoldi. Cho'lning yangi go'zalliklari ochilar edi: quvragan giyohlarning hidi shundoq ko'tarilardiki, kishi o'zini g'alati bir olamda sezardi.

Bu orada Qoraboy o'zini tutib oldi. U endi molga ergashib yurar, lekin sal oqsab qadam bosar, qattiq chopib birdan burilganida, o'tirib qolar, shunda g'ingshib, singan oyog'ini yalar edi.

Ovul itlari Qoraboy tuzalishi hamono unga tobe bo'lganga o'xshab qolishdi. Birorta mol so'yilsa-yu, besh-to'rtta it uning qoldiqlarini yeyishayotganda Qoraboy paydo bo'lsa, ular chetlashib turishar, Qoraboy qornini to'yg'izib olgandan keyin, ular o'rtaga kirishar edi.

Yordamchi cho'ponimiz bir kuni shunday qiziq gap topib keldi:

- Qoraboying itlarga bosh bo'lib olibdi-ku! - dedi.
- O'tgan oqshom qo'shni ovuldan besh-to'rtta it chiqib qoldi. Bizning itlar bilan qo'shilib bitta tulkini quvishdi.

Oxirida bir-biri bilan urishib ketishdi. Bizning itlarimiz qochgan paytda Qoraboy borib qoldi. Ana tomoshani ko'r! Barini zingillatib quvib yubordi!

Yordamchi cho'ponning so'zlariga tezda o'zim ham qanoat hosil qildim: ovulimiz itlari bilan Qoraboyning chin do'st bo'lib qolganiga ishondim. Oqshom Devkamardagi buloqdan ko'zada suv olib kelayotsam, adir soyasida besh-oltita itlar o'ynashib yotibdi. O'rtada Qoraboy. Itlardan biri kelib, uning qulog'idan tortsa, biri dumini tishlaydi. U bo'lsa, umbaloq oshadi.

Lekin shamol esib turgan bir kuni Ko'ktoyning egasi uyimizga kelib nolidi:

– Borib ko'ring Qoraboyning ishini, – dedi. – Itimni g'ajib tashlabdi.

Ana shunda Qoraboyning bitta fe'lini tushunib oldim: u o'ziga alam yetkazganni sira unutmas ekan. Yodimga Qodir podachi tushdi: «Nahotki uni ham bir kuni talasa-ya? – deb o'yladim. – Axir u Qoraboyni bir emas, bir necha kaltak urgan! Qoraboy ko'r emas, ko'rgan, axir?»

Bu narsa o'zimga yoqsa-da, yana vahimaga tushdim. Hatto podachiga yo'liqib: «O'zingizga ehtiyyot bo'ling», degim ham keldi. Ammo uning iljaygan basharasi ko'z oldimda gavdalandi-yu, nafratlanib ketdim.

Qor yog'ishi bilan qo'shni ovullarga bo'rilar oralagani haqida gaplar tarqala boshladi. Qish kechalarining birida bizning ovul ham to's-to'polon bo'lib qoldi. Biz ham tash-qariga otildik. Lekin bo'rilar qochishga ulgurgan ekan.

Bir kuni havo ochilib ketdi. Onam meni shuvoq o'rib kelishga yubordilar. Qaytib kelib eshitsam, Qoraboy kapamiz ortida mollarning qo'radan chiqishini kutib yotganida, Qodir podachi eshagini minib o'taveribdi. Qoraboy o'rnidan turib, unga ergashibdi. Podachi

eshakka xala beribdi. Qoraboy qirq metr chamasi uning ketidan boribdi-da, birdan eshakka sapchibdi. Podachi ni yiqitib, tagiga olibdi. Qodir podachi bo'rilar ning oda-tini bilgani uchun bo'ynini qisib, yuztuban yotib olibdi. Qoraboy uning choponini qo'shib bo'ynidan tishlabdi, bir-ikki siltab otibdi. So'ng uyimizga qaytib kelibdi.

- Qani o'zi? - so'radim onamdan.
- Shu yerda. Ayb ish qilganga o'xshaydi, - dedilar onam. - Ko'zi javdiraydi, tavba.

Itni izlab topdim.

- E, chakki ish qilibsan, og'ayni, - dedim. U menga ham mo'lтираб qaradi, uzr so'rayotgandek edi.

Uyga qaytib, Qodir podachining medpunktga ketganini eshitdim-da, ancha tashvishga tushib qoldim. Bir gal qulog'imga chalingan edi-da: bittasining iti birovni qopgan ekan, o'sha odam doktorga shikoyat qilib: «Bu quturgan», debdi. Doktor ham shartta otib tashlashga farmon beribdi. O'sha it otilib ketgan ekan.

Qoraboy soppa-sog' it-a!

- Odamlar ham Qodirboyni biladi, - dedilar otam xomushlanib. - Itni o'ziga g'ash qilib qo'ygan.

Men Egamberdi akaning nasihatlarini esladim: itga mehribonlik qil, uyam senga mehr qo'yadi!

Otam ham, onam ham, «nima bo'ladi endi?» deb kutishayotganini sezdim. Yo'lga chiqib, Qodir podachi ni poyladim. Qosh qoraydi, u ko'rinnadi.

Ertasiga mакtabda eshitdim, podachini shaharga, kasalxonaga jo'natishtgan ekan. «Ana xolos, - deb o'yladim. - Endi nima bo'ladi?! U seni tinch qo'yadimi?»

Oradan bir necha kun o'tdi. Hech narsa bo'lmasdi. Qodir podachidan ham darak yo'q edi.

Bir kuni mакtabdan kelsam, onam yig'lab o'tiribdilar.

- Nima bo'ldi? - dedim xavotirlanib.

– Qoraboyni... olib ketishdi, – dedilar onam.  
Yig'lab tashqariga otildim. To'rt tarafga yugurdim:  
– Qoraboy! Qoraboy!  
«Uni nima qiladilar? Nahotki uni otib o'ldirsalar?!»  
Uyga kirib, onamga baqirdim:  
– Otam qanilar? – Otang ular bilan birga ketdi. Yo'lda  
gaplashib ko'raman, dedilar. Balki qaytarib olib kelar.  
– Ular kim o'zi?  
– E, it ovlab yuradiganlar-da. Itda bo'ri qoni bor  
ekan, odamga do'st bo'lmaydi, deyishdi. Xudoning zo-  
rini qildim, pinak buzishmadi. Qodir mergan qilgan bu  
ishni. O'sha shikoyat qilgan. Xudo bilsin, u nimalar de-  
gan! Boyaqish otang ham ko'p yalindi. Raqamsiz itning  
yurishi mumkin emas, deyishadi. Muni qara, itdayam  
raqam bo'lar emish. Keyin otang, boshqa itlarda-chi,  
ulardayam raqam yo'q-ku, dedi. Ular kulishdi. Ular –  
itlar, deyishdi...

Otam bilan anavi shaharliklar ketgan tomonga  
chopdim. Chopdim.

– Qoraboy, Qoraboy!

Yarim kechada otam qaytib keldilar. U kishining  
xomush nazarlari, bo'shashgan ko'rinishlaridan oq  
sezdimki, Qoraboy qo'ldan ketibdi.

## = VI =

Ovulda Qoraboyga achinmagan odam qolmadidi.  
Meni ham, otamni ham, onamni ham ko'rgan kishi  
ko'nglimizni ko'tarib, bir-ikki og'iz iliq so'z aytar edi.  
Men ko'zimga yosh olar va hamdardlik bildirmay o'tgan  
kishilarga g'ashim kelardi.

Bir kuni o'tov oldida onam kuv pishirar, men ho'l  
shuvoqni o'choqqa tiqib, tagiga puflar edim. Qarasam,  
atrofimda ovulning itlari izg'ib yuribdi.

– Tur-e! – deb baqirdim. – Yo'qol hammang!

Irg'ib turib, qo'limdagi shuvoqni otdim. Itlar nari ketishdi. Ammo so'qmoqqa borib, yana tizzalab o'tirishdi. Shunda miyamga qon quyulgandek bo'lib ketdi: «Bular Qoraboyni yo'qlab kelishgan-ku! Qoraboy bularning boshlig'i edi-ku!»

Kunlar! Kunlar to'xtamas ekan. Sendan so'roqsiz o'taveradi va xuddi ajib bir mo'jizali tabibdek ko'ngil yarangga malham bosadi.

Bir kuni qattiq qor yog'di-da, keyin havo ochilib ketdi. Yerlar yashnab qoldi. Rost aytyapman, qori erigan joylar bilinar-bilinmas ko'karib ketdi.

Xuddi bahor boshlanayotgandek!

Tojiboy aka sinfga jilmayib kirdilar. Dars oxirigacha u kishining kayfiyati buzilmadi. Darsdan so'ng:

- Bolalar, - deya bir nafas jim turdilar. - Bolalar, ertaga bizga mehmon keladi. Sovxozga. Mening bitta tanishim bor. O'zi maorifda ishlaydi. Kecha telefonda gaplashib qoldik. Avtobusda kelishayotgan ekan. Ular ikki kun bo'lishadi, - Tojiboy aka tag'in bir nafas jim qoldilar. - Shaharga tushasizlarmi? Shaharga. Birato'la hayvonot bog'ini ham ko'rib kelamiz!

Biz o'ylab o'tirmay:

- Tushamiz! - dedik.
- Hayvonot bog'ida bo'ri bormi? - so'radim men.
- O'qituvchimiz kulib qo'ydilar.
- Hamma narsa bor.

Nega bu savolni berdim? O'zim ham bilmayman. Rostini aytishim kerak, men bo'rini yaqindan ko'rmanman. Olisdan ko'p ko'rganman. U to'g'rida ko'pdan ko'p hikoyalari eshitganman. Hayvonot bog'ida bo'ri degani ham qafasda turadi-ku! Demak, uni bemalol tomosha qilish mumkin.

Tojiboy aka: «Ertalab yo'l tayyorgarligini ko'rib kelinglar!» deb ketdilar. Ertasi bozor kuni edi. Men uyga

bordim, yangilikni otam bilan onamga aytdim. Ular o'qituvchining fikrini ma'qullahdi.

Keyin onam:

- Ehtiyyot bo'lgin, o'qituvchingdan uzoqqa ketma. Yo'lning o'rtasida yurma! – dedilar.

- Hayvonot bog'igayam oborar ekanlar, – dedim.

Otam menga og'ir qarab, og'ir bosh irg'ab qo'ydi.

Kechasi tush ko'rdimmi yo o'zim xayol surdimmi, bilmayman, lekin ko'p g'alati manzaralar ko'z oldimdan o'tdi. Ko'kchil bo'rilar... bitta katta bo'ri bilan gaplash-gandek ham bo'ldim. U Qoraboyning ahvolini so'radi: «Nega uni yo'qotdinglar? U sizlarga do'st edi-ku! Agar shundoq bo'lishini bilsak, o'zimiz safimizga olardik uni!»

Ertalab maktabga ketarkanman: «Yo'q, tush ko'rganim yo'q! Bu gaplarni o'zim to'qidim», deb o'yladim.

Maktab oldidagi ko'kalamzor maydonda biqinlari qizg'ish, derazalari ko'p, uzunchoq bir avtobus turar edi.

Men bunaqa avtobusni birinchi marta ko'rishim edi. Boriboq uni aylandim, u yer bu yeriga qo'l tegizib ko'rdim. Siladim. Allanarsani hidladim. Ajoyib! Shahar odamlariga maza! Shunaqa avtobuslarda yurishadi.

Mendan avval yetib kelgan bolalar ham bor edi. Tojiboy aka ichkarida edilar.

Nihoyat, yo'lga tushdik! Avtobus uchadi. Uning ovozi go'yo eshitilmaydi. O'rindig'i shundoq yumshoqki, o'tirsang, turing kelmaydi. O'rindiqni bosib ko'raman: tagida nima bor ekan? Prujinami? Yumshoq bir nima bo'lsa kerak. Derazalariga qarayman. Butun atrof baralla ko'rindi. Tepadan shabada kiriyapti.

Bir-ikki joyda ko'lmaklardan o'tdik. So'ng toshloq yo'lga tushdik. Kun choshgoh bo'la-bo'la shaharga ro'para bo'ldik.

Yaqin ekan-ku, a?! Nega uni hech ko'rmaganman?.. To'g'ri, bu Toshkent emas, Moskva ham emas. Bu - o'rta-cha shahar. Shunga qaramay - shahar-da! Uni qiziqib, bir narsa ko'zdan chetda qolsa, bir umr armonda yuradigandek ochko'zlik bilan tomosha qilardim.

Ana, trolleybus! Ana uning simlari. Tepadan tok o'tsa kerak. Asfalt yo'l. Odamlar oyog'imiz loy bo'lmasin, deb yo'llarni asfalt qilishgan-a.

Biz peshingacha shahar aylandik... Men hozir shaharda nimalarni ko'rganimni aytib o'tirmayman. Uning muzeylari, ko'p qavatli imoratlari, yo'l yoqasidagi bog'chalari, g'uj-g'uj mashinalar, xullas, shahar otliq bu maskandan qanday taassurotlar olganimni keyin aytib beraman. Faqat shuni aytishim mumkinki, shahar menga yoqdi! «Men shu yerga kelaman! Shu yerda o'qiyman, shu yerda yashayman!» deb niyat qildim.

Avtobus unchalik keng bo'lмаган, ikki tomonida imoratlar tizilgan ko'chadan bormoqda edi.

- Hayvonot bog'iga qachon boramiz? - so'rab qoldi sheriklarimdan biri.

- Ha-ya, qachon boramiz? - dedim men ham.

- Hozir, hozir, - dedilar o'qituvchimiz.

Avtobus ko'chaning qayrilgan joyiga yetganda, shundeq burildi-da, to'xtadi. Derazaga yopirildik. Qarshimizda kattakon temir darvoza ochiq turar, uning tepasiga kattakon qilib «Hayvonot bog'i» deb yozib qo'yilgan edi.

- Hayvonot bog'i! Hayvonot bog'i! - baqirishib, qiy-qirishib qoldik. To'palang qilib, bir-birimizni itarib, turtinib pastga tusha boshladik.

Hayvonot bog'i! Shuning ichida... hayvonlar bor!

- Sekin. Shoshmanglar!

O'qituvchimiz bizni to'xtatib, yon tomondagi devordan ochilgan tuynukka yaqinlashdilar. Ichkariga bosh

suqib, kim bilandir gaplasha boshladilar. Keyin pul chiqardilar. Tuynuk tepasidagi yozuvni o'qidim: «Kassa». Demak, bu kassa. Chipta olsalar kerak-da o'qituv-chimiz.

U kishi haqiqatan ham, chipta olgan ekanlar. Eshik og'zidagi rus chol bilan gaplashib, unga chiptalarni berdilar. Bizni bitta-bitta ichkariga o'tkaza boshlashdi.

Ichkaridagi asfalt qilingan maydonga chiqib to'xtadik. Atrofga alanglaymiz. Mana bu surat g'alati-ku! Qarshimizda bitta imoratning bo'yи baravari keladigan surat turardi. Unda chuqur dara tasvir qilingan. Daraning bir sohilidan ikkinchi sohiliqa shoxdor kiyiklar sakrab o'tishmoqda. Bittasi o'tib olibdi. Ikkinchisi oldingi oyoqlarini sohilga tirab, endi sakramoqchi bo'lyapti. G'alati! E, u yoqdayam surat bor ekan. Unda kattakon daraxtga o'ralib yotgan yo'g'on, chipor ilon tasvir etilgan. Eh-he, butun atrofimiz surat ekan-ku! Ana, baroq junli ayiq, daraxt tepasidagi silovsin. Unisi zebra ot.

Olam g'alati-ya! Shahar bu... Odamlar shu yerga kelib, o'n tiyinga chipta olib, biz tog'-u toshda yillar ko'rishni orzu qilgan hayvonlarni ko'rib ketishadi. Qiziq. Uman, odamlar juda aqli.

– Bir chetdan tomosha qilamiz. Mana, xaritasi! – deldilar Tojiboy aka va suratlardan chetda, yerga o'rnatilgan taglikdagi taxta yoniga boshladilar bizni.

Unda hayvonot bog'inining kichkina maketi solingandi.

Qafas ichida, qo'l bola g'orda yashayotgan bir juft kiykn ko'rganimiz-u, bir gal Saroytosh dasasida uchrat-ganim kiyiklarni bularga solishtirganimni ham, bolalar nima deyishganini ham aytib o'tirmayman. Silovsinni ham, qopltonni ham ko'rdik. Arslon-u yo'lbaraslarni ham.

Ilon bilan maymunni ko'ra olmadik. Chunki havo namligi uchun ularni issiq xonalarga kiritishgan ekan.

– Bo'rilar! Bo'rilar!

Ayiqlar yonidan o'tib, bo'rilar qafasiga yaqinlashdik. Ana, qafasning temir panjarasi. Ichkarida bitta ko'kchil bo'ri uzala tushib yotibdi. Yonida qoni chiqib turgan suyak. Sal narida kichikroq oqchil bo'ri bizga anqayib qarab turibdi. Bitta o'rtacha kattalikdagi bo'ri zerikkanmi yo bir nima bo'lganmi, qafas ichida boshini xam qilib chopgani-chopgan.

Qafasning to'ridayam xonalar bor ekan, bizga qaragan tomoni taxta devor bilan to'silgan. Pastida darchasi.

- Bolalar! To'siqdan uzoqroq turinglar! Ana, yozib qo'yishibdi-ku, «Yaqin bormanglar!» deb – oq xalat kiygan xotin kelib, bizning oldimizdan kesib o'tdi.

Bu yerda tomoshabinlar ko'p edi. Kichkina bolasini ko'targan ayol ham bor, erkaklar ham. Ayniqsa, o'quvchilar ko'p.

- Anavini ko'rsating, opa! – dedi bitta shlyapali kishi.  
- U yo'q! – xalatli xotin o'tib ketdi.  
- Nima u? – chug'urlashib qoldi bolalar. Men ham u odamga qiziqib qaradim.

- E, bular o'zi kerakli narsani ko'rsatishmaydi! – dedi shlyapali kishi. – Men o'sha bo'rining daragini eshitib kelgan edim.

- U qanaqa bo'ri?

Men yana qafasga tikildim. To'rdagi katakdan yana uchta bo'ri birin-ketin chopib chiqishdi va boyagi suyak g'ajiyotgan bo'rining tepasiga kelishdi. Yotgan bo'ri irg'ib turib, suyakni tishlab qochdi. Bo'rilar urisha ketdi... Hayvon bular! Urishganini qarang. Yana bir qafasda turishadi.

- Vaqt ketyapti. Yuringlar, – deb qoldilar Tojiboy aka.

Qafasdan uzoqlashdik... Shu bo'rilarining nimasiga qiziqqan edim-a? Itning o'zi-ku bular! Faqat qulog, dumii uzun! Ko'rinishi ixcham, yengil... Shu.

Ayiqlar yonidan o'tar ekanmiz, tag'in orqamga bуrilib qaradim. Shunda tevarakdan vahimali tovushlar eshitila boshladi: arslon bo'kirdi, qoplon irilladi, yana qandaydir hayvon ma'radi. Yonimizdan o'tib ketayotgan hassali chol:

– Och qolgan. Tush bo'p qoldi, – dedi.

Shunda... ne ko'z bilan ko'rayki... nimani ko'rding deb o'ylaysiz? Ishonmasligingiz mumkin. Chunki Qoraboy qanday qilib bu yerga tushib qoladi? Qanday qilib?!

Men qafasga, yo'q... Qoraboya tikilgancha qotib qolgandim! Qulog'imga gap-so'zlar chalinadi. Yonimdan kimi lardir shoshilib o'tadi: «O'sha bo'ri! Qora bo'ri, zo'r bo'ri... Yuringlar, shuni ko'raylik!»

Qarasam, sinfdoshlarim ham menga o'xshab qotib turishibdi. Bir payt kimdir: «Qoraboy! Nurali!» deb baqirib yubordi-yu, qafasga qarab qanday otolib ketganimni bilmay qoldim. To'siqning tagidan o'tdim. Bo'rilar o'rtasida kerilib, u yoq bu yoqqa qarayotgan Qoraboy ham meni ko'rib, qafas panjarasiga otildi.

Uning izidan boshqa bo'rilar ham otlishgandi. Qoraboy burila solib, bittasining yelkasidan tishladi. U g'ingshib nariga qochdi.

– Qoraboy, – deb shivirladim.

U tumshug'ini panjara orasidan chiqardi. Men uni siladim. U mening qo'llarimni yaladi. Shunda yig'layotgan imni, betlarimdan yosh tomchilari oqib tushayotganini sezdim... Ishonasizmi, do'stim, Qoraboyning ham menga tikilgan ko'zlaridan miltirab yosh oqmoqda edi.

Bu ahvolga qanday chidash mumkin? Bu mening itim, mening do'stim, Qoraboyim... Qafasda! U erkin yurishi kerak bo'lgan hayvon! Mol qo'riqlashi kerak bo'lgan it! Odamlarning do'sti. Mashhur bo'lib ketgan qo'riqchi... Nahotki, u shu yerda?! U tomosha bo'lib qoldimi hali?

- Qoraboy! - baqirib qaddimni rostlasam, atrofimda g'ala-g'ovur, odamlar baqirishgan, chaqirishgan, allanarsalar deyishyapti. Yelkamdan birov tortdi.

Boyagi xalat kiygan juvon. Rangi quv o'chib ketgan.

- Bu jinni bo'ri, - dedi u.

- Yo'q, bu mening bo'rim. Bu Qoraboy! - dedim.

Sinfdoshlarim ham baqira ketdi:

- Bu Nuralining bo'risi! Mana, bizniyam tanidi. Uni qo'yvoringlar!

Tojiboy aka oraga kirdilar. Meni chetlatib, ayolni o'zlariga qaratdilar.

- Bu it qanday qilib bu yerga tushib qoldi? - dedilar.

- It emas! Bo'ri! - dedi ayol. - Ko'rmayapsizmi? - keyin menga do'q qildi: - Chiq bu yoqqa! Men shikoyat qilaman! - shunday deb qafas ichidan menga intilayotgan Qoraboyga tikildi. - Chindan ham senga o'rgangan ko'rindi? - dedi so'ng.

- Mening itim deyapman-ku! - dedim. - Buning otasi it, onasi bo'ri. Bu Saroytoshda tug'ilgan. Buni Qodir podachi yomon ko'rardi. U urgan, buyam uni qopgan. Keyin u... mana shu... Tojiboy aka, bu opaga aytin. Qoraboyni bersinlar! Eshikni oching, opa. Uni olib ketaman!

- Yo'q-yo'q, - dedi ayol. - Mening haqqim yo'q. Domla, - u o'qituvchimizga yuzlandi, - buni bizga bo'ri, deb topshirishgan. Bizda, O'rta Osiyoda qora bo'rilar bo'lmas edi. Faqat Kanadada bor! Lekin shunday bo'ri ushlandi, deb olib keldilar. Bu it bo'lganida, bo'rilar birpasda yo'q qilishardi. Bu bo'ri ularni o'ziga taslim qildi. Buning ustiga, odamlarni yomon ko'radi. Hatto, ovqat beradigan xizmatchilarimiz ham shundan qo'rqishadi. U ichkarida yotadi.

- Opa, bu meniki! Bu Qoraboy!

Bolalar ham chuvullashib gapimni quvvatlashdi.

Shunda shlyapali odam ham gapga qo'shildi:

– Xonim, ko'rib turibsiz-ku, bo'ri bolani tanidi. Qo'lini yaladi. Yana nima deysiz? – shunday deb kului u. – Hayvonot bog'inining odamlariyam mug'ambir bo'lib ketishgan. Qora bo'ri paydo bo'ldi, deb jar solishib yurishibdi-ya!

– O'ylab gapiring, – dedi ayol uni jerkib.

– O'ylab gapirsam, – u yana kului, – umuman, zoopark kattalari to'g'ri ish qilishgan. Biz haligacha bo'ri bilan itdan paydo bo'lgan jonivorni ko'rmagan edik. Qaranglar, qanaqa bo'lar ekan!

Ayol allanarsa deb to'ng'illadi-da, orqaga o'tdi. Birpasda atrofimizni hayvonot bog'inining odamlari bosdi. Bittasi meni idoraga boshlagan edi, men oyoq tirab turib oldim: «Hech qayqqo bormayman!»

Qoraboy mendan ko'z uzmay turar, uning oldidan ketsam, meniyam yoqtirmay qoladigandek yoki shu qafasni buzib tashlaydigandek edi. Ular gap nimada ekanini, Qoraboyning tarixini rosa surishtirishdi. Men bilgan narsalarimni, Qoraboyning bo'ri ovlaganigacha aytib berdim. Keyin ular tag'in meni idoraga taklif qilishdi. Nihoyat, Tojiboy akani olib ketishdi. Men panjarradan qo'l suqdim. Qoraboy qo'limni yaladi.

Qoraboydan ham ko'ra tomoshabinlar menga qarashar, har xil savollar berishar, hayvonot bog'inining nariqi tomonidagi odamlar ham bu yoqqa kelishmoqda edi.

Tojiboy aka ham qaytib keldilar.

– Qoraboyni sotishgan ekan, – dedi.

– Kim?

– Shoshilma... It ovlaydiganlar ham it deganining farqiga borishadi. Keyin hayvonot bog'i bilan aloqador odamlar – ular. Ba'zi itlarning terisini shilgach, go'shtini shu yerdagi hayvonlarga berishadi.

– Yo'q-yo'q! Bularga svejiy go'sht beriladi, – dedi orqada turgan boyagi ayol.

Tojiboy aka salmoq bilan:

- Xo'p, - dedilar unga. - Lekin men bu bola bilan gaplashib olay. Nurali, hayvonot bog'ining direksiyasi sendan iltimos qilishyapti. Bu noyob hayvon, bizda qolsin, deyishyapti. Ular biz bolagayam pul to'laymiz, deyishyapti. Nima deysan?

U kishi gapini tugatmasdanoq baqirib yubordim:

- Yo'q-yo'q! Sotmayman!

Shunda hayvonot bog'iga aloqador bitta ko'zoynakli kishi xo'mrayib:

- Biz buning pulini to'laganmiz, gap tamom, - dedi.

Men jimb qoldim. Qoraboy panjara ortida mendan ko'z uzmay turar, uzun dumini likillatar, bo'rilar esa har turli qiyofada izg'ib yurishar, bir-biri bilan talashar, boyagi suyakni olib qochishar edi.

Oraga militsioner ham kelib qo'shildi. U ham hayvonot bog'i rahbarlarining gapini ma'qulladi. «Tartibni buzma! Jamoat joyi bu», deb bilagimdan ushladi.

Hayvonot bog'i darvozasiga yetgan edim...

Men bu yerdan ketishni o'ylamasdim. Militsionerdan qo'rqib, uning gapiga ko'ngan edim. Tashqariga chiqiboq, yana chipta olib, ichkariga kirmoqchi edim. Axir, Qoraboyni, do'stimni bu yerda qoldirib keta olamanmi?

- Bolalar, anqaymanglar! - Tojiboy aka bizni tashqariga boshlab chiqa boshladilar.

U kishi juda qattiq xafalar, lekin qo'llaridan hech ish kelmaganini bildirish uchun boshlarini egib olgandilar. Shunda orqa tarafda kimdir chinqirib yubordi. Hammamiz o'girilib qaradik.

Men, odatda, ertak eshitsam ham, badiiy kitob o'qisam ham oxiri yaxshilik bilan tugashini istar edim.

...Qoraboyning qafasdan chiqishi hayvonot bog'i odamlari uchun, qolaversa, tomoshabinlar uchun yax-

shi bo'ldimi, bilmadim. Ammo men uchun... Umrimda eng baxtli damlarim shu dam edi!

Hayotda ko'p qiyinchiliklar ko'rgan, ko'p sinovlardan o'tgan, nihoyat, shaharga ham tushib, qafasga ham kiran Qoraboy yo'lakdan men tomonga uchib kelmoqda edi.

Uning vajohati shundoq ediki, hali uni qafasdan chiqara olmaganim uchun meni parcha-parcha qilib tashlaydigandek! Yonimga keldi-da, taqqa to'xtadi. Men qaltirab, unga qo'limni cho'zdim. U oldingi oyoqlarini lip ko'tarib, ko'kragimga qo'ydi. U meni o'ldirib qo'yishi mumkin edi. Ko'zimiz bir-biriga to'qnashdi... Men yig'lar edim! U-chi? U orziqib, «kulib» menga tikilar edi.

- Qoraboy, - dedim.

...Biz uzoqlashgach, Qoraboy o'zini qafasga ura boshlabdi. Ovqat beruvchi kishi paqirda go'sht keltirib, qafasning yonidagi eshikchani qiya ochgan ekan, Qoraboy o'zini o'sha yoqqa uribdi. Xizmatchi yiqlibdi. It qafasdan chiqibdi.

Hayvonot bog'ining odamlari ham yetib kelishdi. Men hech kimning gapiga quloq solmay, avtobusga kirdim.

- Qoraboy, kel! - dedim. U hayvonot bog'ining odamlaridan biriga qattiq irilladi. So'ng lip etib, ichkariga kirib oldi.

Oq xalatlilaydi ayol xo'rsindi, shlyapali jilmaydi. Ko'zoynakli qo'l siltadi. Tamom...

Oldinda Qoraboyni yana qanday sinovlar kutyapti? Noma'lum. Lekin biz, fahmimcha, eng katta sinovdan o'tgan edik. Va aziz go'shamiz - tog'larimiz tomon ketdik.

## YO'LLAR, YO'L DOSHLAR

= 1 =

O'sal o'z tengdoshlariga nisbatan past bo'yli, lekin to'la, baquvvat, chaqqon bola. Ro'zg'or yumushlaridan ko'pi uning bo'ynida. U mollarga o't o'rib solish, taglarni kurash, garaj hovuzidan suv tashish, tegirmonga borishdan tashqari, otasi Ashim akaning «Aralash mollar» do'koniga borib, qarashishga ham ulguradi. Bu ko'pchilik qishloq bolalariga xos ishlar. O'salning abjir hamda chaqqonligini aytdik. Endi uning ko'pgina tengdoshlarida uchramaydigan jihatlariga kelsak, u yolg'onni yamlamay yutadi. Hamma vaqt, har qanday sharoitda ham o'z nafini ko'zlab ish tutadi. U buni o'ylamagan chog'ida ham, shunday qilganini bilmay qoladi.

O'sal loyxonada – tog'olchaning ariqqa to'kilgan, ezilgan va loyga bulangan mevasini terib, uzun ko'ylagi etagiga solayotgan edi, bostirma orqasidan onasining ovozi eshitildi:

– Asaljo-on!  
– Ho-zir! – dedi O'sal va bir ish buyurishlarini sezdi: onasi bejiz «Asal» demaydi. U ariqdan chiqib, hovliga o'tdi.

Mo'ylovi labining ikki chetidan osilib tushgan Ashim aka bilan Bibinor opa tizza bo'yi supada nimanidir gaplashib o'tirishardi. O'sal borib, odatdagicha, salom berdi. Ota unga ko'zi bilan imo qilib, supa chetini ko'rsatdi. O'sal palos yetmagan quruq yerga tappa cho'kkан edi, Ashim aka:

– Tur, iflos! – dedi. – Ketingni qoq! Bu ishton tekkinga kelmagan! Ko'ylagini ko'r, xotin! Yomon shiptir chiqdi-da buning!.. Shunday qilaversang, maktabga yalang'och boradigan qilaman, bola!

– Be-e, unday demang, otasi, – dedi Bibinor opa ro'molining uchi bilan og'zini to'sib.

O'rnidan irg'ib turgan O'sal:

– Xo'p, ota, xo'p! – dedi.

– Mana sizga, – Ashim aka qo'lini cho'zib, kaftini ochdi. Kaftida ezilib, qo'ldan qo'lga o'taverib, hilvirab ketgan besh so'mlik bor edi. – Odil juvozgarning uyiga borasiz... Ol! – O'sal supa chetiga cho'kkalab, pulni oldi.

– Bir kilo zig'iryog' berar ekansiz, deysiz. Otam aytdilar, deysiz... Tuzukmi?

– Tuzuk.

– Keyin xurmaga ehtiyot bo'lib, uyga qaytib kelasiz.

– Qaytib kelaman. Xurmaga ehtiyot bo'lib...

Bularning oilasida zamonaviy idishlar kam ishlatalardi: nuqlul sopol kosa, sopol tovoq, mis qumg'on, jez barkash.

O'sal xurma ko'targan yelkasi pasayib, ko'chaga chiqdi. Toshloq, tor ko'cha.

Ildamlab hammom oldidan o'tdi. Xurmaga qarab-qarab qo'yib, Ko'ptepa pastiga yetdi. Juvozxona bu yoqda qolib, Chuqursoyga eltadigan jinko'chaga tushdi.

Mavlonlarning devoriga yetguncha xurmani necha marta u qo'lidan bu qo'liga, bunisidan unisiga oldi. Paxsa devor orqasidan bolalarning qiy-chuvi eshitilardi. «Hovuzga suv quyishibdi», deb o'yladi O'sal. Haqiqatan ham, bir narsa «gup» etdi, keyin suvning qalqib, chayqalgani taraldi. Ha, Mavlonlar hovuziga suv quyibdi: suv quygandan keyin bolalar cho'miladi-da. Biryo'la hovuz betiga to'kilgan eski barglarni surib chiqarishadi.

– Mavlo-on, hov, Mavlon! – chaqirdi O'sal. Uning otasi ko'rib qolsa: «Nimaga uyga kirmaysan?» deb o'pkalashini o'ylab, darchaga bordi. Uchragan kishiga salom berishga shay holda, ichkariga kirdi.

Mavlon bilan O'salga otalari bundan to'rt yil burun «qiyomatli jonajon jo'rasizlar!» deb fotiha berishgan, o'shanda O'sal Mavlonlarnikidan chopon kiyib kelgan, shundan beri uni «jonajon jo'ram», deb biladi.

Ichkarida salomga alik oladigan hech kim yo'q edi. O'sal o'ngga – hovuz tomonga burildi. Tanish-notanish, yarim-yalang'och bolalar hovuz labida chopib yurishar, bir-birini suvga itarishar, ba'zilar umbaloq oshib hovuzga sho'ng'ishar va suv yuzasidagi barg-xazonlarni qalqitib, burchakka surishar edi.

Novcha, qotma Mavlon hovuzning u betida, baland gujum tagida qo'llarini beliga tirab turgan ekan.

Egnida kiyim, sochlari ho'l, yuzi loyqa yuqi, yaqinda cho'milib chiqqani aniq edi. Kimdir O'salni ko'rib:

– Mavlon, jo'rang keldi! – dedi.

Mavlon O'salga qaradi.

– Cho'milyapsanmi, jo'ra? – dedi O'sal.

– Cho'milib chiqdim. Cho'mil sen ham, – dedi Mavlon.

– Loyqa-ku bu, – dedi O'sal. – Quloq kar bo'ladi...

Keyin zaril ishim bor. Bu yoqqa kel o'zing!

Mavlon hovuz bo'yidan o'tib kelib, do'stiga qo'l berdi. O'sal ko'rishib bo'lib, kaftini ochdi.

– Qara, qiyib yubordi bu! – xurmani ko'rsatdi.

– Voy-voy! – achinib ketdi Mavlon. – Nimaga ko'tarib yuribsan buni?

– Otam yog'ga yubordi... Yur, Odil qiyshiqnikiga boramiz. Juvozzonani ko'rganmisan?

Mavlon darhol qiziqib qoldi.

– Ko'rmaganman! – u ortiga burildi-yu, hovuz hali to'lmanagini ko'rdi. Suv chiqsa boshlagach, ish ado bo'la-di-da. Otasi qattiq tayinlagan. Ertalab atay: «Besh-o'n kundan keyin o'qish bilan bo'lib ketasan. Suv bog'lab

kelishga qo'ling tegmaydi. Hovuzning tubi ko'riniq qolibdi. Sasib ketadi!» degan. Shuning uchun Mavlon qo'shni mahalla bolalarini ham aytib, suv haydab kelistiha chiqqan edi.

- Boraman-u, oldin hovuz to'lsin, - dedi Mavlon.
- Bir qarich qopti-ku to'lishiga, - dedi O'sal. - Ana, bolalar bor. Sen bo'lmasang, to'lmaydimi?
- Rost aytasan, men bo'lmasam ham to'ladi, - dedi Mavlon va hovuzning u betiga yo'naldi.

Endi O'salning bu yerdan tezroq ketgani, Mavlonni ko'chada kutib turgani ma'qul edi.

- Men ko'chada turaman, jo'ra! - dedi-da, darchaga qarab ketdi. Endi o'zi salom beradigan kishining ham uchrashini istamay darchadan chiqdi.

Birozdan keyin Mavlon yetib kelib, xurmani ko'tarib oldi.

Bu ko'cha ham toshloq. Nishab ko'cha. Yomg'ir yog'ganida sel bo'lib oqadi.

Ko'ptepaga yetib, o'rkachga o'rlagan - somon qipiqlari va barvasta mashina g'ildiraklari izi qolgan tuproq yo'ldan asta-sekin ko'tarilisharkan, yonbag'irdan pastda - olmazor ichida qishloq yig'inining oppoq binosi ko'rindi. Undan beroiroqda ikkita yuk mashinasi tumshug'ini yo'lga qaratib turardi. Ulardan beroiroqda uch kishi. Biri kalta hassaga tayanib olgan.

Jo'ralar ularning bittasini darrov tanishdi: Shokirko'r degan kishi. Odamlarga g'isht quyib berib yuradi. Aroq ichib mast bo'lsa: «Omon yor!» deb qo'shiq aytadi. Hech kimdan qo'rqlaydi. Uning ko'zi ko'r emas. Chap ko'zida xoli bor, xolos. O'sha chap tomonini xiyol pasaytirib va qiyshayib yuradi.

- Shokirko'r! - dedi O'sal. - Yomon ko'raman... Do'konga kirsa, otam bilan urishadi.

Shokirko'r hamrohlariga bir nima deb qahqahlab kuldida, burilib, bolalarni ko'rdi. Boshini qiyshaytirib tikildi.

- E, Ashim kalamushning o'g'li-ku! - dedi O'salga ishora qilib. - O'xshab turibdi!.. - so'ng Mavlonga tikildi. - Sen Bo'ri polvonning o'rtanchasi? Topdim!.. Nima ga surobing tortilib ketibdi? Anavini ko'r, bo'rdoqiga boqilganday!

- O'zingiz bo'rdoqi! - dedi O'sal va Mavlonning bu yoniga o'tib oldi.

- Naq otangning o'zisan-a, qudratingdan! - dedi Shokirko'r. - Ha, mayli, jiyani. O'sibsani, o's! Biz hech kimga mushayt qilmaymiz!.. Nima dedingiz, xo'jam? - kalta hassaliga murojaat qildi. U qarimsiq yuzini tirishtirib, Shokirko'rga, keyin bolalarga qarab qo'ydi. Shokirko'rning jahli chiqdi. - Qovoqni oching-ey, azador bo'lsangiz ham! Anavi odamlarga qaranglar! - dedi bolalarga olmazordagi tarang qoplar, o'ralgan to'shaklar ustida o'tirgan yigit-yalangni ko'rsatib. - Paxtachilar! Yangi yerga ketishyapti!.. Yangi yerga!.. Yozilmagan qog'ozday yerga! He-e, zo'r! Paxta degani charv moyday oqib yotibdi. Shunday olib, etagingga solaver. Xo'jam bo'lsa shu ishniyam qilolmaydi. Shuning uchun «bularni pul quvib boryapti!» deydi. Shundaymi, Xo'jam?

- Albatta, pul quvib boryapti, - dedi hassali.

- Ketamiz. Yur! - dedi O'sal.

Mavlon bosh irg'ab, O'salning ketidan jildi. U parishon bo'lib, yerga - somon qipiqlari, mashina izlariga, rangsiz tuproqqa tikilib ketarkan: «Yangi yer... bu yerga o'xshamaydi, - deb o'yladi. - Yozilmagan qog'ozdek!» Shunda uning ko'z o'ngida kattakon, oppoq taxta qog'oz gavdalandi.

Bu vaqtda O'sal ham jiddiy xayol og'ushida edi.

- Sen nimani o'ylayapsan hozir? – deb so'radi u.
- Yangi yer qiziq ekan! – dedi Mavlon. – Bir ko'rsang!..
- Sen ham pulni yaxshi ko'rар ekansan-da!
- Bekor gap! – dedi Mavlon. – U yerga qahramonlar boradi!

Endi O'sal piqillab kului.

- Yoshisan, jo'ra... Puling bo'lmasa, bitta pryanik ham ololmaysan!

- Ey, o'zimizning yuqori sinf bolalarini har yili paxta-ga oboradi-ku!

- Oboradi, – dedi O'sal. – O'shalar ham pul ishlab keladi. O'tgan yili Nosir qassobning o'g'li enasiga ro'mol opkelganini ko'rganman! Paxtadan! «Ishlab oldi», dedi!

– E, menga pul bermasayam oborishsaydi!

– Balki bu yil oborishar!

– Ha, oltinchiga o'tdik-ku!

Yonbag'irdan o'tib, yo'ng'ichpoyaga tushdilar. Uning pushtasidan dorda yurayotgandek bo'lib, oldinma-ketin ketisharkan, olisda – ariq yoqasidagi bahaybat yong'oq daraxtiga o'ng qo'ltagi devor ortidan kesak otildi. Bir-ik-kita yong'oq uchib tushdi.

Ular kelayotgan manzil ham o'sha – yonidan tosh otilgan baland, paxsadevorli imorat, aniqrog'i, og'ilga o'xshagan uy edi. O'sha – juvozxona. Undan narida Odil qiyshiq xotini va jiyani bilan turadi.

– Xudo ursin, «Cha-cha» otdi shu toshni! – dedi O'sal va «xurmaga ehtiyyot bo'l», deb chopib ketdi.

Haqiqatan ham, juvozxona biqinidan chiqqan juldur chaponli Boshbek yong'oq ostiga otildi va xazonlarni titkilay ketdi. Uning laqabi – «Cha-cha». Odatda, echkilarni qaytarganda, cho'pon: «Cha-cha!» deb baqiradi. Boshbek esa otasini traktor bosib ketgach, amakisi qaramog'iga o'tgan, yozda uning echkilarni tog'da boqib tushar, keyin maktabdan bo'shadimi, juvoz haydar edi.

Cho'ponlikka o'rganib qolgani sababli, bir kuni maktab tajriba uchastkasida katakdan chiqqan quyonlarni quvar ekan, «cha-cha», deb baqirgan, shu-shu, «Chacha» unga laqab bo'lib, yopishib qolgan edi. To'g'ri, uning otasi o'lgach, onasi er qilib ketgan, ko'p bolalarning, jumladan, Mavlonning ham unga rahmi kelar, uni kamsitishni yomon ko'rар va o'z nomi bilan chaqirardi.

Boyaqish otasi uni bosh farzandim, deb shu nomni qo'ygan ekan.

O'sal bora solib uning yoqasidan ushladi.

- Chiqar, to'k! - deb bir qo'li bilan qo'ynini kovlay ketdi. Boshbek siltanib, uning qo'lidan chiqdi.

- Sen qoqdingmi? O'zim urib tushirdim! - u yong'oq tanasi panasiga o'tdi.

O'sal engashib, qo'liga ilingan toshni oldi.

- Chiqar! Uraman, o'lasan!... Yong'oq davlatniki! O'g'risan!

- O'zi tushdi-ku! Paqqa bo'lgan ekan. Mana, - u ko'ylagi ichiga qo'l suqdi. Uch-to'rtta yong'oq olib, bedapoya yoqasiga otib yubordi.

- Ol, ochko'z!

O'sal shoshilmay izlab, yong'oqlarni topdi. Bittasi devor bilan paykal pushtasi orasidan o'tgan tuproq yo'lga tushgan ekan. O'sal uni ham oldi-da, juvozxona-ga qaradi.

- Amaking uydami? Yog' bormi?

Boshbek burnini tortib, yong'oqqa suyandi.

- Yo'q, - dedi. - Amakim yukka ketgan.

- Yuking nima?

- Zig'ir... Shuniyam bilmaydi.

- Gapni kalta qil! Yog' bormi?

- Yo'q-da!

O'sal xurmaga qarab yurdi-yu, to'xtadi.

- Yangang qayerda?

- Otasinikiga ketgan.
- Bir o'zing qolgan ekansan-da!
- Ha... Lekin juvozxonaga kirmaysan! U senga ajoyibxona emas! Uyam davlatning juvozxonasi... Hali elektr tushirilsa, qirchang'ini go'shtga topshirishar ekan. Keyin o'qni elektr aylantirar ekan!
- Bo'ldi. Mahmadalikni keyin qilasan. Menga zig'iryog' kerak!
- Aytdim-ku, yo'q, deb!

Mavlon oraga tushdi.

- Mayli, juvozni bir ko'raylik... Men hech ko'rganim yo'q. Boshbek Mavlonga imladi. Qiyshayib turgan engarakni ochib, kirdi. Taqir sahn suv sepib supurilgan, to'r-dagi peshayvonli eski imorat oldida ikki jo'yak sap-sariq chinnigul ochilib turibdi. Boshbek o'ng qo'ltagi juvozxona eshagini lang ochdi.

Qop-qorong'i xona. Ichkariga zinalardan tushiladi. Supacha bor. Undan pastda – o'ttada bosqondek kunda turibdi. Kunda ichi chuqur. Unda uzun, yo'g'on o'q. O'q qiyshaygan. Bu «dastgoh»ning atrofida ham aylanma supa bor.

Boshbek Mavlonga tushuntirdi: otni mana shu zinalardan pastga tushirib, ayiliga anavi o'qni bog'lashar ekan. Keyin juvozgar hadeb otni aylantirib, haydayverar ekan. Ot aylangani sari o'q ham aylanib, biqiniga to'kilgan chigit va kunjut aralash zig'irni ezar, yog'ini chiqarar ekan.

Boshbek yon tomondagi supachada turgan qop-qora idishni ko'rsatib, undan ham qoraroq jomkosani ko'tardi.

- Mana bu bilan yog'ni olib, shu chelakka quyiladi.

Qo'llarini tizzasiga tirab, og'ir hiddan bo'g'ilib turgan O'sal sakrab supachaga tushdi. Chelak ichiga boqdi. Unda tim qora osmondagи yulduzlardek bo'lib, yaltirab turgan yog' ko'rindi.

- Bu nima? Yog' emasmi?

- Yog'. Ozgina. Zig'irni biriktiradi.

O'sal Boshbekning tumshug'iga mushtumini tiradi.

- Jag'ingni ezaman, jim! Baqirsang, bir kun kelib, o'zingni juvozga qo'shaman! - u Mavlon hamon qo'lidan qo'yagan xurmani oldi. Supaga siljib tushdi. Jomkosada chelakdag'i yog'ni olmoqchi edi, kosa yog'ga botmadi. Inqillab-sinqillab, chelakni ko'tardi. Bor yog'ini xurmaga quydi. Xurma salkam yarim bo'ldi. U chelakni tag'in joyiga qo'yib, xurmani Mavlonga uzatdi. Mavlon olishga oldi-yu:

- Shu ishing nomardlik-da, jo'ra, - dedi.

O'sal unga anqaydi.

- Otam... otam meni o'ldirsa maylimi? - dedi asta.

- Yog' obormaganing uchun ham o'ldiradimi?

- Sen u kishining odatini bilmaysan... Sening otanga o'xshagan emas, jo'ra!

Mavlon Boshbekka:

- Xo'p, deya qol. Pulini to'laydi-ku! - dedi.

- Pul?! - O'sal supaga chiqdi. - Bu yog' emas, quyqa-ku, jo'ra. Mana, o'zing qara munday! Hidiyam boshqa...

Boshbek tislani, burchakda qoziqqa ilingan uzun qamchini oldi.

- Chiq, ket! - dedi O'salga.

O'sal:

- Xo'p. Haydasang ketamiz, - deb xurmani ko'tardi.

Chiqdilar. Yong'oq ostida O'sal xürmani Mavlonga berib, xazonlarni oyog'ida va qo'lida xo'b titdi. Talay yong'oq topdi. Lippasiga qistirib, xurmani Mavlondon oldi. Mavlon daraxt tanasiga suyanib, g'amgin turgan Boshbekni uylariga taklif etdi.

- Hovuzga suv quyganmiz. Cho'milasan...

Boshbek xo'rsindi.

- Yangam keladi hozir.
- Mavlon unga achinib ketdi.
- Internatga borsang bo'lmaydimi?
- Amakim qo'ymaydi... Yuringlar. Ko'cha boshidan qaytaman.

Shu bedapoyaning adog'idan o'tgan soy yoqasi bilan ham yurib, hammom oldidan chiqsa bo'lardi. O'sal o'sha yoqqa yo'l boshladi. Tagidan bir hovuch suv chiqib yotgan sambittol yonidan o'tib, surp yalov ko'tarib turgan qabr boshida cho'nqayib o'tirgan bir kampirni ko'rishdi. Unga salom berib o'tishdi. Kampir bosh irg'ab alik oldi. Uning oldida qabrdan chiqib turgan yapaloq toshda paxtadan eshilgan pilikcha ingichka tutun taratar, kampir hadeb ichida bir nimalar der va asta-asta chayqalar edi.

- Eshonning qabri, - dedi O'sal.
- Eshon bo'lsayam bosmachi o'tgan! - dedi Boshbek.
- Amakim shunday deydi. Tushunmagan odamlar kelib, ziyorat qiladi!

Mavlon to'xtab qoldi.

- Chini bilanmi? - u bosmachilar haqida kitoblardan o'qigan, ularni juda yomon ko'rар, ayni chog'da ular bilan bo'lган urushlarga qiziqar edi. Shunda miyasida bir fikr yaraqladi: «Buning sirini ochsak, yaxshi-ku!..»

O'sal ham bu chog'da o'zicha bir narsani eslagan edi.

- Ziyoratchilar shunday qabr toshlariga pul tashlab ketarmish. Rostmi shu gap, «Cha-cha»?
- Rost, - dedi Boshbek. - Tashlab ketishadi.
- Ha-a, - kului O'sal. - Sen bo'lsang, ko'rib turasan-a, keyin kelib...

- O'sal! - dedi Boshbek. - Oxir seni uraman! - keyin Mavlonga qaradi. - Shuning nimasi bilan jo'rasan? Bu bir qitmır-ku! O'qishniyam eplolmaydi... Sendan ko'chiradi. Adabiyot, tarix vazifalarini ham sen aytib berasan... Nimasi yaxshi buning?

Mavlon g'amgin kulimsiradi.

- Biz jo'ramiz. Otalarimiz...

Shunda O'sal xurmani yerga qo'ydi-da, Boshbekka otildi. Ammo oyog'i itqovunga ilashib, yiqilib tushdi. Badaniga lippasidagi yong'oq qadaldi. Yuzi ayanchli burishib, turib o'tirdi. Yong'oqlarni lippasidan olib, ko'ylagi ichiga soldi-da, birdan lippani paypaslay ketdi. Lippadan o'tkazilgan bog'ni ushlab, aylantirib ko'rib chiqdi. So'ng dam Mavlonga, dam Boshbekka rangi quv o'chib tikildi. Keyin asta o'rnidan turib:

- Beri kel, - dedi Boshbekka.

- Bormayman! - dedi Boshbek.

- Bu yerga kel deyapman, o'g'ri!

Boshbek ko'ziga yosh oldi.

- Mavlon, yana shunday deyapti.

Mavlon yana oraga tushdi.

- O'sal jo'ra, shunday dema-da.

- Yo'-o'q! - baqirib yubordi O'sal. - Pulimni o'g'irlagan! Besh so'mni! Mana, yo'q! - shunday deb o'zi ham gangib qoldi: haqiqatan ham pulni lippasiga urganmidi? U shoshib, do'ppisini oldi, qoqib ko'rdi. Yana lippasini paypasladi. Keyin lablari pir-pir uchib, Mavlonga boqdi.

- Jo'rajon, ilgari o'lmasam ham, endi o'laman!.. Pul yo'q! Otam meni, bilasanmi...

Boshbek titrab-qaqshab turardi.

- Olgan bo'ljam, o'lay! - dedi. - Olganim yo'q.

- Yuringlar, - dedi Mavlon. - Yong'oqning tagini qidiramiz.

Uchovlon orqaga qaytdilar.

= 2 =

Yong'oqning tagidagi xazonni titib, ag'darib ko'rishdi. Pul yo'q edi. O'sal yong'oqning yer bag'irlab ketgan tomiriga o'tirib, boshini egdi. U chindan ham xafa edi.

To'g'ri, o'zini xafalikka solgan paytlari bo'ladi. Masalan, darsga kech qolib borsa, albatta, qulog'iga, peshonasiga bo'rning kukunini sepib: «Tegirmonda edim, muallim, yuk ko'p ekan, ushlanib qoldim!» deb yig'lamsiray oladi. Mavlonga esa... Mavlonni o'zidan bezdirmaslik uchun, iloji bo'lsa, har qadamda o'zini g'arib qilib ko'rsatadi. Bi-roq hozir uning g'ami katta edi.

Bir gal otasining nosvoyga deb bergen yigirma tiyinni yo'qotib qo'yganda, qulog'idan ayrilishiga oz qolgan...

Mavlon, keyin Boshbek kelib, uning oldiga cho'nqaydi. Keyin ikkovi ham irg'ib turib, barg-xazonlarni titkilay ketishdi.

- O'zi qayerga qo'ygan eding? - yana so'radi Mavlon.

O'sal behollik bilan lippasiga ishora qildi. Keyin Mavlonga ham baqirib berdi:

- Sen ham, jo'ra bo'la turib ishonmaysan-a?.. Undan ko'ra yig'lamaysanmi?

- Yig'laymi?

- Bo'lmasam-chi!

- Bitta yo'l bor, - dedi Boshbek.

- Qanday?

- Shokirko'r bizga hamsoya. Odamlarga g'isht qu'yib berib, ko'p-ko'p pul oladi... Bir kuni menga: «Bir choynak choy damlab ke, jigar», dedi. Choy damlab bordim. Keyin men ham besh qolip g'isht tashladim. Qolip og'ir ekan. Ikki kun belim og'rib yurdi. Lekin... uch kishi bo'lib tashlasak, a, Mavlon?

- Yasha! - dedi Mavlon hayajon bilan va uning xayolini hali Shokirko'rning aytgan gaplari band etib oldi: «Yangi yer... oppoq qog'ozday, yozilmagan qog'ozday...»

O'sal g'isht quyish nimaligini biladi. Unday ishga tobi yo'q.

Shunda Ko'ptepaning shimol tomonidan cho'ziq ashula ovozi eshitildi:

*Jo-on ukam, surxanlik ukam,  
Omon yo-o-or!*

O'sal cho'chib tushib, Mavlonga qaradi... Shu onning o'zida uning xayolida pul topish rejasi ildiz otdi:

- Gap munday, - dedi u.

- Qanday?

U Mavlon bilan Boshbekka bir-bir qaradi.

- Sizlar menga yordam berasizlar-a?

- Ha, - dedi yana ikkisi bir og'izdan.

- Yo'g'asam... jo'ralar, paxtaga ketamiz!

Mavlon anqayib qoldi. Biroq shu damning o'zida tanish, jozibali xayol miyasida surat chizdi: oppoq charv moydek oqib yotgan momiq. Terib etagingga solaver!

- Paxtaga?!

- Yangi yerga! - dedi O'sal. - Borib, paxta teramiz...

O'n kun! Menga terasizlar... Pulini ham berasizlar! Men qutulaman otamdan! - u burnini piq-piq tortdi. - Jo'ralaring qutulib qoladi...

- Bo'pti! - dedi Mavlon. - Yasha, Jo'ra!

Boshbek juvozxonaga qaradi.

- Men ham boramanmi?

- Bo'lmasam-chi! - do'q urdi O'sal. - Kemaga tushganning joni bir, deydilar.

Boshbek xomush tortib, cho'nqayib o'tirdi.

- Borsam, keyin meni amakim uyiga qo'ymaydi-da!

- Qo'ymasa, internatga borasan! - dedi Mavlon.

Boshbekning internatga o'tishi kerakligini geografiya o'qituvchisi Boymurod Xolmurodov ham necha marta aytgan (u kishi sevimli o'qituvchi), bunga Boshbekning ham ra'yи bor edi-yu, amakisidan qo'rqardi. Buning ustiga, otasini shu amakisi ko'mgan, rasm-rusumlarida bosh bo'lgan...

– Mayli, – deb yubordi Boshbek ham. – Yangi yer qayqanda?

Mavlon ham, O'sal ham olmazorga qarashdi. Bular ikkisi yoz boshida qiy supurib kelish uchun Qiziljarga uchto'rt marta borishgan, keyin katta yo'lga chiqib, mashinalarning o'tishini tomosha qilishgan edi: mashinalar uzoqdan qorayib turadigan Qoradara tomonga ketardi.

Maktab bolalarini ham o'sha yoqqa olib ketishardi.

– Yangi yermi? – dedi Mavlon. – Juda uzoqda! Qoradaridan narida! Mana, – hovliqib davom etdi, – qishloq yig'ini oldidan ketishyapti qancha kishi!

– Mavlon, borib so'rab kela qol, – dedi O'sal. – Ani g'ini... – shunday deb darhol fikridan qaytdi. – Yo'q... ular rejamizni bilib qolishadi, keyin otalarimizga aytishsa...

– Rost, – dedi Mavlon. – Bundan chiqdi, qochib ketamiz, shundaymi?

– Albatta, – dedi O'sal va birdan yig'lagisi keldi. Otasi payqab qolib, orqalaridan tushsami! Unda bir emas, ikki marta o'ldiradi! U kishiga sira-sira bildirmaslik kerak... Xo'sh, keyin nima bo'ladi? Paxtada o'n kun ishlab, talay pul topib kelsalar... O'salning otasi pulni ko'rgach, albatta, uning gunohidan o'tadi. Ha, «Aralash mollar» do'konida O'sal qadoqlangan tuz turib, o'zi suv sepib qo'ygan tuzdan sotganida, otasi qancha xursand bo'ldi... «Odam bo'lyapsan, o'g'lim! Kishi shunday pishiq bo'lishi kerak. Bular baribir bu tuzni yemakka ishlatishmaydi. Tomga sepishadi. Loyga qo'shib, tom suvashadi!»

– O'n kundan keyin qaytib kelamiz-a? – dedi Mavlon battar xursand bo'lib. – Keyin maktab!.. Ana kanikul – mana kanikul! O'sal, sen buyuk odamsan!

– Sen ham buyuk, – dedi O'sal.

Boshbek ham mammuniyat bilan:

– Nima olish kerak yo'lga, yeishgaga? – dedi.

O'salning fikri charaqlab ochilib ketdi: ha-da, och qorin bilan yurib bo'ladimi? Qiziljarga tushganlarida... U ichida shivirlab, o'ylay boshladi. «Mavlonning otasi yaqinda novvos so'ygan edi... Boshbek nima olsa ekan?»

- Xo'sh, o'zing nima olasan? - dedi unga.

Yaqinda bir beva xotin bir kilogramm yog' olgan, haqiga bir xaltacha jiyda tashlab ketgan edi. Amakisi: «Eshak jiyda ekan», deb juvozxona burchagiga tashlab qo'ygandi. Boshbek o'ylab o'tirmay:

- Jiyda olaman, - dedi. - Bir xalta jiyda!

- Qandak jiydami?

- Bilmayman...

- Non-chi, non?

- Eshik qulflog'.

O'sal Mavlonga tikildi.

- Jo'ra, qani, sen gapir.

Mavlon kiftini uchirdi.

- Oq qand. Patir non... - Mavlonning yodiga o'qigan va yoqtirgan sarguzashti kitoblaridan «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» tushib ketdi. - Sham olish kerak!

- Shamniyam yeb bo'lar ekanmi?

- Axir, kechasiga qolsak...

O'sal rozi bo'lди.

- Unday bo'lsa, gugurt ham olish kerak.

- Gugurtniyam men olaman, - dedi Boshbek.

- Yashirib qo'ygan yong'oqlaringniyam olasan, - do'q qildi O'sal. - Bilaman seni! Faqat bugun tosh otganining yo'q yong'oqqa? Paqqa bo'lganidan beri qiyratib yuribsan!

Boshbek aybini bo'yniga oldi.

- Do'l-do'l o'ynaymiz, deb ozgina opqo'ygan edim...

Lekin yerga o'zi to'kilganlarini terganman! Xudo ursin!

- Xudoga til tegizma!.. Qiziq gaplar gapiradi bu, Mavlon!

- Yo'q, shunday qasam bor-ku! - dedi Boshbek.

- Mavlon jo'ra, sen uylaringdan...

Mavlon «uylaringdan» so'zini eshitib, bir zum karaxt tortdi: hovuz to'lganmikan? To'limgan bo'lsa-yu, suvni yo'ldan bog'lab olishgan bo'lsa!.. Unda otasi buloqning boshiga yuboradi! U kishining gapini ikki qilolmaydi. Demak...

- Yana qovurdoq olib kelaman, - dedi Mavlon. - O'zimni hech kimga ko'rsatmayman.

- Yasha! - xursand bo'ldi O'sal. - Korezning orqasida uchrashamiz!

Mavlon ham shunchalar xursand bo'lib ketdi! Axir, korezga uylari etagidagi Chuqursoydan chiqib borildi. Buning ustiga, korezning suv chiqib ketayotgan tomonini ko'rmasan!

- Sen ikki karra buyuksan! - dedi u O'salga. - Boshbek, kelishdikmi?

- Kelishdik. Biz ikkovimiz boraveramiz-da?

- Ha, - dedi O'sal. - Lekin birga yurmaymiz! Men Ko'ptepadan oshib boraman. Sen bog' oralab borasan.

- Mayli.

- Endi jiydani opchiq!

Mavlon ham jildi-yu, ko'ngli g'alati bo'lib ketdi: na-hotki, qochib ketishsa? O'z qishloqlaridan!.. Lekin qiziq-da! Hadeb shu qishloqda yuraveradimi kishi? Odamlar kosmosga chiqib tushishyapti! Bular esa...

U birdan O'salning bilagidan qisdi.

- Biz o'lguncha jo'ra bo'lamiz-a?

- O'lguncha! - dedi O'sal va Boshbekka baqirdi: - Jo'na-da endi!

Boshbek burila solib ketdi.

- Tayoq ham ol! - deb qoldi O'sal. Mavlon jo'rasiga mehr bilan boqdi. Keyin uni bir quchoqlab olib, bedapoya pushtasidan zing'illay ketdi.

O'sal o'zini bosib olib, atrofni kuzatdi, Shokirko'rning qayoqqa ketganini tusmolladi. Keyin uning «Ashim ayyorning o'g'li!» degani esiga tushib, uyaldi... Yaxshi emas-da shu gap! Keyin eslab qoldi: Shokirko'r «ayyor» demadi. «Kalamush», dedi. U yaramas piyonista! Kalamush-a? Shunday katta odam! O'sal otasini ko'z oldiga keltirib, u kishining labi chetidan osilgan murtini... chindan ham kalamushning murtiga o'xshatdi.

«Otama aytaman! Ko'rning adabini berib qo'yadi!» deb ahd qildi-da, xurmani ko'tardi... Keyin xo'rsinib, tuproq yo'lga o'tdi. Yo'l yoqasidan pildirab keta boshladi.

Katta ariq qishloqni qiyalab o'tib, Chuqursoyga tu-shishdan oldin korezning tagidan o'tadi. Bu yer osti suv yo'lini, ya'ni korezni odamlar qazishmagan, suvning qadimgi yo'li: suv dastlab, chuqur, tabiiy hovuzga quyiladi. Hovuzning tagida o'raning og'zidek keladigan teshik bor. Suv teshikka kiradi-da, ro'parada do'mpayib turgan tepalik tagidan o'tib, uning orqasidan, kamardan otilib chiqib, soyga qo'shilib ketadi.

Ko'ptepadan oshib o'tgan O'sal daraxtlari siyraklasib qolgan eski bog' oralab, korezga chiqib bordi. Hovuz bo'yida to'xtab, ichkariga xavfsirab qaradi-da, hovuz tubidagi teshikni tomosha qilishga ham qiziqmay, tepalik bag'ridan qiyalab tushdi.

Kamarga ro'para bo'ldi. Ichkaridan salqin shabada yuziga urildi. Bir ariq suv oqib chiqib, qizg'ish qirralari sillqlanib ketgan toshlarni yalab o'tyapti.

Boshbek ham kichkina xaltani orqalab, enkayib tushib keldi. Suvdan bemalol o'tib, kamar soyasiga yo'naldi. O'sal ham jildi. Kamar ichiga uch-to'rt qadam kirib to'xtadi. Kamarning shifti baland. Suv otilib chiqayotgan joy - tosh oraliqlari ham ko'rinish turardi. Ular xurma bilan xaltani qo'yishdi-da, to'rga tikilib qolishdi. So'ng Boshbek o'sha yoqqa yurdi. O'sal ham jildi-yu,

beriroqda chirik daraxt ildizlariga o'ralib yotgan qizg'ish lattaga ko'zi tushdi. Yaqiniga borib tikildi. So'ng tortib ko'rdi. Latta chirib ketgan ekan, uzilib qo'liga chiqdi. O'sal yana olg'a jilmoqchi bo'ldi-yu, bu yerdan bir nima topadigandek battar qiziqib qoldi.

Boshbek suv otilayotgan joyga borib, uning zarrachalariga hovuchini tutdi. Suv zarb bilan tushar, hovuchi sira to'lmas, sachrab ketar edi.

– Men cho'milaman! – dedi u va har qachon yog' hidi anqib turadigan choponini yechib, yerga tashladi. O'sal o'ng qo'lga burildi. Bu yoqni hech ko'rмаган edi: yana kamar. Kattagina ayvondek. Yerda yumshoq tuproq. Odam izlari ham bor. Burchakda chala yongan o'tinlar. Uchta toshdan yasalgan o'choq. Toshlarning o'tga qaragan tomoni qorayib ketgan. Ichkarida kul. Shift ham ancha qoraygan.

O'sal nihoyat, o'choqqa teskari burchakda kichkina bola engashib kirsa bo'ladigan g'orni ko'rdi. Asta-sekin yurib, teshik oldiga bordi. Ichkariga tikildi. O'rgimchak to'rlari. Uyog'i keng.

– «Cha-cha», bu g'ormi?  
– G'or-da! – dedi Boshbek. U suvgaga oyog'ini tutib turar, suv oyoqqa urilib, kuchi pasayar edi. – Kirib ko'r!

– Bu g'orda tulki bo'ladimi?

– Bo'lishi mumkin.

– Izi yo'q-ku! Mana. O'rgimchak in qo'ygan.

Boshbek choponini yelkasiga tashlab keldi.

– O'zingni bilag'on chog'laysan. Tulki hech vaqt ini og'zida iz qoldirmaydi.

– Yo'g'asam, qanday qilib inga kiradi?

– Inning og'zi bitta bo'ladimi senga?!

– Dud qilsa, chiqar-a?

Boshbek ensasi qotgandek qo'l siltadi. Shunda tashqaridan kelgan tovush ularni «o'ziga» qaratdi.

- Mavlon!

Ular bu yoqqa burilishlari bilan Mavlon yetib kelgandi. Xurma bilan xaltani ko'rgan, keyin kamarning manzarasi uni mahliyo qilib qo'ygan edi: suvning op-poq ko'pirib otilib tushishini! Qiziq! O'sha yerning so'l tomonidagi qizg'ish yonbag'irning yeyilib ketgan joylari qat-qat, qavat-qavat. Taxmonda turgan qizg'ish ko'rpa qatlarini eslatadi! Shamol, shovqin! Qiziq...

So'ng qo'lidagi sumkasini o'rtoqlarining narsalari yoniga qo'ygan, tayog'iga tayanib, suvdan o'tgandi.

Shunda birdan... Tom Soyerning Bekki degan qiz bilan dahshatli g'orga kirgani, unda adashgani ko'z oldiga kelgan va uydan sham topolmaganiga achingan, so'ng birdan O'salning otini aytib chaqirgan edi.

U Boshbekni ko'rib:

- He-e! - dedi.
- Keldingmi?
- O'sal qani?
- Ana! G'or og'zida.
- Qanday g'or? Kattami?
- Kelmaysanmi?

Mavlon kamar to'ridagi g'orni ko'rib, beixtiyor yengil tortdi va oyog'i uchida bir-bir bosib, O'salning qoshiga bordi. Enkayib teshikka qaradi. Ichkariga qulq soldi. Dam O'salga, dam Boshbekka savol nazari bilan qaradi.

- Kiramizmi? - dedi Boshbek.

Mavlon hayajonlanib ketdi! Yana g'orga tikildi. O'salga iltimosomuz boqdi.

- Kiraylik, jo'ra.

- E, buning nimasi qiziq! - dedi O'sal va o'rnidan turdi-yu, shoshib qoldi. - Hech kim ko'rmadimi?.. Hovuz to'libdimi? Oldingmi ul-bul narsa?..

- Hammasini oldim. Hech kim ko'rmadi! - dedi Mavlon.

Shunda uchovlon ham ovozlari g'alati – guvullab eshitilayotganiga e'tibor berishdi. Mavlon esa g'orda tovushlari juda ham baland aks sado bilan jaranglashini o'yladi-yu:

– Men ikki qadamcha kirib chiqay, – dedi. – A, O'sal jo'ra?

– Mayli. Nimayam derdim... Jo'ramsan-da.

– Lekin ichkari qorong'i, – dedi Boshbek. – Qara, qop-qorong'i. Iloniyam bordir...

Mavlon turib qoldi: rost. Ilon bo'lishi mumkin! U g'orga yana engashib qaradi: iz-piz yo'q. O'rgimchak to'rlarini olib tashladi. Boshini suqdi.

– Ey, jo'ralar! Bilasizlarmi, munday g'orlar sirlarga to'la bo'ladi! – burilib xitob qildi u. Shu on qaysidir kitobda o'qigani – bosmachilarning g'orga kirib yashirin-gani yodiga tushib ketdi. – Bosmachilar ham yashash-gan... o'shanda! O'g'irlagan xazinalarini yashirishgan! Tillo tangalarni!

O'sal unga o'qrayib qoldi.

– He, yolg'onne... kupper-kunduzi gapiras-an-a?!

Mavlon ranjidi.

– Sen ishonmaysan-da! Bilmaysan ham, ishonmaysan ham. Bunday g'orlarda eski zamonda yovvoyi odamlar ham yashashgan! Hozir ulardan qolgan belgilarni topishyapti olimlar... Televizorda ko'rganmisan? Ummam, g'or... g'or-da!

– Mayli... Sen oldin kir-chi.

Bunday paytda har qanday kishi ham topag'on, tadbirdor bo'lib ketadi.

– Mash'ala qilamiz!.. Hozir! – Mavlon tayog'ini tashlab, tashqariga chopdi. Daraxt tomirlariga ilashib qolgan latta-puttalarni ko'tarib keldi. Tayoq uchiga o'rabb'o'rabb, O'salga tutdi.

– Yog'ingdan picha quy.

- Nimaga?.. Bu yog' yonadimi, «Cha-cha»?
- Shu yonsin-da! - deb Boshbek ham tashqariga chopdi va xurmani ko'tarib keldi.
- O'zimga ber! - O'sal xurmani oldi. Yog'ni isrof qilgisi yo'q edi. Bu yog'ga ikki marta ovqat qilsa bo'ladi... Bu nodonlar esa buni yoqmoqchi!
- Quy, - dedi Mavlon.
- Ozgina quyaman.
- Mayli.

O'sal xurmani qiyshaytirib lattaga tomizayotgan edi, Boshbek uning tirsagiga turtib yubordi - ancha yog' quyilib ketdi. Boshbek darhol chetga qochib, choponi ichidan tikilgan kissasidan yog' dog'i qolgan gugurt chiqardi.

- E, joning chiqsin! - dedi O'sal. - Uvol bo'ldi-ku, bilasanmi uvolni?
- Bilaman, - dedi Boshbek. - Mavlon, mash'alani yoq! Men ham kiraman!

= 3 =

Mavlon mash'alani yondirib, g'orga suqdi. So'ng emaklab ichkariga kirdi. Uning ketidan Boshbek emaklab tushdi. O'sal birpas karaxt turib qoldi: «G'orda xazina bo'lsa! Bosmachilar qo'ygan bo'lsa!.. - unga alam qildi. - Sen mash'aliasini yoqib ber! Ular xazinaga ega bo'lishsin! Esingni yebsan, O'sal!» Shunda ichkariga kirsa, xurma bilan xaltani, anavi sumkani ham birov ko'tarib ketadigandek bo'ldi-da, ularni g'or og'ziga olib kelib qo'ydi. So'ng engashib baqirdi:

- Hey! To'xtanglar!
- Katta! Maza! - degan bo'g'iq tovush eshitildi. O'sal g'orga o'rmalab kirib, burildi. Narsalarni tortib-tortib ichkariga kiritdi. O'rnashtirib qo'yib, to'rga burildi: zim-ziyo! Boshbek bilan Mavlon ancha narida. Enkayib

turishibdi. Mash'ala chirsillab yonyapti. Chindan ham g'orning u yog'i keng ekan, ular harqalay, tik turishibdi!

– To'xtanglar! Jo'ra emish bular!.. Bu yoqqa tut olovningni! Voy-bo'y!

U biroz emaklab borgach, beixtiyor cho'kkaladi. So'ng o'rnidan yarim turdi. Boshbekning tirsagidan tortib, uning oldiga o'tib oldi. Mavlon mash'alani oлdinga cho'zdi. Sal yurmaslaridan tepalarida ikkita qora sharpa aylana boshladi. Quloqlariga «tss-ss!» etgan keskin tovush eshitildi.

Ular sharpalarga, aniqrog'i, soyasimon sharpalarga qarashib:

– Ko'rshapalak! Ko'rshapalak! – deyishdi.

Ko'rshapalaklar ular ustida aylanarkan, yuzlariga tegib ketadigandek to'g'ri uchib kelardi-yu, tegdim deganda burilib qolishar, qanotlarining shabadasi yuzlarga urilardi.

– Olg'a! – dedi Mavlon.

– Ketdik. Olg'a! – dedi Boshbek.

Ko'rshapalaklar ko'payib ketdi. Ular birdan paydo bo'lib qolishardi-da, tepada quyundek aylanishar, keyin tarqab, g'oyib bo'lishardi. Nihoyat, ularning joyini Boshbek ko'rib qoldi.

– Mavlon! Tepaga qara!

Shift ulardan bir qarich bo'yi balandda – unda bami-soli uzum boshlari osilib turardi. Lekin har dona uzunda bir juft ko'zmunchoq bordek yaltiraydi: ha, bu boshlar – bir-biriga oyoqlari bilan yopishib olib, kallalarini pastga osiltirib, ko'zlarini yaltiratib yotgan g'or qushlari edi! Alanga yaqinlashganda, «bosh»laridan «dona»lari bittalab uziladi. Uziladi-yu, yerga tushmay, qanot chiqarib uchadi. Keyin ikkinchisi uzilib uchadi. Keyin to'p tarqab ketadi!.. Ana shunda ular mash'alani yerga tutib, hayron qolishdi: tepacha-tepacha bo'lib, qora

do'ppidek narsalar turardi. Mavlon asta qo'l tegizdi: shunday mayinki, barmog'i hech narsani sezmadni. Lekin barmoq teggan yer bosildi. Yopiray! Ular mitti tivit to'plari edi! Ko'rshapalaklardan to'kilgan tivitlar! Shunday tepacha-tepacha bo'lib qolibdi!

Necha yilda... necha o'n yilda... yuz yilda to'plangan bu tivit uyumlari!

- Juni, juni-ya! - dedi O'sal.

- Gugurt chaqsak, yonib ketar? - dedi Boshbek.

- Mumkin emas! - dedi Mavlon. - Lekin bu g'orga ancha yillardan buyon odam kirmaganini shundan bilsa bo'ladi... Balki umuman kirmagandir!

O'sal xo'mraydi.

- Bosmachiyammi?.. O'zing aytding-ku, xazina ko'mishgan deb.

Mavlon ranjidi.

- Nuqlu pulni o'ylaysan-a!

O'sal bo'sh kelmadi.

- O'ylasam, o'zim uchun o'yladimmi? Davlatga top-shiramiz-da!

- Sen buyuksan, jo'ra!

- Endi... nima qilamiz?

- Nima... olg'a!

Mavlon mash'alani tutgancha oldinga yurdi. Endi ular oldinga va yon devorlarga qarashar, ayniqsa, yon devorlar tomoshali edi. Devorlar toshdan, g'adir-budir. Nuqlu yalt-yult qiladi. Xuddi tillodan yasalgandek. O'sal uch-to'rt marta devorni paypaslab ko'rди. Yaltiroq toshlar nam edi. Shundan keyin g'or ichi tashqariga nisbatan juda ham nam ekani, namlik tobora ko'payib borayotganini payqadilar.

Nihoyat, oyoqlari osti ham namligini sezishdi. Buni dastlab yalangoyoq Boshbek sezdi va:

- Ilon yo'q, - dedi. - Ilon namda yotmaydi.

Bir mahal shifti baland, keng joydan chiqishibdi. Ha, yon devorlar ham chekingandi. Oyoq ostida tuproq yo'q. Qotib-birikib qolgan shag'altoshlar. Bir necha qadam bosib, kattagina ko'l bo'yiga chiqib qolishdi.

Suvda mash'ala aksi lovullaydi. Shift ham yarqirab tovlanadi. Lekin tagi ko'rinish turibdi. Mavlon cho'nqayib, suv ostida bir nima bor-u, uni oladigandek termildi. Hech narsa yo'q.

- E, qunduz, qunduz!

Tog' buloqlarida, xilvat ko'lmaklar yuzida mitti qora pashshadek, juda yaltiroq hasharotlar suzib yuradi. To'p-to'p bo'lib tez suzadi. O'shalarning oti - qunduz.

Haqiqatan ham, ko'lning o'ttasida bir gala qunduz suzib yurar, orqalarida ipdek izlari qolib borardi. O'rinalidan turishganda, Boshbekning oyog'i toyib, tizzasigacha suvga botdi. Bolalar tagi ko'rinish turgan ko'l ancha chuqur ekanini sezishdi. Shuning uchun ehtiyyot bo'lish kerak.

- Sirpanchiq ekan! Muzdek!.. Ammo-lekin kirganimiz yaxshi bo'ldi-a, Mavlon? Endi bu g'or o'zimizniki!

Ko'lning chetidan yurib narigi betga o'tdilar. U yoqda kenggina, tekisgina maydon yastangan, qumdek mayin tuprog'i chiqib yotar va tuproqda... talay oyoq izlari bor edi! Bolalar izlar ustida mixlanib qolishdi!

- Odamning izi-ku! - dedi O'sal. - Mana senga odam kirmagan g'or!

Mavlon enkayib izlarga qo'lini tegizib ko'rdi. Ular ning eski yoki yangilagini bila olmadi. Biroq hayajoni kuchayib ketdi: «Yovvoyi odamlardan qolgan izlarmi?.. Yovvoyilar yalangoyoq yurishgan-da!» U bu yangilikni aytish uchun jiddiy tortib, qaddini ko'tardi.

- O'rtoqlar, bu g'orda ancha-muncha sir borga o'xshaydi!

– Masalan, – dedi Boshbek, – shu izlarga hayron qolayotgan bo'lsang, hayron bo'lmay qo'ya qol, jo'ra... Menga o'xshab yalangoyoq kirgan, xolos. Nima deding, O'sal?

– Rost.

– Unday bo'lsa, g'or og'zida iz yo'q-ku! – dedi Mavlon.  
– Yo oyog'ini qo'liga olib kirganmi o'sha?

Boshbek ham yelkasini qisdi. Ularning vahimasi kuchaydi. Yana shiftga, ko'lga qarashdi.

– Balki bosmachining izidir? – dedi O'sal. – Yalang-oyoq qochib kirgan bo'lsa, o'shanda?..

– Bo'lishi mumkin, – dedi Mavlon. – Unday bo'lsa, g'orni tekshiraylik!

Ular jonlanib qolishdi. Mash'alani «menga ber, men-ga ber», deyishib, uchovlon g'or ichini bir chekkadan ko'zdan kechirishga qaror qilishdi-yu, g'orning yana davom etgani ularning diqqatini tortdi. Endi ehtiyyot-korlik bilan olg'a yurishdi. Va shift birdan pasaya boshlayotganini ko'rishdi. So'ng g'or tugadi! Ha, adoq – taqa-taq tosh devor.

Mavlon devorni silab ko'rди. O'sal ham siladi-yu, xuddi uni yiqitish mumkindek bir-ikki itardi. Keyin «davomi bormi?» deb burchaklarga qarashdi. Endi g'orni bemalol tekshirish mumkin-da! Agar g'or yana davom etsaydi...

Ular ko'rmagan burchak, paypaslamagan yer qol-madi. Ko'l atrofini ham «tintuv» qilishdi. Ular kutgan «narsa» chiqmadi!

Yana... tuproqda qolgan va aniq bilinib turgan oyoq izlariga tikilib qolishdi.

– Oyog'ingni qo'yib ko'r-chi, – dedi Mavlon.

Boshbek oyog'ini izga bosgandi... xuddi o'zining izidek loyiq keldi. To'g'ri, uch tomoni biroz tirnalgan: oyog'ini olganda, panjalar tirnagan bo'lsa kerak.

- Tag'in o'zing avval kelib, bu izlarni qoldirib chiq-  
qan bo'lma? - do'q qildi O'sal.

- Qoch-e! - dedi Boshbek. - O'zim hayron qolib turib-  
man-ku! Buning gapini qara... Mavlon, sen ko'p o'qigan  
kishisan, ayt-chi, bu izlar qayerdan paydo bo'lganiykin?  
Hali menga o'xshagan yalangoyoq bola kirgandir-da,  
deb hazillashuvdim...

- Bilmayman! - dedi Mavlon. U boshqa narsadan xafa  
edi: g'orga kirishni o'zi taklif qildi... Bu g'or sirli, dedi.  
Xazinasi bor, dedi. Hatto, yovvoyi odamlardan belgilar  
ham qolgandir, dedi... Qani o'shalar? Hech narsa yo'q...  
Agar izlarni aytmasa! Endi u g'orning chuqur emasligini  
ko'rib, yana xafa bo'lib ketdi: «Shuyam g'ormi? G'or de-  
gani chuqur bo'lsa... Kirganga yarasha, adashsang! Uyat  
bo'ldi... Aytmoqchi, ketishimiz kerak-ku!»

- O'rtoqlar, bu g'or-por emas ekan, - dedi alam bilan.  
- Endi chiqishimiz kerak!

- O'zim ham biluvdim, - dedi O'sal.

- Hech ham bilganing yo'q-da!

O'sal Mavltonni jerkib tashlamoqchi bo'ldi-yu, safar  
uzoqligi, Mavlonning yordami hali ko'p tegishini o'ylab:

- Rost aytasan, jo'ra, - deb rozi bo'ldi.

- Ey, Mavlon! - dedi Boshbek. - Yovvoyi odamlardan  
boshqa belgi qolmaydimi?

- Boshqa... - Mavlon aqlini peshlab, birdan esladi:

- Qoladi! Misol uchun, devorlarga chizilgan suratlar!  
Xo'sh, sodda yozuvlar! - shunday deb, devorga qarash-  
maganiga o'zi taajjublandi. Axir, qarash kerak-ku! Eng  
muhim yangilik shu devorlarda bo'lishi mumkin!

- Misol uchun, - dedi O'sal, - biz o'sha rasmlardan  
topdik deylik, unda nima bo'ladi?

- Keyin olimlar kelib ko'chirib olishadi!

- Keyin-chi?.. Bizga nima nafi bor? Topganimiz  
uchun, a, Boshbek?

- Bizga mukofot beradi! - dedi Mavlon. - Bizni maqtab gazetaga yozishadi!

- Gazetaga?!

- Ha-da.

- Meniyam-a?!

- Nimaga endi, topsak... sen qolishing kerak?

Mavlon mash'alani silkitib, uchidagi kuyukni tu-shirdi. Yog' kamayib qolgan, shuning uchun latta yonib, qo'lansa hid tarata boshlagandi.

Mavlon mash'alani ko'tarib, devorga yaqinlashtirdi. Boshbek undan orqada qolmadi. O'sal joyida turaverdi. Qaytanga u turgan yerdan atrof baralla ko'rinaridi.

Ular qaytib kelisharkan, O'sal ro'parasida oqarib tur-gan yozuvlarni ko'rib qoldi. Hayajonlanganidan ularga tikilolmadi: tikilsa, o'rtoqlari ham darhol ko'rib qola-digandek tuyuldi! Bir muddat sabr qilgach: «Aytay-mi? - deb ko'nglidan o'tkazdi. - Keyin o'zim kelib... Bir o'zim?» Shunda tag'in devorga qaraganini bilmay qoldi. Xayriyat, ular yana payqashmadidi. Mavlon o'ti pasayib qolgan mash'alani suv yuziga tutib, ko'lni sinchiklab qaray boshladidi.

«O'n kun paxtada yursak... - o'yladi O'sal, - ungacha boshqa birovlar kelib ko'rsa!...»

- Mavlon! - dedi O'sal. - Menga qara... «Cha-cha», sen ham!

- Xo'sh? - deyishdi ular.

- Misol uchun, men topsam nima bo'ladi?

- Nima, - dedi Mavlon. - Yaxshi bo'ladi!

- Uni so'rayotganim yo'q! Shu bola... Ashimup Asal topdi, deb yozishadi-a?!

- Albatta-da, - dedi Boshbek. - Lekin jo'ralari bilan g'orga kirgan ekan, topibdi, deyishadi...

- Bundan chiqdi, sizlarga ham mukofot bo'ladimi?

- Ha.

- Sizlar menga yordam bermoqchisizlar-a?

- Ha.

- Unday bo'lsa, - dedi O'sal, - menga olgan mukofo-timiz ham seniki, deb va'da beringlar.

- Sen rosti bilan?.. - duduqlanib qoldi Mavlon. - E, men roziman.

- Men ham! - dedi Boshbek.

- Qasam ichinglar!

Boshbek gangib, shiftga qaradi-yu, ro'parasidagi oqish yozuvlarga ko'zi tushdi. O'sal uning ko'rganini sezib, og'zini yopmoqchi edi, Boshbek baqirib ulgurdi:

- Ana! Ana!

O'sal uni urdi. Boshbek gandiraklab ketib, o'zini tutib qoldi. Mavlon mash'alani yozuvlarga tutgandi, O'sal uning qarshisiga o'tib, qo'llarini ko'tarib, yozuvni yashirgan bo'ldi.

- O'qimaysan! Men topdim!

- Xo'p. Sen, sen!

- Sen... o'g'risan, - dedi O'sal Boshbekka. - Hech narsaga haqqing yo'q!.. Qaytanga seni gazetaga urib chiqish kerak! Bildingmi? Yong'oq o'g'risi... Pul o'g'risi!

Boshbek unga otildi. Yoqasidan ushlab tumshug'iga kalla qo'ymoqchi edi, Mavlon ular orasiga mash'alani suqdi. Ular chetlanib, uchovlon beixtiyor yana devorga qarashdi. Unda bo'r bilan yozilgan «Eshmat va Toshmat» ko'rini turardi. Ular bir-biriga qarashdi. So'ng xo'rsinishdi. Mavlon jilmaydi. Boshbek so'kinib, nari ketdi. O'sal yerga tupurdi-da:

- Buni... kim yozgan? - dedi.

- Sen bilan menga o'xshagan bolalar, - dedi Mavlon.

- Yo'-o'q, - chetdan baqirdi Boshbek. - Yovvoyi odamlar yozgan! O'sal topdi!

O'sal unga xezlangandi, Boshbek yerdan bir changal tuproq oldi.

– Yaqin kelsang, ko'zing ko'r bo'ladi, ayyor!.. Sening otang ayyor!

Mavlon yana mash'alani ular orasiga suqdi.

– Yana bitta gapirsanglar... men ketaman!

– E, men ham ketaman! – dedi Boshbek.

O'sal bo'shashdi, suvg'a qaradi. Cho'nqaydi, piqilladi.

– Pul yo'qolmaganda... g'orni boshimga uramanmi!

Yozuvning nima keragi bor! Olimlarga kerak bo'lsa, o'zлari qidirib topaversin!

– Topishadi! – dedi Mavlon. – Tur o'rningdan!

– Tur!.. Boshbek, unga qo'lingni ber. Ber endi!.. Uyat!  
Hali qishloqdan chiqmay turib, shuncha janjal!

O'sal piq-piq yig'lab, o'rnidan turdi. Boshbek Mavlonga qaray-qaray yuzini teskari o'girib, O'salga qo'lini uzatdi. O'sal ushlab qo'yordi.

– Ketamiz! – dedi Mavlon. – Mana buyam o'chaman deyapti! – keyin ko'l chetidan yo'l boshlarkan, ich-ichidan achinib ketdi: «Hech narsa topolmadik. Axir, kitoblarda yosh bolalar ham topishadi-ku! Xazina bo'lmasa, yozuv... Yozuv bo'lmasa, qurol-aslaha! Omadimiz yo'q...»

Sal yurgach, xayolini boshqa narsa band etdi: g'ordan ham qiziq narsani ko'rgani ketishyapti-ku! Paxtaga! Op-poq qog'ozdek yerga! Mavlon mash'alani tashqariga otib, xurmani surarkan, birdan tuproqqa tikilib qoldi: ajabo, o'zlarining izi qani? Oyoqlarining izi-chi? U kulib yubordi.

– Bolalar, emaklab kirdig-a?

– Ha.

– Bizdan ham iz qolmabdi.

...Har kim o'ziga tegishli narsani ko'tardi. Suv otilib tushayotgan joyda to'xtab, orqaga – g'or og'ziga qarashdi. Beixtiyor g'or bilan xayrlashdilar.

– Ikki kundan keyin g'or og'zini yana o'rgimchak to'ri qoplab oladi, – dedi Mavlon.

- Rost, - dedi Boshbek. - Shunday qilib pashsha tutadi-da.

= 4 =

Ular kamardan chiqqanlarida, tepalikning soyasi soyning o'rtasigacha cho'zilib qolgan, soyada qolgan suv sho'x shildirab oqardi. Qarshi betda so'ppayib turgan xayrigullar qimir etmaydi. Hasharotlarning «jiz-piz», «iz-iz» degan tovushlari eshitiladi.

Uchovlon oldinma-ketin tepaga o'rashar ekan, Chuqursoy adog'idan - Mavlon kelgan tomondan ovoz eshitildi. Qarab, devor pastida turgan ikki kishini ko'rishdi. Ulardan bittasi qo'lini silkitardi. Ikkinchisi devorga chiqdi.

Nega ular chaqiryapti? Kimlar o'zi? Buni yigitchalarining bittasi ham o'ylamay, tepadan oshib ketishdi. Yonbag'irda bir muddat turishdi-da, yashiringani joy izlashdi. Boshbek ancha pastga tushib olgan edi. Shunday yon betda chuqur kirgan o'yiqni ko'rdi. Darhol tushundi: bu o'yiqdan odamlar sariq qum qazib olishgan. Sariq qum qattiq, qumoq-qumoq bo'ladi. U bilan suvalgan devorga nam o'tmaydi. Uni mana shunday joylardan qazib olishadi.

- Baqqa kenglar!

Mavlon bilan O'sal uning yoniga tushib, kamarchaga kirib olishdi. Bir mahal kamar tepasi dukulladi: qadam tovushlari eshitildi.

Bolalar o'tirgan yerlarida enkayib, tepada turganlarni ko'radigandek tesha izi qolgan qum qatlamiciga tikilishi. «Qadam tovushlari» yon tomonga jildi: tepadagilar yon betdan tushishmoqda edi.

O'sal Mavlonga ta'na nazari bilan qaradi.

- Kelayotganimni hech kim ko'rmadi, deding... Shuncha bola cho'milayotgan edi!

- Vahima qilma, - dedi Mavlon. - Men uyg'a borgan-da, hovuz bo'yida hech zog' qolmagan edi.

O'sal Boshbekka olaydi.

- Seni-chi, bu yoqqa kelayotganiningni biror kimsa ko'rmaganmidi?

- Ko'rgan bo'lsa, ko'rgandir, - dedi Boshbek. - Bir-rovning men bilan nima ishi bor?

O'salning ko'ngliga yomon vahima tushdi: otasi uni kutib-kutib, ko'chaga chiqqan bo'lsa... Hammom oldiga kelgan bo'lsa! U yerda O'salni birortasi ko'rgan, albatta. Ular aytgan bo'lsa. Keyin...

Endi Mavlon ham hayajonga tushgandi: ularning bu yoqqa kelayotganini biron kishi sezgan bo'lsa-yu, otasi-ga aytgan bo'lsa, ajabmas! O'sal uyg'a borgandi-ku! Mavlonning u bilan ketganini bolalar ko'rgandi.

Boshbekning ham ko'ngliga qo'rquv tushdi: «Amakim kelgan bo'lsa... Yangam meni olisdan ko'rgan bo'lsa...»

- E, menga baribir, - dedi u birdan. - Endi internatga boraman!.. To'g'rimi, Mavlon?

- To'g'ri.

O'sal battar xavotirga tushdi: tutib, otasiga top-shirishsa-ya! Pulni yo'qtogani - bir. Qochib ketayotgani - ikki! Aldamchiligi...

O'sal chuqur uf tortdi-da:

- Jo'ralar, bir iltimosim bor, - dedi.

- Ayt, - dedi Mavlon.

- Xo'p desang, seniyam jo'ra qilamiz, - dedi O'sal Boshbekka.

- E, men... - g'udurladi Boshbek. - Nima demoq-chisan?

- Shu... jo'ralar bir-birini qo'llaydi-a? Qo'llaydi!.. Kema ga tushganning joni bir... U yog'ini aysam, Mavlon, seni otang yaxshi! To'g'rimi? Bilaman... yaxshi! Buning otasi yo'q, bunga baribir...

- Xo'sh, cho'zmay ayta qol.
- Shu... bizni ushlab so'roq qilishsa, O'salning besh so'mi yo'qoldi, shuning uchun ketyapmiz, deysizlar-a? Shuning uchun-ku!
- Ha-da.
- Iltimos, bu fikr mendan chiqqan bo'lmasin. Otam eshitsa, darrov o'ldiradi!..
- Tushunmadim?
- Misol uchun, yangi yerga borish fikri... Boshbek-dan chiqqan bo'lsa, a?
- Bekor aytibsan! - dedi Boshbek.
- Senga baribir-ku!
- Baribir bo'lsayam...
- Xo'p. Mendan chiqdi, - dedi Mavlon.  
O'sal unga achinib tikildi.
- O'l-e, - dedi Boshbek O'salga va shosha-pisha qumni changalladi.

Shunda ularning ro'parasidan – pastlikdan semiz bu-zoqning bo'yniga belbog' solib olgan bir kishi sudrab, bir kishi uning dumini qayirib o'tdi.

– Qochadigan senmi-a? He, qatala tutib o'l!<sup>3</sup>

Yigitchalar ularning so'zlarini eshitib, jim qolishdi. Keyin bir nafas xomush bo'lib o'tirishdi-da, tash-qariga chiqishdi. Beixtiyor vahimalari, o'ylarini eslab, o'z-o'zlaridan ichlarida uyalishdi. Bu his ularga quvvat bo'lib, keyingi tepalikka yo'l olishdi.

Tepalar!

- Men ochqadim, - dedi Mavlon.
- Men ham, - deya Boshbek to'xtadi-da, xaltasini yerga qo'yib, ochdi. Bir changal jiyda oldi. Uni ko'rib, O'sal ham bir hovuch oldi. Mavlon ham sumkasini yerga qo'ydi.

<sup>3</sup> So'na chaqqanda molning qochishi.

– Qovurdoq yeymizmi?  
O'sal yegisi kelib tursa-da, bu yerda o'tirish xavfli ekanini o'ylab:

– Qiziljarga yetaylik, – dedi.

Mavlon noiloj rozi bo'ldi. Yana yo'l. Lekin jiyda jiydaligini qildi: O'sal bilan Boshbek chanqab qolishdi. Boshbek bildirmaydi. O'sal esa nimaga suvsaganini bilolmaydi: suv idish olmaganlari – uni suvgaga to'ldirib olmaganlari uchun Boshbekni aybdor qiladi.

Ittifoqo, yo'llarida qoq uchradi. Ya'ni bahor yomg'irlaridan to'planib qolgan – tosh hovuzdagiga suv uchradi. Biroq uni suv deb bo'lmasdi: sarg'ish, allanechuk quyuq narsa. Ichida son-sanoqsiz itbaliqlar, chetlarida mollarning tuyoq izlari.

To'xtab qolishdi.

– Ichasanmi? – dedi Mavlon.

– Baribir... halol! – dedi O'sal va xurmani yerga qo'yib, tiz cho'kdi. Qo'llarini ikki yoniga tirab engashgandi, beli «chim» etdi: chumoli chaqdi. U sal qimirlagandi, og'riq shu zamon qolganini his etdi. «Chumoli chaqdimi?» U har ehtimolga qarshi chimillagan yerda hasharot bo'lsa, ezg'ilab tashlash uchun lippasini g'ijimlab qo'yordi-yu, unda qalingina boshqa bir narsa borligini payqadi. Bir-dan o'tirib oldi. Lippasining o'sha joyini ushlab tortdi.

– Ha? – dedi Mavlon.

– Shoshma, – dedi shivirlab O'sal va lippa ichidagi narsani bog' o'tkaziladigan teshik tomonga sura boshladi. Surdi. Narsa teshikka yaqinlashgani sari uning chehrasi ochilib, yuragi gupullab ura boshladi.

Ha, «Aralash mollar» do'konida savdo qila-qila qo'li pulga o'rgangan O'sal... sirli narsaning aqcha ekanini sezgan edi. Lekin o'ziga ishonmasdi!

Teshikdan qog'ozning – silliq qog'ozning uchi, so'ng yarmisi chiqdi. O'zi... Uzunasiga buklangan besh

so'mlik pul edi. O'sal uni tizzasiga yozib qo'ydi. Iljayib tikildi. So'ng:

- Mavlon, shuni yirtib-yirtib tashlaymi? – dedi.
- Yirtib ko'r, – dedi Boshbek. – Shu zahoti o'zingni o'dirarsan!

– Oxir mendan tayoq yeysan, bola!

Mavlon ham asta cho'nqaydi. Pulni qo'liga oldi.

– Qiziq, – dedi. – Shuning uchun-a!.. – allaqayeri g'ashlandi: yo'q! Shu shildiroq qog'ozni deb yo'lga chiqmadi u!.. Yangi yerni ko'raman, deb chiqdi. Paxtani ko'raman, teraman, deb chiqdi-ku! Yo'q-yo'q! Yana, jo'ramga yordam beraman, deb chiqdi-ku!..

Mavlon besh so'mlikni O'salga berdi-yu:

– Endi... bormaymizmi? – dedi alam bilan.

O'sal ishshaydi: albatta!.. U hozir oyog'ini qo'liga olib, uyga yuguradi! Lekin xurmaga ehtiyyot bo'ladi. Xurma-da yog' bor... Uylariga yetadi. Otasiga: «Mana, oz-moz bor ekan... «Cha-cha»ning amakisi yukka ketgan ekan. Yangasiyam yo'q ekan... O'shalarni kutib o'tirdim!» deydi. Otasi undan ranjimaydi.

Ammo-lekin pulning biroz vaqt yo'q bo'lib turgani-yam yaxshi bo'ldi: O'sal Yangi yerga borib, pul ishlab kelish mumkinligiga ishondi. Buning ustiga, g'orda xazina bo'lishini bildi...

– Ha-da! – dedi O'sal.

Boshbek xafa edi; yana amakisining uyiga boradi. Yoki... bormasa-chi?

– Menga qolsa ketaverGANIMIZ yaxshi! – dedi u. – A, Mavlon?

– Yo'q, – O'sal hiringlab kului. – Nimaga endi? Endi uyga qaytamiz. Ammo-lekin sizlarga rahmat!

Boshbek xo'rsinib, birdan qo'lini siltadi.

– Sengayam rahmat. Kimligingni bildik!..

- Yanami?
- Yarash-yarash, - dedi Mavlon. Biroq ich-ichida Boshbekning gaplarini haqiqat deb hisobladi: ha, O'sal o'zini ko'rsatdi...

O'sal pulni bukladi. Do'ppisini olib, ichiga tashladi-da, asta boshiga kiydi. So'ng do'ppi atrofini siypab qo'ydi: chiqib qolmabdimi?

Uchovlon yana bir saf bo'lib, orqaga qaytishdi. Hademay Chuqursoydan o'tishdi. Ko'chada Mavlon qoldi. Darchalaridan asta kirib, hovuz tomonga o'tdi.

Boshbek Ko'ptepa pastida O'sal bilan xayrslashdi. Amakisi bir og'iz qattiq gap qilsa, internatga ketishni o'ylab, qishloq idorasi tomon yo'l oldi.

O'sal hammom oldidan tez o'tib, tor-toshloq ko'chalariga burildi. Ishshayib darvozalaridan kirib bordi. So'ng xurmani yerga qo'yib, do'ppisini oldi.

## OQ TURNA

Cho'loq turna tuxumdan kech chiqdi. Chiqqanidan keyin ham o'ng oyog'ini ololmay ancha yotdi, tipirchiladi, tukdan iborat qanotchalarini qoqdi. O'zini paydo qilgan tuxum po'chog'iga tizzasidan pasti yopishib qolgan edi. Nihoyat, undan xalos bo'ldi-yu, o'ng tomonga mayishib, atrofiga mayda shag'al toshlar terib qo'yilgan, qumga qattiqroq bosilgan tuya izidek uyasida bir-ikki aylandi. So'ng ma'yus, ojiz ovoz chiqarib, boshini zo'rg'a ko'tarib, anchagacha qaltirab turdi.

U nafas olar - yangi olam havosidan nafas olar, badaniga yangi olamning - iliq bahor quyoshining nurlari singar, shuning uchun qaltirar, hali bu hayotga ko'nikmagan edi.

Bir payt yon tomondagi qalin shuvoqlar ortidan qattiq va dahshatli «qaq-qaq» etgan tovush eshitildi. Tur-

nacha qattiq qimirlab, yana shikastlangan oyog'i to-monga yiqlidi. Yana ancha tipirchilab yotdi. Endi, bu tipirchilashida o'zini o'nglab olishdan ko'ra qandaydir sirli xavfdan yashirinishga intilish bor, chunki jajji tur-nacha onasining ovozidan buni his etgan edi.

Haqiqatan ham, Ona-turna qalin shuvoqlar ortida uchta jo'jasini ergashtirib, yerda sochilgan o't-o'lanylар urug'ini terib, yeb yurar ekan, olisda makkor tulkini ko'rib, shunday shovqinli ovoz chiqargan edi.

Tulki cho'loq turnachaning isini olib yaqinlashgan, Ona-turna buning uchun emas, yo'q, – u endi tuxum-dagi naslidan voz kechgan, – yonidagi jo'jalari va o'zini o'ylab, shovqin ko'targandi.

Tulki dumini xoda qilib qochib qoldi. Ona-turna bolalarini ergashtirib, tag'in uyasi yonidan, g'oyat ustalik bilan «yasagan» uyasi yonidan o'tarkan, u yoqqa beixtiyor qarab, Cho'loq turnachani ko'rdi. Bo'ynini g'oz cho'zib, ko'ksidagi echki soqoldek osilgan qora patlarini selkillatib, uning qoshiga keldi. Tumshug'i bilan turtgan bo'ldi. Ixcham, ingichka oyoqlarini ildam ko'tarib, ustidan o'tdi. So'ng bo'ynini gajak qilib, bolasiga birpas tepadan qarab turdi-da, tag'in uning ustidan hatlab, narda alang-jalang bo'lib, har tarafga talpinayotgan sog' jo'jalari yoniga ketdi.

Cho'loq turna daf'atan ustida paydo bo'lgan soyadan najot kutib, unga intilgancha qolaverdi.

Bu holni kuzatgan inson hayron qoladi: Ona-turnani shafqatsizlik qildi, deb o'ylaydi. Aslida bunday emas: illo, bu tur qushlarning ham o'ziga yarasha mehr-shafqati bo'ladi. Bo'ladi-yu, lekin o'zga qonun bu hisdan ham ustun turadi. Bu – yashamoq qonuni, surriyot qoldirish va uning sog'lom kamol topib, o'zining ushbu ishini istiqbolda takrorlashiga bo'lgan tabiiy va tug'ma ehtiyoj qonunidir. Shuning uchun ular surriyotni buzadigan va

istiqbolda yashashi og'ir bo'lgan farzandlaridan oson-gina voz kechishadi.

Cho'loq turnaning mayda shag'al toshchalar ustidan o'tishi ham mashaqqatli bo'ldi. Shundan keyin ham anchagacha yoniga ag'anab yotdi. Nihoyat, o'zini o'nglab, ne bir his-sezgi bilan quruq yerga tumshug'ini urdi.

U ovqatga muhtoj – yangi olamda xo'rak topish shu tarzda sodir bo'lishini tuyg'u bilan tuygan edi.

Ona-turna bolalarini hamon ergashtirib, ba'zan «g'ut-g'ut» ovoz chiqarib, don yeishga undar, ular donlashar ekan, u benihoya uzun bo'ynini cho'zib, atrof-tevarakka qarab turardi. Nihoyat, olislarga chigirtka va kamyob o't barglarini izlab ketgan Ota-turna ham uchib keldi. Keng qanotlarini yoniga tap-tap urib, uzun oyoqlarini cho'zib, yerga qo'ndi. U qo'nishi bilan Ona-turna parvoz qildi. Ota-turna esa bolalari o'rtasi-ga kirib, «g'ut-g'ut» deya yerga qusti. Turnachalar ota jig'ildonida hazm bo'lмаган, ho'l, yutumli xo'rakni cho'qib-cho'qib yemoqqa tutindilar.

Nihoyat, u jo'jalarni ergashtirib, atrofiga toshchalar terilgan uyasiga keldi va Cho'loq turnachani ko'rib, bo'ynini cho'zdi. Keyin, uni oyog'ida turtib ko'rgan bo'ldi. Keyin, parvo qilmay, uyaga o'tdi-da, qanotlarini yoyib, asta pasaya boshladi. Turnachalar «chiy-chiy»-lashib, otaning issiq patlari ostiga kirib olishdi.

Cho'loq turna otasi sharpasidan ham o'ziga yaqinlik, boshpana hissini tuygan, aka va opalari ovozidan ham aslo hayiqmagan edi. U ham ne bir issiq talpinish ila uyaga intildi. Bir amallab toshchalardan o'tdi. Va dumalab-turib, issiq qanot tagiga suqildi.

Ehtimol, Cho'loq turna uyaga kirolmaganda, Ota-turna unga parvosiz qolaverar edi. Biroq endi uning harakatda ekanimi sabab, qanoti ostiga kirishga qarshilik qilmadi.

Otaning bag'ri – tashqaridagi iliq oftobdan ham yoqimli edi. Eng muhimi – Cho'loq turnachaning qal-tirashi bosalgan, uning vujudiga bir bexavotirlik va ishonch kirgan edi.

Ona-turna kelganda, Ota-turna tag'in bolalarini qanoti ostidan chiqardi. Cho'loq turnacha onasi jig'ildoni dan tushgan xo'rakni ko'rib, unga intildi. Aka-opalar-ri qatori yeb oldi. Keyin, albatta, qorni to'y may, uzoq «chiy-chiy»ladi. Keyin onasining ham bag'riga kirdi.

Ona-turna ham boy a'rib etmagan jo'jasini endi a'rib bilan yumshoq patlari ila berkitib oldi.

Kun botishi oldidan Ona-turna yana oyoqqa turdi. Yana bolalarini yantoqzor ortiga boshladi. Endi Cho'loq turnacha ham ulardan ortda qolmay ergashdi. Endi Ona-turna ikki marta to'xtab, uning yetib kelishini kutdi. Nihoyat, Cho'loq turnacha ham onasi «g'ut-g'ut»lab chaqirgan yerdan don terib yedi.

So'ng Ona-turna kattakon yovshanning kungay tomoniga yonboshlab, yumshoq, iliqqina qum-tuproqni qanotlari va oyoqlari ila tita boshladi, keyin unga bag'ri ni berib yotdi. Cho'loq turnacha ham aka va opalariga o'xshab qumtuproqqa yotdi. Tuproq iliq, yoqimli – bunda quyosh tafti-yu, ona-ota bag'ridagi haroratdan ham ziyyodroq bir nima bor edi.

Ota-turna tevarakda mag'rur kezib, atrof-olislarga ko'z tashlab yurar, goho o'z-o'zicha «qaq-qaq» etib yangroq tovush chiqarib qo'yar edi. U har tovush chiqarganda Ona-turna boshini bir ko'tarib qarar, so'ng yana xotirjam bo'lardi.

Turnalar bir xil tovush chiqargani bilan ma'nosi ko'p bo'ladi, zero, ularning inson qulog'iga bir xil bo'lib eshitiladigan ovozlarida turfa ohanglar bor.

Yovshan va yantoqlar to'p-to'p bo'lib o'sgan, ulardan xoli maydonlar tap-taqir bo'lgan bu keng makonda ko'p

marta quyosh chiqib, ko'p marta botdi. Havo tobora isib, o't-o'lanlar sarg'aydi. Yerlar tors-tors yorildi.

Bu turnalar bola ochib, kuz shamollari esa boshlanguncha turishadigan makon edi. Zero, bunda Cho'loq turnachaning ota-onasi va aka-opalaridan ham o'zga turnalar oilasi ko'p va ularning har biriga tegishli, o'zlariga xos tug'ma qonunlariga ko'ra chegaralangan yerlari bor edi. Bu makonda, albatta, ularning g'anislari, kushanda va do'stlari ham bor edi. Masalan, eng ashaddiy dushmanlari tulki ila shaqal. Lekin bu ajoyib qushlar yashash uchun shunday kurash tarziga bo'yusunar edilarki, ular g'anislari qarshi o'z qurollari bilan kurashishni ham bilishar edi. Birgina «qaq-qaq» etgan tovush manman degan tulkinining esxonasini chiqarib yuboradi. Shaqal ham toqat qilolmaydi bu tovushga va yirtqichlarning har ikkisi ham ushbu ovozlarning egasi g'oyatda nozik, mutlaqo beozor qushlar ekanini sira aqlga «sig'dirolmaydi», chunki bu yirtqichlarni qadim-qadimdan xuddi mana shunday tovushlar dahshatga solib kelgan, bu tovushlar chiqqan joydan qochish - ularga yashash uchun kurash edi.

Tabiat naqadar dono!

Turnalarning uyalari nima uchun bu qadar sodda-ibtidoiy: qumga qattiq bosilgan tuyu izining o'zi. Tag'in ochiq yerga qo'yishadi. Atrofi nega kichik toshlar bilan qurshaladi? Bu uyalarda yana bir g'aroyibotni ko'rish mumkin: qaysi turna tuxum qo'ysa, tuxumlari bilan yonma-yon ikki-uchta ot tezagini ham keltirib qo'yadi. Ular nega kerak?

Turna o't-o'lan orasiga in qo'ysa - dahshat! Chunki aksar yirtqichlar o'zlariga yemishni o'sha o't-o'lanlar orasidan izlashadi. Xolis, tekis yerdan-chi? Yo'q. Lekin birda-yarim yo'lakay turna uyasi ustidan o'tib qolishi mumkin. Shunda ular Ona-turnalar qo'yan tuxumlar-

ni ko'radimi? Ko'radi. Lekin nega chaqib, yeb ketishmaydi? Chunki tuxumlarning rangi ot tezagidan farq qilmaydi. Ot tezagida nima bor ularga! Uya atrofidagi toshchalar nega kerak? Cho'l shamollari tuxumlarni dumalatib ketmasligi uchun kerak.

Yashash sharoitining o'zi jonli – jonivorlarga ham qanday yashamoqni o'rgatib yaratgan.

Kuz shamollari...

Turnalar bezovta bo'lib, yig'ilal boshladi. Olis-olislardagi turnalar oilalari ham sayhonlik ustida parvoz qila-qila pastda ko'ringan bu to'plarga kelib qo'shilar edi. So'ng qanotlarini «tap-tap» urib yugurishgan, bir-birini quvlashgan, oyoqlarini ko'tarib, qanotlarini silkitishgan.

Yosh turnachalar ham ularga taqlid qilishadi. Lekin ular ko'proq uchishadi, illo, ularni ko'proq uchishga ota-onalari majbur etishadi: yerda uzoq qolishsa, aymay cho'qishadi. Goho bu sahro turnalarning «qaqqaq» ovozlaridan larzaga keladi. Ovozlar uzoq-uzoqlarga ketadi va kunora yiroqlardan yangi-yangi turnalar oilasi kelib qo'shiladi.

Goho bu olatasir to'p ufqlar ortiga – olis janubga, ulargina sezishi mumkin bo'lgan iliq taft kelayotgan yoqlarga qarab turishadi. Shunda shimoldan esadigan shamol ularning yollarini, soqollarini va qanotlarini hurnaytiradi.

Bir safar turnalar galasi taqir maydonda uzoq yo'rg'alab qaqlashdi. So'ngra shunday tapir-tupur qanot qoqib havoga ko'tarilishdiki, taqir yer changib, yovshan-u shuvoqlar boshi shamol esgandek egildi. Taloto'nda yerga talay patlar uchib tushdi. So'ng qushlar havoda «gilamcha» bo'lib, aylana-aylana ko'tarila boshladidi. Osmon-u falakka chiqqanda ham aylanishar, bu aziz sahro ustida parvona bo'lgandek aylanishar, endi ularning ovozlarini tamom o'zgacha: qandaydir mungli

va porloq, endi ovozlar bir-biriga jo'r bo'lib chiqar edi: «qur-ey», «qur-ey».

Ovozlar elas-elash eshitila, turnalar nuqtalar misol ko'rina boshladi. Keyin birpas parokanda bo'lishdi-da, uzun saf tortishdi va asta janubga qayrilishdi.

Cho'zilgan ipga tizilgandek bo'lib, sahro.osmonidan uzoqlashib ketishdi.

Turnalar!..

Ularning yaralishlari, yashash tarzlaridan kelib chiqqan alohida uchishlari bor: yerga qo'nish yoki yerdan ko'tarilish paytida «gilamcha» bo'lishadi, olislarga parvozda «arg'amchi»ga aylanishadi.

Zero, olis parvoz paytlarida ipga tizilgandek uchishmasa, ming-ming chaqirim yiroqdagi manzillariga emas, uning yuzdan biriga ham yetishlari gumon, ular yo'llarda qolib yoxud nomaqbul joylarga qo'nib, halok bo'lishar edi. Holbuki, unday bo'lmaydi hech: tabiatning o'zi ularni shunday uzoq masofalarga uchishga qodir qilib, qanotlarini katta va qamrovli, a'zolarini g'oyat kichkina va yengil qilib yaratgani ustiga uchish tarzlarini ham shunga xos holda ijod etgan.

Turnalarda ham, albatta, yo'lboshchi bo'ladi. Biroq u ham olis safarda hamma vaqt safning oldida bora olmaydi. Chunki ro'paradan esuvchi shamol, dovullar, hatto havoning muallaq holati qarshiligi ham uning kuchini kesib qo'yadi. Shuning uchun yo'lboshchi turna ham yo'lakay «dam oladi», ya'ni ortidagi turnaga o'rnini bo'shatib, eng orqaga o'tib turadi. Bu tur uchishda hikmat bor: ro'paradan esgan shamol-u havo oqimi safda eng ko'p oldingi turnaga ta'sir etadi. Orqadagilar... bu qarshilikni juda oz sezib, go'yo havo qarshiligi «yo'q» bo'lgan bir bo'sh quvurda ketayotgandek bo'lishadi. Turnalarning olislarga ucha olishlari siri mana shunda.

So'ngra ularning uzun, ingichka tumshuqlari ham havo oqimini kesish va uning ta'sirini kamaytirishga qo'l keladi. Ingichka oyoqlari dumlari tomonga cho'zilib, go'yo bir juft dum patiga aylanib qoladi.

Pastga tushayotganda bu xil uchmoqqa hojat qolmaydi.

Cho'loq turna...

U ancha ochko'z, ammo baribir zaif bo'lib o'sdi. Aka-opalari parvoz mashqini olayotganda, u ham, albat-ta, safga qo'shilar, lekin birlamchi, tez charchar, so'ngra yerga qo'nish ham uning uchun xiyla azob edi: qiyshayib qolgan oyoq yerga to'g'ri tushmay, Cho'loq goho yiqilib ketar, parvoz oldidan ham tez yugurib olishda shu oyoq xalal berardiki, shuning uchun u ko'pincha yerda bo'lishni afzal ko'rardi. Shuning uchun o'zga turnalar-dan zaif-u, ularga qaraganda xiyla etli bo'lib o'sdi. Biroq «qabilasi» udumi, yashash sharoiti talabi bilan ular xul-qida paydo bo'ladigan o'zgarishlarni bexato o'zlashtir-di. Unda barcha turnalarda bo'lguvchi tug'ma hislar kamol topdi: u ham tulki uchraydimi, shaqal uchray-dimi, dahshatli «qaq-qaq» tovush bilan ura qochiradi-gan bo'ldi; olis ko'llarga borib suv ichib kelish va foydali o'tlarni ota-onasi yordamida topishni o'rgandi, ba'zan o'zi ham ichki – tabiiy hissi bilan topib yedi.

Ba'zan safdan ortda qolgan paytlarida – qorong'i tush-gan, yulduzli kechalarda ham o'z qarorgohini adashmay topib kelardi. Bu xususda u o'tkir edi: eng yaqin yo'llarni kashf etar edi.

Mana, u ham janub sari, xuddi ohanrabodek o'ziga tortayotgan sirli manzil sari «qabilasi» safida uchib bor-moqda. Oldindagi turnalarning yon-veridan esayotgan shamol unga ham oz-moz ta'sir etadi, patlarini yalab o'tadi. Pastlik!.. U hech qachon bunchalar balandda parvoz etmagan edi. Lekin bu uchishning gashti bo'lak

ekan... Buning ustiga, olisda sirli makon bor. O'shangan yetishlari kerak.

U makonning juda ham azizligini hoziroq sezmoqda!

Shu alfovza borar ekan, o'ng-u so'lidan oppoq bultlarning suzib o'tayotganini ko'rdi. Bulutlar unga tanish edi. Bahor chog'laridan tanish... Biroq o'shanda ular yuksaklikdan patlarni yumshatib, ho'l qiladigan yomg'ir yog'dirib o'tishgan edi. Cho'loq turna aka-opalari bilan qo'nishib, ularni pastdan kuzatishgan, so'ng oftob charaqlab chiqqanda, patlarini uzoq titib-to'zg'ishgan edi. Ular goho suvloqqa borib cho'milgandan keyin ham iliq qumloqda turib, patlarini shu xilda quritishar edi. Endi esa Cho'loq turna o'z safdoshlari bilan o'sha bulutlar ichidan suzib o'tmoqda. Lekin u bundan vahimaga tushayotgani yo'q, aksincha – bu g'aroyib makonda erkin-erkin quloch otmoqda.

Bir payt yaydoq, bulutsiz, niliy bo'shliqqa chiqib olishdi. Turnalar kiftiga iliq oftob nurlari tegdi. Ammo olg'a uchganlari sari Cho'loq turna havoning keskin sovib borayotganini payqadi. Pastda... pastlikda oppoq tog'lar ko'rinar, ular ham Cho'loqqa tanish edi: bir vaqtlar ularni yonlab uchgan, lekin o'shanda hech ham bunalik sovuqni sezmagandi. Havo sovigandan sovidi. Turnalar esa tobora tezroq uchishar, chamasi, mana shu tez harakat ularni sovqotishdan saqlamoqda, ba'zilari ning qanotlariga qirov ham qo'ngan edi.

Havo tag'in asta-sekin ilidi. Tog'lar orqada qoldi.

Shu tarzda borishar ekan, Cho'loq turna safning ancha oldiga o'tib qolgan edi. Endi shamolning ta'siri kuchaya boshladi. Chunki yo'l boshchi turnagina emas, uning ketidagi bir necha turnalar ham «yo'l boshchilik» vazifalarini ado etib, hordiq uchun safning quyrug'iga o'tishgan, shunga ko'ra Cho'loq turna karvonning o'rta-sidan oshib qolgan edi.

Cho'loq pastlikda qandaydir tanish yirik qushlarni ko'rdi. Ular o'z sahrolarida ham ba'zan uchrab qolar, biroq makonlariga yaqin yo'lamas edi. Yo'lamas edi-yu, Cho'loqning o'zi ham bu qushlardan ehtiyot bo'lishni tuyar edi.

Ular – burgutlar edi.

Karvon tag'in yuksala boshladi. Cho'loq turna bir necha marta quyiga qaradi. Ne bir tuyg'u ila safdan ajralgisi ham keldi-yu, xuddi safga ko'zga ko'rinxmas zanjir bilan bog'langandek, uchishda davom etdi.

U uchishi kerak edi. U uchishi kerak!

Faqat olg'a uchishi! Sirli, ohanrabo manzil tomon uchishi kerak! Nima bo'lmasin, qanday to'siqlar uchra-masin, baribir uchishi shart! Uchishi...

Etakda daraxtzor qishloqlar ko'zga tashlana boshladi va bir mahal Cho'loq turna shundoq biqinlarida gala-ga-la qaldirg'ochlarning ham parvoz etib borayotganlarini ko'rib qoldi. Keyin esa bir necha qaldirg'och lip-lip eta olg'a o'tdi-da, g'oyib bo'ldi.

Cho'loq turna tag'in ham safning oldiga chiqib qoldi.

Qaldirg'ochlar ham yashash qonunlari, avlodlari udumi hukmida ayni shu pallada janub sari yo'lga chiqishgan edi. Turnalar karvoni oldiga o'tib olgan uch-to'rtta qaldirg'och esa dam olmoqchi, ya'ni kar-vonboshilar kiftiga qo'nishgan, shu sabab ular tezroq charchab, orqaga o'tishgan edi.

Qishloqlar ham ortda qolib ketdi. Cho'loq turna endi safning boshida uchmoqda. Oldindan shovullab esayotgan shamol daf'atan ta'sir etib, uning bor quvvatini so'rib olmoqda edi. Cho'loqning ko'zlar tinib keta boshladi. Lekin uchmoqda. Qayerga... O'sha sirli ma-konga! Cho'loq turna bu aziz makonni umrida ko'rma-gan esa-da, uni biladi: u oldinda!

Karvon bir maromda ketayotgan edi. Cho'loqning parvozi susaygani sari orqadagi turnalar bir-biriga juda yaqin kelib qola boshladi. O'rtadan yo'lboshchi tur-naning «quvq» etgan tovushi Cho'loqqa yetib, u ixti-yorsiz bir tarzda o'rnnini ketidagi turnaga bo'shatdi-da, chetlanib, safning orqasiga o'tdi. Saf yana olg'a intildi. Cho'loq dumda turib uchar edi endi...

Ular shu alfovza uchib, tunni ham o'tkazishdi.

Cho'loq turna karaxt bo'lib qolgan, u bir necha marta karvonning boshiga chiqib, shu zahotiyoy orqaga o'tib olgan, bu orada yo'lboshchi turna bir necha marta «quvq-quvq» deb ovoz chiqargan, endi bu xil ovoz o'zga turnalardan ham eshitila boshlagan edi.

Cho'loq orqada... orqada qola boshladi. U bor kuch-quvvati ila qanot qoqadi. Lekin tobora orqada qoladi.

Karvon olg'a ketmoqda! Turnalar karvonining qonuni qat'iy: ular ortga burilishmaydi: ular ortda qolayotgan safdoshlariga yordam ko'rsatisholmaydi ham – bu hol ularga shunchalar aniqki, hayot tarzlariga aylanib ketgan.

Safga yaroqsiz turna ham taqdirga tan bermog'i kerak. Lekin o'jar, qaysar Cho'loq buni his etsa-da, o'zini dahshat qo'yniga – yolg'izlik qo'yniga tashlagisi kelmaydi: butun bori-borlig'i bunga qarshilik qiladi. Ammo kuch-quvvat bunga imkon bermaydi: Cho'loq turna bu holidan hayratlangan kabi tag'in qanot qoqadi.

Karvon olislab ketdi. Cho'loq yolg'iz qoldi. Endi uning oldida havo qarshiligini kesguvchi kuch yo'q, ho-zirgi mo'tadil havo oqimi ham unga kuchli dovuldek ta'sir etar edi. Cho'loqning tezligi battar kesilib, pastlay boshladi. U nolali ovoz chiqarar, karvon esa uzoqlash-gani ustiga, tag'in balandlab uchmoqda edi.

Cho'loq pastlab borayotgan esa-da, o'sha sirli yurtga qarab uchardi. Pastlab-pastlab ham uchaverdi. Lekin kuch-quvvat uni tark eta borishi, shamol uni orqa-suraverishi oqibatida u deyarli harakatsiz bir holga tushdi.

Unda yashashga intilish hissi o'zga bir tarzda junbisha-keldi. U qo'nishi kerak. Qandaydir sahroga o'xshash yerga, yovshan-yantoqlar o'sgan yerga qo'nishi kerak... Lekin oldindagi Vatan!.. O'sha Vatan uning uchun hayot edi: asl hayot o'shanda edi!.. Endi esa u hayot Cho'loqni inkor etdi. Cho'loq boshqa hayotga ko'nikishi kerak. U qo'nishi kerak, qo'nishi... Cho'loq turna endi temirqan-not bo'lgan polapondek hamon olg'a intilib, past-past yashil daraxtlar ustidan uchib o'tdi. Keng o'tloqlar ham keyinda qoldi. Yiroqda taqir bir maydon ko'rindi. Turna o'ng tomonga intilib borarkan, qarshisida saf tortgan teraklarga yetganda, tag'in o'z-o'zidan pasayib ketdi-yu, ularga shatir-shutur etib urildi. Qanoti qiyshayib, xazonlar ustiga tushdi. Yana o'ng tomoniga yiqilib, shu bo'yи tek qoldi.

Bir mahal uning tingan ko'zlari atrofni ko'rди. Turna apil-tapil qanotini o'nglab oldi va atrof manzarasidan dahshatga kelib, «qaq-qaq!» etib ovoz chiqardi.

U endi o'zga hayot qo'ynida edi...

## MUNDARIJA

Qush tili.....	3
Tuproq ko'chalar.....	23
Yur, tog'larga ketamiz .....	46
Yo'llar, yo'ldoshlar.....	97
Oq turna .....	131

*Adabiy-badiiy nashr*

SHUKUR XOLMIRZAYEV

**YUR, TOG'LARGA KETAMIZ**  
*Qissalar*

Direktor  
Ma'mura QUTLIYEVA

Muharrir  
Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir  
Firdavs DO'STMATOV

Musahhih  
Sayyora MELIQO'ZIYEVA

Sahifalovchi  
Nigora UMARQULOVA

Texnik muharrir  
Hamidulla IBOTOV

Litsenziya raqami: AA № 0009. 2019-yil 6-mayda berilgan.

Bosishga 03.10.09.2022-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 <sup>1/32</sup>.

Bosma tabog'i 4,5. Shartli bosma tabog'i 7,56.

Garnitura «Constantia». Ofset qog'ozni.

Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 232.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Zabarjad media» xususiy korxonasida tayyorlandi.  
Murojaat uchun tel: (97) 409-04-84; (94) 935-00-25



“Print Line Group” XK bosmaxonasida  
chop etildi. 100097, Toshkent shahri,  
Bunyodkor shohko'chasi, 44-uy.

SPACEPRINT.UZ

16000c



1 010600 980779

16000c

# Shukur Xolmirzayev

## Yur, tog'larga ketamiz



ZABARJAD  
MEDIA

PRINT LINE GROUP  
bosmaxonasida chop etildi

ISBN 978-9943-6870-1-1

9 789943 687011